

Axmad BAXRIYEV

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT



Darslik

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

Axmad BAXRIYEV

**PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR
VA PEDAGOGIK MAHORAT**

Darslik

**«Musiqa nashriyoti»
Тошкент– 2024**

UDK: 378.011.33:78(075.8)

KBK: 74.58+85.31

B 36

Baxriyev A.R. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. San'at oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichi talabalari uchun darslik. — T.: Musiqa, 2024. - 188 b.

Darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2024 yil 25 iyundagi 218-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi" asosida chop etilgan

Mas'ul muharrir: **Qodirov R.G'.**, O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Musiqiy pedagogika" kafedrası professori, pedagogika fanlari nomzodi

Taqrizchilar: **Amonov X.N.**, O'zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi B.Zokirov nomidagi estrada san'ati instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari doktori
Axmedov M.M., O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Musiqiy pedagogika" kafedrası dotsenti v.b., pedagogika fanlari nomzodi

San'at oliy o'quv yurtlarida tayyorlanadigan mutaxassis magistrlar bakalavriat, o'rta va boshlang'ich maxsus musiqa ta'limi muassasalarida tahsil oladigan yosh musiqa ijrochilari bilan tashkil etiladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni interaktiv usullarda, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish ko'nikma va malakalarini egallashlari muhimdir. Mazkur darslikda ushbu ta'limiy masalalar zamonaviy pedagogik talablar prizmasi orqali ma'lum darajada qamrab olingan.

Darslik san'at oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichi barcha mutaxassisliklarida tahsil oladigan magistrantlar uchun mo'ljallangan.

San'at oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichi talabalari uchun darslik

ISBN 978-9910-656-15-6

© Baxriyev A.R. 2024.

© O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Kirish

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy islohotlar mamlakatimiz aholisining turmush farovonligi oshishiga, natijada o'sib kelayotgan yosh avlod vakillari ongida milliy madaniyat va san'at mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning ham ortishiga olib keldi. Muntazam tarzda tashkil etilayotgan festivallar, madaniyat bayramlari, ko'rik-tanlovlar, ommaviy sayllar yoshlar ongida vatanga muhabbat tuyg'ularini singdirishda muhim omil bo'lmoqda. Bularning barchasi san'at, xususan, musiqa yo'nalishlarida tayyorlanayotgan oliy ma'lumotli kadrlarning kasbiy salohiyatiga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'lmoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturidagi 46-maqсадda, - "Oliy ta'lim muassasalarida ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish samaradorligini oshirish" alohida ta'kidlangan [1]. Mazkur yo'nalishda san'at oliy o'quv yurtlarida salmoqli ishlar amalga oshirilib, darslik va o'quv qo'llanmalar ilg'or xorij tajribasidan foydalangan holda tayyorlanmoqda. Shuningdek, ta'lim jarayoni yaxlit tarzda HEMIS axborot tizimi orqali amalga oshirilishi, boshqarilishi va nazorat qilinishi bois, ta'limda har bir talabaning o'zlashtirishi dinamikasi individual tahlil etilishi imkoni yaratilgan.

"Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda PQ-4884-son Qarori [3], "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 yanvardagi O'RQ-668-son Qonuni [2] hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar aynan ta'lim masalalariga daxldor bo'lganligi sababli bu borada qo'yilgan vazifalarni bajarish ta'limning o'quv-metodik hamda tashkiliy masalalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqobatbardor o'quv adabiyotlari yaratish va uni o'quv jarayoniga izchil joriy etish bilan bog'liqdir.

Oliy musiqa ta'limida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini oshirish birinchi navbatda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning kasbiy salohiyatiga bog'liq. Shu munosabat bilan, oliy musiqa ta'limida faoliyat

ko'rsatadigan yosh pedagog-mutaxassislar bugungi davr talabiga mos bo'lib, ijtimoiy ehtiyojni anglagan holda zamonaviy bilimlar, innovatsion yo'nalganlik, interfaol o'qitish metodlari bilan qurollangan holda musiqiy pedagogik faoliyatga kirib kelishi zarur. Oliy ta'limdagi ta'lim jarayoni o'zining bo'lajak mutaxassis shaxsini shakllantirishga qaratilgan mazmuni bilan xarakterlanadi [7, 31].

Bugungi kunda o'qituvchining talabaga ob'yektiv bilimlar yetkazishga qaratilgan harakati traektoriyasi o'zgardi. Uning asosiy vazifasi talabalarni yangi bilimlarni o'zlashtirishda tashabbuskorlik va mustaqillik ko'rsatishga undash, bu bilimlarni turli muammoli vazifalarni hal qilishda qo'llash maqsadida izlash va topish yo'llarini ko'rsatishdan iborat. Ta'limda ilmiy-musiqiy muammolarga yechim topish bosqichida o'qituvchi talabalarni gipotezalarni ilgari surishga va sinab ko'rishga undaydi va shu orqali yangi bilimlarni "kashf" etishini ta'minlaydi.

Ushbu darslik san'at oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichi barcha mutaxassisliklarida tahsil olayotgan magistrantlar uchun mo'ljallangan bo'lib, oliy musiqa ta'limida pedagogik texnologiyalar asosida, darslarda interfaol usullarni qo'llagan holda musiqiy bilimlarni talabalarga yetkazish, ularda innovatsion tafakkurni, fan sohasidagi yangiliklarga bo'lgan ichki ehtiyoj ustanovkasini shakllantirish, jamoaviy, kichik guruhlar va individual tarzda tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlarida har bir talaba bilan individuallashtirilgan ta'lim formatida ishlash orqali ularda bilish qobiliyatlarini, kreativ tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Darslikni tayyorlashda muallif N.X.Avliyakov (Авлиякулов Н.Х. Педагогическая технология. - Т.: Aloqachi, 2009. - 148 с.); N.N.Azizxodjayeva (Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство: Учеб. пособ. для магистратуры всех специальностей - Т.: Издательско-полиграфический творческий дом имени Чулпана, 2005. - 200 с.); H.J.Ro'ziyev (Ro'ziyev H.J. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. - Т.: Fan va texnologiya, 2013. - 200 b.); E.Turakulov (Turakulov E. Pedagogik texnologiyalar va mahorat. Magistrlar uchun qo'llanma. Samarqand, 2006. - 134 b.); A.Xoliqov (Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - Т.: Iqtisod-moliya, 2010. - 312 b.); X.M.Gafurov (Гафуров Х.М. Педагогическая технология и педагогическое мастерство.

Учебное пособие для слушателей магистратуры. Ташкент, 2008. - 75 с.); D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova (Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma. Tuzuvchilar: D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. - T: TDPU nashriyoti, 2013. - 136 b.); Z.H.Qosimova (Qosimova Z.H. Ta’lim texnologiyalari (pedagogik mahorat). O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2014. - 203 b.); H.T.Omonov va boshq. (Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Toshkent, 2007. - 195 b.); G.K.Selevko (Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий. Т.1. -М.: Народное образование, 2006. - 468 с.); Yu.P.Azarov (Азаров Ю.П. Искусство воспитывать: книга для учителя. 2-е, испр. и доп. – М.: Просвещение, 1985. - 448 с.); Yu.B.Aliyev (Алиев Ю.Б. Настольная книга школьного учителя-музыканта. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. – 336 с.); A.Ya.Ansupov (Анцупов А.Я. Конфликтология: учебник для вузов / А.Я.Анцупов, А.И.Шипилов. — 4-е изд. - М.: Эксмо, 2009.); V.P.Bespalko (Беспалько В.П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия). – М.: Изд-во МПСИ, Воронеж : МОДЭК, 2002. – 352 с.) va boshqa mualliflarning darslik, o‘quv qo‘llanma va monografiyalarini tahliliy o‘rganib chiqishga garakat qildi.

Darslikda har bir mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar, adabiyotlar ro‘yxati, mustaqil ish mavzulari, testlar, amaliy mashg‘ulot ishlanmalari, mavzu yuzasidan savollar, glossariy, shuningdek, 26 ta rasm va 2 ta jadval aks ettirilgan.

Muallif darslik mazmunini yanada takomillashtirish bo‘yicha soha mutaxassislari tomonidan bildiriladigan barcha taklif, fikr va mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladi hamda oldindan o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

I-MODUL. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT FANINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.

Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Reja:

1. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat fanining mustaqil fan sifatida shakllanishi tarixi.
 2. Innovatika, pedagogik innovatika, ularning tasnifi, rivojlanishi va istiqbollari.
 3. Pedagogik texnologiyalarning mohiyati va tamoyillari.
 4. An'anaviy va rivojlantiruvchi ta'limning o'ziga xos jihatlari.
- Ilg'or pedagogik texnologiyalar.

Tayanch tushunchalar: pedagogik texnologiya, innovatika, pedagogik innovatika, an'anaviy ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim.

Adabiyotlar

1. 2022–2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi PF-27-son Farmoni. Elektron manzil: <https://lex.uz/uz/docs/-6396146>
2. Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son Qarori. <https://lex.uz/docs/5085887>
3. Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 yanvardagi O'RQ-668-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5230682>
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Barcha magistratura mutaxassisliklari uchun o'quv qo'llanma. -T.: TDPU, 2003. - 177 b.

5. Беспалко В.П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия). – М.: Изд-во МПСИ, Воронеж : МОДЭК, 2002. – 352 с.

6. Raximov O.D., Turg'unov O.M., Mustafayev Q.O., Ro'ziyev H.J. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. - T.: Fan va texnologiya, 2013. - 200 b.

Elektron manbalar

1. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/4842>
2. <https://terme.ru/termin/tehnologija.html>
3. <https://news.mail.ru/guide/chto-takoe-tehnologiya-96/>
4. https://synergy.ru/about/education_articles/speczialnosti/kem_mozhno_rabotat_v_innovatike
5. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/1506378>
6. <https://viafuture.ru/sozdanie-startapa/pedagogicheskaya-innovatika>
7. <https://viafuture.ru/sozdanie-startapa/pedagogicheskaya-innovatika>

1. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat fanining mustaqil fan sifatida shakllanishi tarixi.

“Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” kursining predmeti, maqsadi, vazifalari, o'ziga xosligi va ta'limiy xususiyatlari borasida fikr yuritishdan oldin fanning nomini tashkil etgan: pedagogika, texnologiya, musiqa, musiqa pedagogikasi va mahorat singari tayanch tushunchalarning ma'no-mazmunini tahlil qilishga harakat qilamiz.

“Pedagogika” atamasi yunonchadan olingan bo'lib, “bola yetaklash” degan ma'noni anglatadi. 18-asrdan, ya'ni “Buyuk didaktika” asari muallifi Yan Amos Komenskiy davridan boshlab o'qitish, uning jamoaviyligi, shakllangan pedagogik tamoyillarning hayotga tadbqiq etilishi bilan bog'liq barcha jarayonlarni o'z ichiga olgan jarayon tushuniladi [106].

Texnologiya – yun. - san'at, mahorat, malaka, fikr, sabab ma'nolarini anglatadi va keng ma'noda har qanday faoliyat sohasida qo'llaniladigan usullar, jarayonlar va materiallar majmui, shuningdek, texnik, ishlab chiqarish usullarining ilmiy tavsifi; tor

ma'noda – ma'lum sifat va maqbul xarajatlar bilan va fan, texnika hamda jamiyatning hozirgi rivojlanish darajasi tufayli mahsulot ishlab chiqarish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va / yoki foydalanishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar, operatsiyalar va texnikalar majmui. Texnologiya – bu material yoki mahsulotni qayta ishlash jarayonini tashkil etuvchi, ma'lum bir tarzda va ma'lum bir ketma-ketlikda amalga oshiriladigan operatsiyalar majmui [91]. Texnologiya – yun. san'at, hunar + fan) - mahsulot yoki xom ashyo ishlab chiqarish jarayonlari va usullari borasidagi fan yoki ma'lumotlar jamlanmasidir [93]. «Texnologiya» atamasini ilmiy muomalaga XVIII asrda nemis olimi Iogann Bekman kiritgan [94].

Texnologiya atamasi “mahorat, hunar haqidagi fan” degan universal ma'no va mazmunga ega. Pedagogik texnologiya o'qituvchining talabaga pedagogik ta'sirini amalga oshirish bo'yicha kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'nikmalar tizimini aniqlash ma'nosida qo'llaniladi va pedagogik faoliyatning texnologik samaradorligini anglash hamda uni qo'llash yo'lini taklif qiladi. Ta'lim texnologiyasi – ta'lim modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning yaxlit jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir.

Taniqli pedagog, akademik V.P.Bespalko so'zlari bilan aytganda, - “Hozirgi sharoitda kompyuterlarning ta'lim amaliyotiga jadal kirib kelishi bilan ta'limdagi barcha faoliyatlarga tubdan yangicha yondashuv ochildi. Bu o'qitishni personallashtirish orqali ta'limni yaxlit individuallashtirish uchun haqiqiy imkoniyatdir, bu pedagogikadagi umumiy va'zlardan pedagogik jarayonlarni optimal loyihalashga o'tish, bu barcha ta'lim oluvchilarning fanlarni yuqori darajada o'zlashtirishiga erishishdir, va nihoyat, bu ta'limni og'ir mas'uliyatdan bir umrga hayotning quvonchli mashg'ulotiga aylantirishdir” [16].

Albatta, o'qitish pedagogik, axborot va innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida amalga oshirilishi natijasida ta'limda ko'pgina qo'shimcha imkoniyatlar paydo bo'ldi va ularni o'qitish amaliyotiga jadal joriy etish bugungi kunning dolzarb talablaridan biridir.

“Musika” atamasi yunonchadan (*musike, musa*) olingan bo'lib, turli-tuman

tovushlar bilan musiqiy obraz yaratib beruvchi, g'oyaviy-emotsional mazmunga ega bo'lgan san'atning bir turidir.

Musika pedagogikasi - pedagogika fanlari tarmog'i: talaba (o'quvchi)larga musiqashunoslik fanlarining majmuasi borasida ma'lumotlar berish, musika ta'limi va tarbiyasini amalga oshirishning samarali yo'llari, vositalari, shakllari va metodlarini ishlab chiqish, shuningdek, musika san'atining turli sohalari bo'yicha amaliy malaka, tajriba va ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan shug'ullanadi.

Mahorat - bu biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san'at, mohirlik, ijodiy mahorat va boshqalardir [80, 575]. Demak, pedagogik yoki musiqiy pedagogik mahorat deganda, talaba (o'quvchi)larga musiqiy bilim berish borasida tegishli kasbiy ko'nikma, malaka va mahorat tushuniladi.

I.V.Klimenko tavsifiga ko'ra, mahorat bu - tabiat, jamiyat, tafakkur rivojlanishining umuminsoniy, umumiy hamda xususiy qonunlar va qonuniyatlarini bilish, ularni hayotda mohirona qo'llash asosida muayyan faoliyatda eng yuqori natijalarga erishish orqali unda doimiy ravishda ijodiy takomillashtirishdir [46].

I.V.Klimenko pedagogik mahoratga erishish shartlari sifatida:

- kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni oshirish manbai sifatida o'z pedagogik faoliyati amaliyotidan foydalanish;
- pedagogik ishning eng yaxshi usullarini o'zlashtirishda amaliy faoliyatning o'sishi, bajarilgan kasbiy vazifalarning doimiy ravishda murakkablashib borishi;
- kerak bo'lganda kognitiv va amaliy faoliyatni ushbu mutaxassislik doirasidan tashqariga kengaytirish;
- hamkasblarning ilg'or tajribasini o'rganish va ijodiy rivojlantirish, ilgari olingan ma'lum va noyob, bir muncha vaqt o'tgach, boshqalarning mulkiga aylanishi mumkin bo'lgan universal faoliyat yo'nalishini amaliyotga joriy etish;
- umumiy ta'lim, siyosiy, kasbiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablarni oshirib borish, chunki bilimsiz va ularni mehnat jarayonida ijodiy qo'llamasdan kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning imkoni cheklangan;
- o'z kasbiga muhabbat;
- mehnat madaniyati;


- aniq hisob-kitoblarga asoslangan tajriba, mehnatning eng samarali usullarini izlash, ijodkorlik, yangilikka intilish;
- shaxsiy fazilatlarni takomillashtirish va boyitish mehnatsevarlik, qat'iyatlilik, ishda tirishqoqlik, biznesga qiziqish, tezkorlik, izlanuvchanlik, erishilgan natijalar bilan to'xtab qolmaslik kabilarni keltiradi.

Fanning maqsadi – magistrantlarda pedagogik faoliyat jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash va pedagogik mahorat malakalarini shakllantirish, ularda pedagogik mahorat asoslarini egallash o'qituvchi sifatida shakllanishiga ko'maklashishdan iborat. Fanning vazifasi – musiqa o'qitish bilan bog'liq barcha texnologik jarayonlarni magistrant-talabalarda ma'lum ierarxik tizim asosida qo'llash malakalarini shakllantirishdir.

Musiqa pedagogikasining asosiy tushunchalari quyidagilardan iborat. Musiqa o'qitish - bu o'quv rejasi asosida talaba (o'quvchi)larga musiqiy bilim, ko'nikma, malakalarni yetkazish va singdirish jarayonidir. Musiqa o'qitish musiqa ta'limining ma'lum darajasiga javob beruvchi, musiqiy-estetik faoliyatning bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan.

Musiqa pedagogikasi talaba (o'quvchi)lar musiqiy-estetik faoliyatining turli ko'rinishlarida amal qiladi va rang-barang ish shakllari, ta'lim texnologiyalari, metodlari orqali ta'lim oluvchilarning musiqiy bilimlari oshishiga, ularda badiiy-estetik didning shakllanib borishiga xizmat qiladi. Musiqa o'qitish va tarbiyalashda pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar - o'quv-tarbiyaviy jarayon ishtirokchilari orasidagi o'zaro interaktiv harakatni tashkil etib bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtiriladi.

Musiqa pedagogikasi pedagogika (xususiy pedagogika) fanlaridan biri bo'lib, musiqa san'atiga oid bilimlarni texnologik vositalar orqali singdirish, o'qitish va tarbiyalashni amalga oshiradi. Ta'lim oluvchilarga musiqa ta'limi va tarbiyasini singdirish jarayoni tarixiy xarakterga ega va umumiy pedagogikaning umumiy qonunlari asosida amalga oshiriladi (1-rasmga qaralsin).



1-rasm. Musiqiy o‘quv-tarbiyaviy jarayon.

Pedagogik texnologiyalar tarixiga nazar tashlaganda, pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo‘ldi va dastlab ushbu asrning o‘rtalarida AQShda qo‘llanila boshladi. Bunda «pedagogik texnologiya» va «ta’lim texnologiyasi» atamaları faqat texnika vositalari yordamida o‘qitishga nisbatan qo‘llangan edi. Bu tushuncha 1940-yillardan 50-yillar o‘rtasigacha «ta’lim texnologiyasi» deb qo‘llanilib, o‘quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni ifodalagan [56].

Vaqt o‘tishi bilan ularni qo‘llash darajasi kengayib borishi natijasida mazmuni ham tegishlicha o‘zgarib bordi. Hozirga kelib pedagogik texnologiya tushunchasining zamonaviy, ilmiy asoslangan yagona ta’rifini belgilash maqsadida bir qancha yirik olimlar tomonidan turli fikr va mulohazalar asoslab berildi. O‘tgan asrning 50-yillari o‘rtasidan 60-yillargacha ham «ta’lim texnologiyasi» atamasi qo‘llanilib, bunda dasturlashtirilgan ta’lim nazarda tutilgan. 70-yillarda «pedagogik texnologiya» atamasi qo‘llanilib, u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o‘quv jarayonini ifodalagan. 20-asrning 80-yillaridan boshlab

pedagogik texnologiya deb, ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan edi.

Yuqoridagi fikrlar asosida pedagogik texnologiya tushunchasini ikki xil izohlash mumkin: pedagogik texnologiyaning o'quv jarayonida texnika vositalaridan foydalanishning kengayib borishini ifodalashi nazarda tutilib, ta'limdagi texnologiya deb nomlash mumkin bo'lsa, pedagogik texnologiya o'quv jarayonining o'zini qurish texnologiyasini bildiradi.

Innovatika, uning tasnifi, rivojlanishi va istiqbollari. Pedagogik innovatika - bu g'oya, usul, vosita, texnologiya yoki tizim. Innovatsiya - bu yangilikni joriy etish va o'zlashtirish jarayonidir.

Pedagogik innovatika (yangilik kiritish, innovatsiya) – ta'lim muassasasining faoliyatiga nisbatan barqaror yangilik elementlarini kiritib, uning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishdir [66, 9].

Innovatsiyalar bilan bog'liq muammolar:


- ta'lim oluvchilar, ta'lim muassasalaridagi va ehtiyojlardagi farqlar;
- bir ta'lim muassasasida turli pedagogik konsepsiyalar va yondashuvlar tarafdorlarining mavjudligi;
- innovatsion dasturlarni an'anaviy dasturlar bilan birlashtirish muammosi;
- innovatsiyalarni mavjud sharoitlarga moslashtirish;
- innovatsion o'qituvchi, pedagog-novator va innovatsion muassasa rahbarini kasbiy tayyorlashning nisbatan murakkabligi.

Innovatsiyalar turlari: ta'lim mazmunida, ta'lim jarayonining metodlari, texnologiyalari, metodikalarida, o'quv jarayonini tashkil etishda va ta'lim muassasasini boshqarish tizimida ifodalanadi. Innovatsiyalar mahalliy, modulli va tizimli bo'lishi mumkin.

Pedagogik innovatsiyalar boshqa jarayonlar - moddiy-texnikaviy, iqtisodiy va hokazolarni emas, balki shaxsni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Pedagogik innovatikaning ob'yekti innovatsion jarayon, uni amalga oshirish shartlari, usullari va natijalaridir. Innovatika predmeti innovatsion jarayonlarning

samaradorligi va uni belgilovchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, o'zgarishlar samaradorligini oshirish uchun ushbu omillarga ta'sir qilish usullaridir. Rasmda innovatsion jarayonlar qirralari keltirilgan (2-rasmga qaralsin).



2-Pachm. Innovatsion jarayonlar qirralari.

Pedagogik innovatsiya qonuniyatlari.


- ▶ Pedagogik innovatsion muhitning qaytarilmas beqarorlashuvi qonuni
- ▶ innovatsion jarayonni yakuniy amalga oshirish qonuni;
- ▶ pedagogik innovatsiyalarni stereotiplash qonuni;
- ▶ turkumli takrorlanish, pedagogik innovatsiyalarning qaytarilishi qonuni [56].

Innovatikaning mazmuni. Ta'limning yangi maqsadlari va qadriyatlari bilan bog'liq bo'lgan ta'lim muassasasidagi psixologik iqlimning o'zgarishi; rivojlangan pedagogik tizimlarni joriy etish va tarqatish; innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan, muntazam tarzda yuzaga keladigan turli qarama-qarshiliklarni yengib o'tishga yo'naltirilgan maktablarda dizayn, boshqaruv va ta'limning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish; innovatsion maktablarni yangi moliyaviy, axborot, ijtimoiy-madaniy tuzilmalar va mexanizmlar doirasiga jalb etish; pedagogik faoliyat barqaror ijodiy faoliyat xarakteriga ega bo'ladi va o'quv jarayonining barcha tarkibiy qismlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsiyalarning turlari:

- nol tartibidagi innovatsiyalar - an'anaviy ta'lim tizimini yoki uning elementini takrorlash;
- birinchi darajali innovatsiya - o'zgaras sifat bilan miqdoriy o'zgarishlar;
- ikkinchi darajali innovatsiyalar - tizim elementlarini qayta guruhlash va tashkiliy o'zgarishlar kiritish;
- uchinchi darajali innovatsiyalar - eski ta'lim modelidan chiqmasdan yangi sharoitlarda ta'lim tizimidagi moslashuvchan o'zgarishlar;
- to'rtinchi darajali innovatsiyalar - ta'lim tizimining alohida tarkibiy qismlarida yuz beradigan oddiy sifat o'zgarishlari;
- beshinchi darajali innovatsiyalar - tizimning barcha yoki ko'pgina dastlabki xususiyatlarining o'zgarishi;
- oltinchi darajali innovatsiyalar - tizimni tashkil etuvchi funktsional printsiptni saqlab qolgan holda tizimning asosiy xususiyatlarini sifat jihatidan o'zgartiradigan "yangi turdagi" ta'lim tizimlarini yaratish;
- yettinchi tartibdagi innovatsiyalar - ta'lim tizimlarining tubdan o'zgarishi, "yangi turdagi" ta'lim tizimlarining paydo bo'lishi [98].

Innovatsion jarayonning tuzilishi - innovatsiyalarni yaratish, ta'lim faoliyatini tahlil qilish va o'zgartirishlar zarurati mavjudligini aniqlash, innovatsiyalarni loyihalash, innovatsiyalarni eksperimental sinovdan o'tkazish va innovatsiyalarni ekspertiza qilishdan iboratdir (3-rasmga qaralsin).



3-rasm. Innovatsion jarayon komponentlari.

Innovatsiyalarning tarqalishi:

- ✓ tarqatishga tayyorgarlik ko'rish;
- ✓ innovatsiyalar haqida ma'lumot berish;
- ✓ innovatsiyalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash;

✓ innovatsiyalarni taqsimlash va rivojlantirish tahlilini amalga oshirish.

Innovatsion texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari: amalga oshirish - ishlab chiqaruvchining o'zi tomonidan amalga oshiriladi, injiniring - marketing, loyihadan oldingi so'rov, biznesni rejalashtirish, ishlab chiqishdan to kompleks jihozlar bilan ta'minlash, xodimlarni qo'llab-quvvatlash va keyingi xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan jarayonlar, konsalting - bu innovatsion faoliyatni rejalashtirish strategiyasini tanlash bosqichini ta'minlovchi innovatsion texnologiya, trening - innovatsiyalar uchun kadrlar tayyorlash bosqichi kabilardir. Innovatsion rivojlanishning kontseptual, tashkiliy-faoliyatli va Ilmiy-uslubiy darajalari mavjud.

“Har bir tadqiqot yo‘nalishining yakuniy maqsadi erishilgan natijani amaliyotda qo‘llash uchun amaliy fan, noyob texnologiyalarni ishlab chiqish yoki tabiat kuchlarini boshqarishning yangi usullarini ixtiro qilish, ularni amaliy qo‘llashga e’tibor qaratadi. Hozirgi sharoitda yangi texnologiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish ularni joriy qiladiganlarning nisbatan ozligi sababli ba’zan kechikmoqda. Vaziyat asta-sekin o‘zgarib, tarmoqda innovatsiyalarda qanday kasb va kim bilan ishlash kerakligi haqida so‘rov paydo bo‘lishi bejiz emas. Innovatsiyalar talabga aylanganligi sababli, mutaxassislar bu yo‘nalishda muvaffaqiyatli ish olib borishmoqda. Mazkur sohada innovatorlar, ya’ni, fan va texnika yutuqlarini turli yo‘llar bilan keng ommaga yetkazadigan insonlar mehnat qiladi” [95].

Shu jihatdan innovatika axborotni qidirish, saqlash, qayta ishlash va taqdim etish usullarini, mualliflik huquqini himoya qiluvchi qonun hujjatlarini, ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasini, rasmlarni raqamlashtirish va tahrirlashni, innovatsiyalarni boshqarishni o‘z ichiga oladi.

Jumladan, “Biznes atamalar lug‘ati”da, - “Innovatika bu innovatsion faoliyatning mohiyati, uni tashkil etish va innovatsion jarayonlarni boshqarish to‘g‘risidagi bilimlar sohasi bo‘lib, u yangi bilimlarni jamiyat talab qiladigan innovatsiyalarga tijorat asosida (ilmiy, texnik va ijodiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish) hamda notijorat asosda (masalan, ijtimoiy sohadagi innovatsiyalar) aylantirishni ta'minlaydi”, - deya ta'riflangan [96].

Pedagogikada innovatika juda muhim, chunki, u birinchi navbatda o'qitish va umuman ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan. O'qitish metodlari qanchalik qiziqarli va ijodiy yo'naltirilgan bo'lsa, o'quv materiali shunchalik oson, tez va yaxshi o'zlashtiriladi. Masofaviy ta'limni rivojlantirishga yanada ko'proq e'tibor qaratish lozim, hozirgi sharoitda bu keng qo'llanilmoqda va uning ommalashishi esa muntazam o'sib boradi [97].

Pedagogik innovatika bu pedagogikaning ta'lim sub'ektlari bilan bog'liq holda pedagogik yangiliklarning tabiati, paydo bo'lish va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadigan, shuningdek, pedagogik an'analar va kelajakdagi ta'limni loyihalash o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlovchi bo'limidir. Pedagogik innovatikaning asosiy tushunchalari: pedagogik yangilik, innovatsiya, yangilikni joriy etish, pedagogik novatorlik, innovatsion jarayon, innovatsion pedagogika, innovatsion faoliyat, innovatsiyalashtirish.

Pedagogik innovatikaning ob'yekti – talaba (o'quvchi)larning ta'limi va tarbiyasida yangiliklarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'zlashtirilishi, ularni tarbiyalash va rivojlantirish sifatini progressiv o'zgarishlariga olib keladigan jarayonlar bo'lib hisoblanadi. Pedagogik innovatikaning predmeti pedagogik faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish, samaradorligini asoslash va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar, vositalar va qonuniyatlar yig'indisidir. Pedagogik innovatika o'qituvchilarning zamonaviylashtirilgan pedagogik vositalardan foydalangan holda ta'lim oluvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishiga asoslanadi.

Pedagogik innovatika yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavrlar hududlarning iqtisodiyot tarmoqlari va korxonalarni innovatsion rivojlantirish bo'yicha mutaxassislar, davlat organlarida sanoatni rivojlantirish bo'limlari xodimlari, loyihalar menejerlari, biznes-tahlilchilar, tijorat tashkilotlarida texnik direktorlar lavozimlarida ishlashi mumkin. Innovatsiyalar davlat organlari tomonidan emas, balki ta'lim va fan tizimi xodimlari hamda tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladi, amalga oshiriladi.

Ta'lim faoliyati kontekstida innovatsiya ta'lim va tarbiyaning yangilangan

maqsadlari, mazmuni, usullari va shakllarini joriy etishni, shu asosda pedagogik jarayonni tashkil qilishni nazarda tutadi. Shunday qilib, innovatsion jarayon ma'lum yangilikning mazmuni va tashkil etilishini asoslash va rivojlantirishdan iborat [98].

Pedagogik innovatsiya - bu inson tomonidan ta'lim jarayoniga o'zgarishlar kiritishdir. Ular ta'lim jarayoni sub'ektlarining imkoniyatlariga ko'ra ta'lim va tarbiyaning yaxlit tizimini takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan. Ularga ko'ra ta'lim maqsadlari va mazmuniga qaratilgan innovatsiyalar, pedagogik jarayonning usullari, yo'llari, vositalari, texnologiyalaridagi yangiliklar, ta'lim va tarbiyani tashkil etish shakllarida namoyon etiladigan innovatsiyalar, ma'muriyat, professor-o'qituvchilar va talabalar faoliyatini tashkil etishdagi innovatsiyalar.

Pedagogik texnologiyalarning mohiyati va tamoyillari. Pedagogik texnologiyani amalga oshirishning quyidagi umumiy qabul qilingan tamoyillari ajratib ko'rsatiladi:

- tarixiylik (yangi texnologiyalarni yaratish tarixiy tajribani tahlil qilish va undan foydalanishni talab etadi);
- ilmiylik (texnologiyalarning nazariy asoslarini ishlab chiqishda falsafa, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va boshqa fanlar o'rtasida mavjud oqilona aloqalarga tayanish);
- modullilik (texnologiyaning har qanday qismi tizimning bir qismi va unda muayyan funktsiyalarni bajaradigan mustaqil, to'liq birlikdir);
- inkorporativlik (ta'lim jarayonini optimallashtirish bilan bog'liq barcha bosqichlarning modelni nazariy asoslash va keyinchalik uni loyihalash, qurish va texnologiyani amalga oshirish uchun turli fanlardan turli bilimlarni birlashtirish qobiliyati);
- tabiiy muvofiqlik (ta'lim jarayonining uyg'unligini belgilaydigan shaxs shakllanishi va rivojlanishining tabiiy-ilmiy asoslari);
- texnologiyalashtirish (kafolatlangan natijani oldindan olish uchun optimal imkoniyat);

- ergonomika (bu tamoyil texnologiyalashtirish printsipli bilan birlashtirilgan. U nafaqat talabalar, balki o'qituvchilarning ham samaradorligini oshiradigan shunday maqbul mehnat sharoitlarini shakllantirishni nazarda tutadi);

- moslashuvchanlik (ushbu texnologiyani nafaqat har xil turdagi ta'lim muassasalarida, balki, deyarli har qanday fanni rivojlantirishda ham qo'llash imkonini beradigan sharoitlar yaratiladi) [40, 29-31].

V.P.Bespalko pedagogik texnologiyaning mohiyatini yaxlitlik tamoyili orqali ochib beradi, uning fikricha pedagogik texnologiya:

- 1) amaliy faoliyatni o'quv jarayonini dastlabki loyihalashga, kelajakda loyihani amalga oshirishga, ya'ni, "didaktik vazifa"ni "o'qitish (ta'lim) texnologiyasi"ga o'tkazishga qodir;

- 2) talaba (o'quvchi)ning o'zi faoliyatining tuzilishi va mazmunini aniqlash imkonini beruvchi o'quv jarayoni loyihasini taklif qila oladi. Ma'lum bo'lishicha, ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni loyihalash o'quv jarayonining sub'ektlari bo'lgan talaba (o'quvchi)larning barqaror natijalarini yaxshilashga yordam beradi;

- 3) maqsadni aniq belgilash, butun o'quv jarayonini kerakli natijalarga erishishni kafolatlaydigan, joriy natijalarni baholash, qo'yilgan maqsadlarni amalda ro'yobga chiqarish, o'quv jarayonini shunday tartibga solish kerak bo'lganda maqsad qo'yish jarayonidir (M.V.Klarin).

Pedagogik maqsadlar taksonomiyasining muallifi B.Blum o'zining "Taksonomiya" asarida ierarxiya bo'yicha tasniflashni taklif qilgan. Yuqoridagilarga asoslanib, pedagogik texnologiya harakatlarda ifodalangan ta'lim natijalariga ko'ra maqsadlarni shakllantirishga qodir, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Texnologiyaning o'zi maqsadlarga kafolatlangan erishishni hisobga oladigan jarayonni optimal qurish va amalga oshirish bilan bog'liqdir [90].

Pedagogik texnologiya texnologik jarayonda amalga oshiriladi. Texnologik jarayonlarni o'qitish nazariyasiga misol tariqasida o'quv kursining aniq mavzusini o'rganishda ham, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda ham har turdagi masalalarni yechishda turli ko'nikma va malakalar shakllantirilganda qo'llaniladigan shakl va

vositalar tizimini keltirish mumkin. Har bir muammoni adekvat ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali hal qilish mumkin.

Pedagogik texnologiya umumiy metodologiya va maqsadlar bilan bog'liq holda mavjud va psixologik-pedagogik shakllar, usullar va vositalar yig'indisidir. Texnologiyani qo'llash orqali ma'lum natijaga erishish mumkin. Pedagogik texnologiya faqat maqsadlarga emas, balki yaxlitlik, optimallik, samaradorlik, real sharoitlarda qo'llanilishi va hokazolardan iborat mezonlarga asoslanadi. Bu mezonlarning mavjudligi pedagogik texnologiyaning sifat xususiyatlarini belgilaydi.

Pedagogik jarayon samaradorlik qobiliyatining sifat xususiyatlari - izchillik, yaxlitlik, tizimlilik, maqsadlilik, murakkablik, o'rganilayotgan bilimlar mazmuni va miqdorining ustuvorligi, o'quv jarayoni mantiqiy tuzilishining mavjudligi, o'quv qo'llanmalarining rivojlantiruvchi xususiyatga egaligi, diagnostika; jarayonning takrorlanuvchanligi, boshqarilishi va tuzatilishi, ilmiy xarakteri, optimallashtirish, vizuallashtirish, puxtalik, natijalar sifatini baholash kabilardir. Shu bilan birga, yuqoridagi sifatlar texnologiyalarga ham qo'yiladigan uslubiy talablar va ishlab chiqarish mezonlari hisoblanadi. Pedagogik jarayonning samaradorlik qobiliyati o'lchovi ushbu fazilatlarining mavjudligi va namoyon bo'lishi darajasiga bog'liq.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya ilmiy asoslangan, uslubiy jihatdan to'g'ri, mazmuni ta'limga mos keladigan maqsadlarga ega, har bir talaba uchun uning qiziqishlari, qobiliyati va imkoniyatlarini hisobga olib, pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlagan holda loyihalash, tashkil etish va amalga oshirish o'quv jarayoni sub'ektlari faoliyatini u bilan bog'liq holda birlashtiruvchi modeldir.

Tizimlilik. Ma'lum tarzda tashkil etilgan tarkibiy qismlardagi izchillik, integral xususiyatlar va sifatlar to'plami mavjudligida ifodalanadi.

Murakkablik. Pedagogik jarayonlarning ko'p omilliligi va mazmunan xilma-xilligi pedagogik texnologiyalarni murakkablashtiradi, bu barcha elementlarni muvofiqlashtirish va ularning o'zaro ta'sirini talab etadi.

Yaxlitlik. Pedagogik texnologiyaning yaxlitligi elementlarning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan holda uning umumiy integral sifati mavjudligidadir.

Ilmiylik. Pedagogik texnologiya pedagogik muammoning ilmiy asoslangan yechimi sifatida tajribani tahlil qilish va qo'llashni, kontseptuallikni, prognozlashtirishni va boshqa xususiyatlarni o'z ichiga oladi, fan va amaliyot yutuqlarining sintezi, o'tmish tajribasining an'anaviy elementlari va undan hosil bo'lganlarning kombinatsiyasi. ijtimoiy taraqqiyot, jamiyatni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish yo'lidagi harakatdir.

Konseptuallik. Pedagogik jarayon har doim ma'lum qarashlar tizimi, g'oyalar, tamoyillar asosida faoliyatni tashkil etuvchi global ijtimoiy maqsadlar bilan amalga oshiriladi.

Faoliyat ijtimoiy-pedagogik tuzilmalarining tashkiliy darajalariga mos keladigan to'rtta ierarxik bir-biriga bo'ysunadigan pedagogik texnologiyalar sinfi (darajalari) modelini tashkil qiladi:

1. Metatexnologiyalar (ijtimoiy daraja).
2. Tarmoq makrotexnologiyalari (umumiy pedagogik va umumiy uslubiy darajalar).
3. Modulli-mahalliy mezotexnologiyalar: alohida metodik (modulli) va tor uslubiy (mahalliy) darajalar.
4. Mikrotexnologiyalar (kommunikatsiya-shaxsiy daraja) [86].

Texnologiyaning rasmiy tavsiflovchi jihati turli hujjatlarda (loyiha, dastur, reglament, nizom, qo'llanma, chizma, xarita) va o'quv-uslubiy jihozlarda (o'quv qo'llanma, ishlanmalar, ta'lim usullari, rejalar va diagnostika) qayd etilgan harakatlarning mantiqiyligi va ravshanligida ifodalanadi). Bu esa texnologiyaning tuzilishi xususiyati algoritmgaga muvofiq ma'lum tartibda bajariladigan alohida mazmunli bo'limlarga (qadamlar, bosqichlar, chegaralar, qismlar va boshq.) bo'linishdan iborat.

Pedagogik texnologiyalarning tizimli sifatleri ham ilmiy, protsessual-samarali va rasmiy-tavsifiy jihatlarning birligida namoyon bo'ladi. Texnologiyaning faoliyatli jihatida sub'ekt sifatleri (kasbiylik) va ob'ektning sifatleri (qobiliyat, ehtiyojlar) mavjud bo'ladi. Texnologiyaning o'zgaruvchanligi va moslashuvchanligi

texnologiyani amalga oshirish shartlariga qarab elementlarning algoritmik ketma-ketligini, tartibini, turkumliligini o'zgartirishga asoslangan.

Pedagogik texnologik jarayon ishtirokchilarning vaqt o'tishi bilan rivojlanib boradigan, belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan va holatini oldindan rejalashtirilgan o'zgarishiga, ob'ektlarning xususiyatlari va sifatini o'zgartirishga olib keladigan o'zaro ta'siri sifatida qaraladi. Maqsadli va boshqariladigan texnologik jarayonni ishlab chiqish maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish va tahliliy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Menejment texnologiyaning qadriyatlari va maqsadlari bilan belgilanadigan strategik yo'nalishidan kelib chiqadi. Bu diagnostik maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, pedagogik jarayonni loyihalash, tuzatish, moslashtirish va boshqalar uchun turli vositalar va usullarni nazarda tutadi. Maqsadlar va boshqaruv pedagogik texnologiyalarning tizim tuzuvchi omillari sifatida qaraladi.

Diagnostik tarzda ishlab chiqilgan maqsadlarda, jarayonning borishi haqida ma'lumot olish va uning alohida bosqichlari va natijalarni kuzatish imkoniyatida ifodalanadi. Natijalarni bashorat qilish har qanday texnologiyaning umumlashtirilgan sifati bo'lib, xususan, ma'lum maqsadlarga "kafolatlangan" erishishda ifodalanadi.

Pedagogik jarayonlar ehtimollik xususiyati bilan ajralib turadi va deterministik emas, balki statistik qonunlarga bo'ysunadi. Prognoz qilingan natija, uning ehtimollik darajasi va ruxsat etilgan darajadagi og'ishlar bilan tavsiflanadi. Kafolat faqat ma'lum bir ehtimollik darajasida va natija qiymatlarining ma'lum bir ishonchlilik darajasi oralig'ida berilishi mumkin. Texnologiyaning samaradorligi deganda natijaning sarflangan resurslar miqdoriga nisbati tushuniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar raqobat sharoitida mavjud bo'lib, natijalar jihatidan samarali va xarajatlar bo'yicha optimal bo'lishi kerak. Optimallik - minimal xarajat bilan maksimal natijaga erishish; optimal texnologiya qo'yilgan shartlar uchun eng yaxshisini ifodalashi zarur.

O'qitish maqsadlarini aniq belgilash, o'qitish jarayonini loyihalash, pedagogik muvaffaqiyatlarni kafolatlash, o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir etuvchi bloklar pedagogik texnologiyaning muhim belgi va xususiyatlari hisoblanadi [45, 7]. Qayta

ishlab chiqarish pedagogik texnologiyani boshqa sharoitlarda va boshqa sub'ektlar tomonidan qo'llash (ko'chirish, takrorlash, ko'paytirish) imkoniyatini nazarda tutadi.

Yuqoridagi barcha sifatlar texnologiyalarga qo'yiladigan uslubiy talablar va ishlab chiqarish mezonlari hisoblanadi. Bu fazilatlarning mavjudligi va namoyon bo'lishi pedagogik jarayonning texnologik samaradorligi o'lchovidir.

Ishlab chiqarish qobiliyatining asosiy mezonlari quyidagilardir:

- izchillik (murakkablik, yaxlitlik);
- ilmiylik (kontseptual, rivojlanayotgan xarakter);
- tuzilmalilik (ierarxik, mantiqiy, algoritmik, uzluksizlik, o'zgaruvchanlik);
- protsessuallik (nazorat qilish, diagnostika, bashorat qilish, samaradorlik, optimallik, takrorlanuvchanlik) [99].

Tamoyillar ma'lum nazariyaning, umuman fanning asosiy boshlang'ich qoidalari deb ataladi, ular faoliyat uchun asosiy talablardir. Pedagogik tamoyillar asosiy g'oyalar bo'lib, ularga amal qilish mavjud pedagogik maqsadlarga erishish imkonini beradi. Pedagogik texnologiyalar keng tarqalgan didaktik tamoyillardan foydalanadi. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalar o'zigagina xos bo'lgan o'z tamoyillariga egadir [56].

Yaxlitlik bir tomondan ta'lim, tarbiya va rivojlanishning birligi, ikkinchi tomondan izchillikdir. Shu bilan birga, izchillik o'quv fanining o'zini taqdim etish nuqtai nazaridan ham, keng ma'noda ham uning barcha qismlari bilan yaxlitlik nuqtai nazaridan tushuniladi.

Fundamentallik. Ta'limni fundamentallashtirish deganda odatda tabiiy-matematik fanlarni o'qitish tushuniladi. Ammo har bir fan asosiy muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, ular asosida ushbu sohadagi bilimlarni kengaytirish, ularni doimiy ravishda mustaqil ravishda to'ldirish mumkin, ya'ni, har bir fan o'zining asosini tashkil etuvchi bilimlar manbaiga ega.

Madaniy muvofiqlik tamoyili madaniyat taraqqiyotining hozirgi darajasiga qarab ta'lim berish kerakligini bildiradi. Bugungi kunda o'qituvchi zamonaviy ta'lim imkoniyatlarini: kompyuterlar, multimediya vositalari va umuman olganda, madaniyat darajasini hisobga olishi zvrur. Ta'lim zamonaviy dunyoning tez o'zgarib turadigan

omillariga moslashishga majbur bo'ladigan shaxsni tayyorlashi kerak.

Pedagogik jarayon fuqarolik huquqlarini to'laqonli e'tirof etishga asoslangan holda talaba (o'quvchi)larning o'zaro va o'qituvchilar bilan munosabatlarini insonparvarlashtirish tamoyili sifatida rivojlanayotgan shaxsni ijtimoiy himoya qilish tamoyili sifatida qaralishi mumkin.

Ta'limning uzluksizligi tamoyili, ta'lim oluvchilarni hayoti davomida ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini oshirish zarurligiga tayyorlashdan iboratdir. Ma'lumotlar o'zgaradi va doimiy ravishda yangilanadi. Bu tamoyil o'qituvchi o'z texnologiyasida talaba (o'quvchi)larning mustaqil ishiga yetarlicha e'tibor berishini, o'z texnologiyasini o'rganishdan mustaqil ta'lim olishga o'tishning didaktik tamoyilini hisobga olgan holda qurishini ta'minlaydi.

Faoliyatli yondashuv nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikning didaktik tamoyiliga asoslangan o'qitish texnologiyasini nazarda tutadi. Bilim faqat intellektual faoliyat jarayonida egallanadi, shuning uchun talaba (o'quvchi)larning olgan bilimlarini amalda qo'llay olishlari uchun ularning faoliyatini samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Talab qilinmagan, takrorlanmagan bilim albatta unutiladi.

Demokratlashtirish tamoyili pedagogik jarayon ishtirokchilariga o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tartibga solish va o'z taqdirini o'zi belgilash, mustaqil ta'dim olish va o'z-o'zini tarbiyalash uchun muayyan sharoitlarni ta'minlashdan iborat. Ta'lim tamoyillari o'qitishda asosiy yo'l-yo'riq, nazariy g'oyalarni pedagogik amaliyot bilan bog'lovchi ko'prikdir. O'qitish tamoyillari doimo ta'lim jarayonining ob'yektiv qonuniyatlari bilan o'qitishda qo'yilgan maqsadlar o'rtasidagi izchil munosabatni aks ettiradi.

Umuman, pedagogik texnologiyalar tamoyillari pedagogik jarayonni ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishning didaktik qonuniyatlarini amalga oshirish ierarxiasining mantiqiy tuzilmasini to'laqonli tasavvur qilishga shart-sharoit yaratadi.

4. An'anaviy va rivojlantiruvchi ta'limning o'ziga xos jihatlari.

Rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar o'zida psixologik-pedagogik yondashuvlarni ifoda etadi va o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish faoliyatining shakllari, metodlari, vositalari va usullarini aks ettiradi.

Rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalarning muhim tomoni ta'limiy-tarbiyaviy jarayonda talaba (o'quvchi)ning tutgan pozitsiyasi va unga nisbatan kattalar tomonidan bildiriladigan munosabat hisoblanadi. Kattalar va ustozlar (o'quvchi)lar bilan muloqot jarayonida - "bir qatorda emas, ulardan yuqorida emas, balki, ular bilan birga" tamoyili asosida ish yuritishi ta'kidlanadi. Maqsad: talaba (o'quvchi)ning shaxs sifatida shakllanishida hamkorlik qilishdir.

An'anaviy didaktik tizimlarda har qanday pedagogik texnologiyaning asosini tushuntirish; shaxsga yo'naltirilgan ta'limda esa o'quv materialini ongli tushunish tashkil etadi. V.S.Bibler ushbu ikki hodisaning farqini quyidagicha izohlaydi: tushuntirishda - faqat bitta ong, bitta mavzu, monolog; tushunishda - ikkita sub'ekt, ikkita ong, o'zaro tushunish, dialog. Tushuntirish har doim yuqoridan pastga qarab ko'rish, doimo tahsil berishdir [17, 128].

Ongli tushunish esa - bu muloqot, hamkorlik, o'zaro tushunishda tenglikdir. Asosiy g'oya tushuntirishdan tushunishga, monologdan dialogga, ijtimoiy nazoratdan rivojlanishga o'tishdir. Ijodkorlik, izlanish, izlash - bu shaxsga yo'naltirilgan ta'limda talaba (o'quvchi)ning asosiy faoliyat uslubidir. Ammo bolalarning ma'naviy, jismoniy va intellektual qobiliyatlari o'rganish va hayotiy muammolarni, ijodiy vazifalarni mustaqil ravishda hal qilish uchun hali rivojlantirishni talab etadi.

Qo'llab-quvvatlash o'qituvchining talaba (o'quvchi)larga nisbatan gumanistik yo'nalganligi mohiyatini ifodalaydi. Bu o'qituvchi tomonidan yordam va himoya so'ragan talaba (o'quvchi)larning tabiiy ishonchiga javob, talaba (o'quvchi)lar hayoti, sog'lig'i, hissiy farovonligi va rivojlanishi uchun o'zlarining mas'uliyatini anglashdir.

Pedagogik faoliyat tajribasidan misol keltiramiz.

Darsda o'quv material mazmuni: nazariy, tavsiflovchi (analitik).

Axborotni taqdim etish usullari: ogʻzaki, vizual (illustnasiyalar, audio yozuvlar), amaliy ijro.

Talaba (oʻquvchi)lar bilish faoliyatining tabiati: reproduktiv va izlanish.

Oʻquv materialining murakkablik darajasi: yuqori.

Mashgʻulotning maqsadi va vazifalari: bilim, koʻnikma va musiqiy asarlarni emotsional-semantik va qiyosiy tahlil qilish, musiqiy va eshitish qobiliyatlarini, hissiyotlarni rivojlantirish.

Oʻqitish shakllari: yangi bilimlarni oʻzlashtirish, ilgari olingan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, tahlil qilish koʻnikmalarini oʻzlashtirish.

Oʻqitish usullari: suhbat, materialni muammoli bayon qilish, musiqiy asarlarni tahlil qilish, ilustrasiyalar, ogʻzaki nazorat (individual va frontal soʻrov).

Oʻqituvchining ogʻzaki nutqi talaba (oʻquvchi)larga savollar bilan birga keladi, ular ikkinchisini ishdagi faol ishtirok etishga majbur qiladi.

Yangi materialni tushuntirish qisqa maʼruza shaklida talaba (oʻquvchi)lar uchun amaliy topshiriqlar (konsert fragmentlarini tahlil qilish) bilan, talaba (oʻquvchi)larning reproduktiv faoliyatiga yoʻnaltirilgan holda amalga oshiriladi.

Rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar oʻqitishning shakllari, metodlari, usullarining maxsus yigʻindisi sifatida pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik vositasi boʻlib hisoblanadi. Rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar pedagogik amaliyotda qoʻllaniladigan yangi vositalar, shakllar va metodlarni aniqlashtiradi va albatta, ular taʼlim oluvchi shaxsi hamda uning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalarni pedagogik amaliyotda qoʻllash zarurati quyidagilar bilan izohlanadi:

- 1) ijtimoiy buyurtma (ota-onalar, hududiy xususiyatlar, DTS) talablari;
- 2) taʼlimiy yoʻnalishlar, maqsadlar va taʼlimning mazmuni (ustuvor yoʻnalishlar, monitoring natijalari va h.k.).

Rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalarni qoʻllash pedagogik jarayonda: taʼlim sifatining oshishiga, oʻqituvchilar kasbiy malakasining oshishiga, talaba (oʻquvchi)lar yutuqlarini baholashda zamonaviy yondashuvlarni aniqlashtirib olishga,

talaba (o'quvchi)larning salomatligini mustahkamlashga, talaba (o'quvchi)larga o'quv topshiriqlarini qo'yishda individual va differensial yondashuv sharoitini yaratishga, o'qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga imkon yaratadi.

Rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar shakllari: loyiha faoliyati, axborot kommunikatsiya, portfolio, o'yin, tadqiqotchilik faoliyati texnologiyasi, ko'rgazmali modellashtirish texnologiyasi, rivojlantiruvchi o'yinlar texnologiyasi, muzey pedagogikasi texnologiyasi.

Har qanday fanni o'qitishda umumiy texnologiya mavjud bo'lib, u loyihalashning quyidagi tarkibiy tuzilmalarini o'z ichiga oladi: natijaning maqsad bilan moslashuvini ta'minlovchi mexanizmni ishlab chiqish, katta va kichik maqsadlar majmuasini ishlab chiqish va mosligini me'yorlab borish (monitoringini amalga oshirish), ta'lim standartining me'yoriy reytingini ishlab chiqish (ta'lim etaloni), natijalarga asoslangan axborotlarni tahlil qilish va kuzatish, to'la o'zlashtirish modelini yaratish, individual, guruh, o'zaro va jamoa tarzida ishlash texnologiyasini tayyorlash, standart o'quv topshiriqlarining mos o'rnini belgilash.

Ta'lim texnologiyasida o'quv vazifalari, o'quv topshiriqlari muhim o'rin tutadi. Bu orqali talaba (o'quvchi)larning mustaqil ishlashlariga imkoniyat yaratiladi, mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi, o'zaro munosabatlarda shaxsni hurmat qilishga, uning shaxsini qadrlashga o'rgatadi. O'quv vazifalari va o'quv topshiriqlari asosida o'quv jarayonini tashkil qilish, mashg'ulotlarni Modulli ta'lim yoki Dasturlashtirilgan ta'lim shaklida o'tkazilishi bilan ifodalanadi.

Ta'lim jarayonini tashkil qilishda innovatsion yondashuv - bu o'qitish metodikalarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri. U yo'naltirilgan ta'lim uchun sharoit yaratishni va talaba (o'quvchi) shaxsini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Buning asosi – talaba (o'quvchi)larning bilim olish faoliyati va ijodiy mustaqilligini faollashtiradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etishdir.

O'qitish metodikalarini takomillashtirish muntazam davom etadi, biroq, ularning ko'payishi va empirik (amaliyotga asoslangan holda) tanlanishi – o'qitish maqsadini aniqlashtirish va o'qitish jarayonini nazorat qilish tuzilmasi bilan almashib borishi

lozim. Aynan o'qitish jarayonini texnologiyalashtirish ushbu vazifani muvaffaqiyatli yechishga qaratilgandir.

Pedagogikaning izchil rivojlanishi o'qitish va tarbiyalashning yangi vositalari, shakllari va metodlarini izlab topish, yaratishni taqozo etadi. Pedagogikada muntazam tarzda o'qitish va tarbiyalash jarayonini tashkil etish bo'yicha yangi qarashlar va yondashuvlar paydo bo'ladi. Ushbu fan – ijtimoiy sharoitlar va talablar o'zgarishiga mos tarzda yangi-yangi yondashuvlar va shakllarni ishlab chiqmoqda.

Bugun oliy musiqa ta'limida faoliyat ko'rsatuvchi pedagog o'quv jarayonini takomillashtirish, talaba (o'quvchi)larning qiziqishlarini oshirish va o'zlashtirishini yuksaltirishning samarali yo'llarini topish bo'yicha muntazam izlanishi lozim. Shu asosda musiqa o'qitishning alohida metodikalaridan pedagogik texnologiyalarga ko'proq murojaat etish zarurati kuchaymoqda. Quyida keng tarqalgan rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalarning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Tushuntiruvchi-ko'rgazmali metod talaba (o'quvchi)lar ma'ruzada o'quv va metodik adabiyotidan ekran vositasidan "tayyor" materiallarni o'zlashtirishadi. Ma'lum faktlar, baholar, xulosalarni idrok va tahlil qilib qayta yaratuvchi tafakkurni amalga oshirishadi.

O'qitishning reproduktiv metodlarida o'zlashtirilgan o'quv materialini qo'llash namuna va qoidalar asosida amalga oshiriladi. Bunda talaba (o'quvchi)larning faoliyati algoritmik xarakter kasb etadi, ya'ni, ma'lum ko'rsatma, qoida orqali ko'rsatilgan vaziyat namunasi asosida amalga oshiriladi.

Muammoli ta'lim metodida turli manbalar va vositalardan foydalangan holda o'qituvchi avvalo, o'quv materialini bayon etishdan oldin muammoni qo'yadi, bilishga qaratilgan o'quv vazifasini tushuntiradi, so'ngra, isbotlar tuzilmasini ochib, nuqtai nazarlar, turli yondashuvlarni sharhlab, qo'yilgan vazifani yechish vositasini ko'rsatadi. Bu jarayonda ta'lim oluvchilar go'yo ilmiy izlanishning ishtirokchilariga aylanishadi.

Evristik metodda o'qituvchi tomonidan yoki evristik dasturlar va ko'rsatmalar asosida ilgari surilgan yechimlarni faol izlash orqali amalga oshiriladi. Bunda tafakkur jarayoni produktiv xarakter kasb etadi, biroq, o'qituvchi yoki talaba

(o'quvchi)lar tomonidan bosqichma-bosqich dasturlar (shu jumladan, kompyuter dasturlari) va o'quv qo'llanmalari orqali yo'naltiriladi hamda nazorat qilinadi.

Tadqiqotchilik metodida o'quv materiali tahlili, muammoni qo'yish, qisqa og'zaki va yozma ko'rsatmadan so'ng ta'lim oluvchilar mustaqil tarzda manbalarni, o'quv adabiyotlarini o'rganishadi, kuzatish va o'lchovlarni amalga oshirishadi va izlanish xarakteridagi boshqa harakatlarni amalga oshirishadi.

Ko'rgazmali modellashtirish texnologiyasi axborotni samarali eslab qolish va qayta ifodalashga mo'ljallangan metod va usullar tuzilmasidir. Ko'rgazmali modellashtirish texnologiyasi bolaga ko'rish orqali vizual tarzda mavhum tushunchalarni tasavvur qilish (tovush, so'z, gap, matn), ular bilan ishlashga ko'maklashadi. Mnemotexnika axborotni samarali eslab qolish, esda saqlash va ifodalashni ta'minlovchi metod va usullar tuzilmasidir.

Muzey pedagogikasining asosiy maqsadi yosh avlodni muzeylar faoliyatiga yo'naltirish, shaxsni ijodiy rivojlantirishdir. Shu bois, muzey pedagogikasi bugungi kunda innovatsion pedagogik texnologiya sifatida ilgari surilmoqda.

Umuman, yangi pedagogik texnologiyalarni musiqa pedagogikasi amaliyotida izchil joriy etish yuqori ijrochilik mahoratiga ega yosh ijrochilarni tayyorlashda muhim omil bo'ladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat fanining mustaqil fan sifatida paydo bo'lishi va shakllanishi tarixi.
2. Innovatika va pedagogik innovatikaning tasnifi, rivojlanish istiqbollari.
3. Pedagogik texnologiyalarning mohiyati va tamoyillari.
4. An'anaviy va rivojlantiruvchi ta'limning o'ziga xos jihatlari.

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Pedagogik innovatikaning ob'yekti - bu ...

- A) Innovatsion jarayon, uni amalga oshirish shartlari, usullari va natijalari
- B) Pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish
- V) Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish

G) Pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv.

2. Innovatikaning predmeti.

A) Innovatsion jarayonlarning samaradorligi va uni belgilovchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik va ushbu omillarga ta'sir qilish usullari

B) Innovatsion jarayonlar tahlilini amalga oshirish

V) Pedagogik texnologiyalarni o'qitish amaliyotiga joriy etish

G) Pedagogik texnologiyalar diagnostikasini amalga oshirish.

3. Pedagogik texnologiya - bu ...?

A) Ta'lim jarayonining o'zgaruvchan sharoitlarida prognoz qilingan natijaga erishishni instrumental ravishda ta'minlaydigan tartibli harakatlar, operatsiyalar va protseduralar to'plami

B) An'anaviy ta'lim

V) Metodlar majmuasi

G) Ta'lim shakli.

4. Pedagogik texnologiya qanday vazifani bajaradi?

A) Ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshiradi

B) Ko'rgazmalilik

V) Ta'lim shakli

G) Ta'lim natijasi.

5. Musiqiy qobiliyat qaysi jarayonda namoyon bo'ladi?

A) Musiqiy faoliyat jarayonida

V) Tinglaganda

B) Bo'sh paytlarda

G) Dars jarayonida.

Seminar mashg'ulotlari uchun mustaqil ish topshiriqlari

1. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat fanining mustaqil fan sifatida shakllanishi tarixiga oid xorijda amalga oshirilgan tadqiqotlar yuzasidan material tayyorlash.

2. Pedagogik innovatikaning hozirgi holati va istiqbollari borasida materiallar to'plab, ularni grafik organayzerda ifodalang.

3. Pedagogik texnologiyalarning mohiyati va tamoyillari borasida taqdimot tayyorlang.

4. An'anaviy va rivojlantiruvchi ta'limning sizning nazaringizda mavjud farqli jihatlarini jadval ko'rinishida ifodalang.

Oliy musiqa ta'limida o'qituvchining innovatsion faoliyati.

Reja:

1. O'qitish jarayoniga texnologik yondashuv.

2. Oliy musiqa ta'limida o'qitishni tashkil etishning shakl hamda metodlariga qo'yiladigan talablar va o'quv mashg'ulotlarida ijodiy kayfiyatni boshqarish.

3. Musiqa fanlari o'qituvchisi innovatsion pedagogik faoliyatining ilmiy-nazariy asoslari.

4. Musiqa fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalarini qo'llash.

Tayanch tushunchalar: texnologik yondashuv, innovatsion pedagogik faoliyat, axborot texnologiyalari.

Asosiy adabiyotlar

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Barcha magistratura mutaxassisliklari uchun o'quv qo'llanma. -T.: TDPU, 2003. - 177 b.

2. Алиев Ю.Б. Настольная книга школьного учителя-музыканта. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. – 336 с.

3. Гафуров Х.М. Педагогическая технология и педагогическое мастерство. Учебное пособие для слушателей магистратуры. Ташкент, 2008. - 75 с.

4. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 136 b.

5. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 136 b.

6. Петрова М.Ю. Научно-исследовательская деятельность как фактор повышения педагогического мастерства учителя музыки. Дисс-я канд. пед. наук: 13.00.08. - Москва, 2011. - 148 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Арчажникова Л.Г. Профессия – учитель музыки. - М.: Просвещение, 1984. - 111 с.

2. Горбунова И.Б. Информационные технологии в музыке. Т.1: Архитектоника музыкального звука: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. Санкт-Петербург: Издательство РГПУ им. А.И.Герцена, 2009.

3. Гофман И. Фортепианная игра. Ответы на вопросы о фортепианной игре. - М.: Музгиз, 1961. -С.37.

4. Смирнова Ж.В., Красикова О.Г. Современные средства и технологии оценивания результатов обучения // Вестник Мининского университета. 2018. Том 6, №3. –С.12.

5. Стравинский И.Ф. Диалоги. -Л.: Музыка, 1971. -С.137.

1. O'qitish jarayoniga texnologik yondashuv. Keng ma'noda texnologik yondashuvning mohiyati shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning dolzarb maqsadlariga yanada samarali erishish uchun pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishdan iborat. Pedagogik texnologiya - pedagogik jarayonni tashkil etish usuli bo'lib, o'qituvchining harakatlari tizimini qurish, ta'lim maqsadlari va vazifalariga erishish uchun maqbul sharoitlarni yaratadigan usul hamda shakllardan foydalanish bilan bog'liq.

Pedagogik texnologiya 20-asrning 20-yillarida “pedagogik texnika” atamasi orqali paydo bo‘ldi. Keyinchalik pedagogik texnologiya atamasi 20-asrning 50-yillarida ishlab chiqila boshladi. Dastlab, u faqat ta’lim jarayoniga nisbatan qo‘llanilgan. O‘sha paytda texnologiya bu jarayonni texnik jihozlardan foydalanish orqali tashkil etish imkonini beradigan o‘rganishning maxsus usuli sifatida qaraldi.

Jamiyatning ilmiy-texnik taraqqiyoti, jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan axborot muhitining paydo bo‘lishi bilan ta’lim jarayonida texnik vositalardan foydalanish dolzarb masalaga aylandi.

Pedagogik texnologiyaning rivojlanishi o‘quv jarayonini loyihalash texnologiyasini shakllantirish bilan bog‘liq maqsad, vazifalar, ta’lim jarayonini tashkil etish tartibi, shartlari, qo‘llaniladigan o‘qitish shakllari va usullarini belgilaydigan o‘quv dasturini tayyorlashga asoslangan, aniq tartibga solingan jarayon bo‘lgan dasturlashtirilgan ta’lim asosida tashkil etilgan.

Pedagogik texnologiya - ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan omillarni kuzatish orqali ta’lim jarayonini optimallashtirish yo‘llari ishlab chiqiladigan tamoyillarning ta’rifidir. Ana shu omillarni hisobga olgan holda o‘qitish uslub va vositalarini qurish va amaliyotga tatbiq etish, ularning samaradorligini baholash usullari ishlab chiqilmoqda.

Ta’lim texnologiyasi muayyan ta’lim muassasasi doirasida o‘quv jarayonini boshqarish va muvofiqlashtirish uchun ba’zi g‘oyalarni yaratishni o‘z ichiga oladi. Pedagogik texnologiya - bu o‘quv jarayonini amalga oshirishning o‘ziga xos texnikasi. Uning qo‘llanilishi professor-o‘qituvchilar uchun ham, talabalar uchun ham qulay ta’lim muhitini tashkil qilish imkonini beradi.

Pedagogikada texnologik yondashuv tushunchasi. Pedagogik texnologiya ilmiy loyihalashtirishga asoslangan, loyihani tuzish o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun bajarilishi kerak bo‘lgan o‘qituvchi harakatlarining ketma-ketligini o‘z ichiga oladi. Texnologiya ma’lum bir rejalashtirilgan natija uchun mo‘ljallangan, ma’lum maqsadli sozlamalarni hisobga olgan holda qurilgan. Texnologiyaning barcha tarkibiy qismlari har qanday o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan tarzda

qurilgan bo'lishi kerak va shu bilan birga, davlat darajasida tasdiqlangan rejalashtirilgan ta'lim ko'rsatkichlariga erishish kafolatini ta'minlashi kerak.

O'qitish texnologiyalari o'zining uzoq muddat mavjudligi tufayli ta'lim texnologiyalariga qaraganda ancha tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu ta'lim texnologiyalaridagi sub'ektiv omillarning tashqi ta'siriga deyarli tobe emasligi bilan bog'liq. O'quv jarayonining mahsuldorligi asosan o'qituvchining kasbiy imkoniyatlari, uning shaxsiy fazilatlarini, mahorati darajasi, o'quv faoliyatida ko'nikma va amaliy tajribaga ega bo'lishi bilan belgilanadi.

Ta'lim texnologiyalari samaradorligiga quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin: o'qituvchining jamoadagi obro'sining nisbatan darajasi, o'qituvchining kayfiyati muntazam past namoyon etilishi, o'qituvchi va talaba (o'quvchi)larning hissiy farovonligi, sog'lig'ining holatidagi salbiy jihatlar, teskari aloqaning yo'qligi, talaba (o'quvchi)larning harakatlarini baholab, tahlil qila olmaslik. Pedagogik texnologiyani tashkil etish bir necha bosqichda amalga oshiriladi (4-rasmga qaralsin).



Pedagogik texnologiyani (PT) amalga oshirish bosqichlari

- PT g'oyasi ishlab chiqiladi
- PTning maqsadi ishlab chiqiladi



- Ta'lim dasturlari yaratiladi
- O'quv jarayonining mazmuni, metod va vositalarini birlashtirish jarayoni amalga oshiriladi



- O'quv jarayoniga PTni tatbiq etish vositalari aniqlanadi
- Talaba (o'quvchi)larning erishgan yutuqlarini nazorat qilish va baholash amalga oshiriladi

4-pacm. Pedagogik texnologiyani amalga oshirish bosqichlari.

Ta'lim texnologiyalari diagnostik ta'lim maqsadlarini belgilashga asoslanadi, ular asosida o'quv jarayonining mazmuni ishlab chiqiladi, protseduralar majmui

belgilanadi, pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari va usullaridan foydalanish, nazorat qilish va ishni keyinchalik tuzatish amalga oshiriladi. Agar kognitiv va affektiv maqsadlarga erishish imkoniyatlarini solishtiradigan bo'lsak, kognitiv maqsadlarga bir yoki bir necha dars jarayonida erishish mumkin [25, 12].

2. Oliy musiqa ta'limida o'qitishni tashkil etishning shakl hamda metodlariga qo'yiladigan talablar va o'quv mashg'ulotlarida ijodiy kayfiyatni boshqarish.

Ta'lim jarayoni o'qituvchi ijodiy qobiliyatini namoyish etuvchi sahnadir. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan o'qituvchilik mahorati hech qachon bir yo'nalishda qotib qolmasligi kerak. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi mahorati jamiyatda fan olamida ro'y berayotgan yangiliklar, hodisalar bilan doimo chambarchas bog'langan holda shakllanib boradi.

Zamonaviy ta'lim o'qituvchidan quyidagi vazifalarni e'tiborga olishni talab qiladi: o'z mutaxassisligi bo'yicha eng so'nggi bilimlardan xabardor bo'lib borish, ta'limni pedagogik texnologiyalar hamda axborot texnologiyalaridan foydalanib amaldagi o'quv tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etishi, ta'limda talaba (o'quvchi)larning yosh va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olib o'z mahoratini, bilimni va qobiliyatini namoyish etishi, talaba (o'quvchi)lar tomonidan o'rganilayotgan o'quv fanlarining o'zaro aloqadorlini ta'minlash, o'quv tarbiyaviy faoliyatning barcha bosqichlarida ta'limning emotsionalligini ta'minlash, har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi erishishi lozim bo'lgan yutuqlar ko'p jihatdan uning ijodiy kayfiyatini boshqara olishi bilan bog'liq. Ijodiy kayfiyat o'qituvchi kasbida muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlardan biridir. Ijodiy kayfiyat o'qituvchi aql-idrokini namoyon etuvchi pedagogik mahoratning muhim qirrasi hisoblanadi. Shuningdek, ijodiy kayfiyat o'qituvchining ruhiy holatini bir maromda ushlab turuvchi, kasbiy jihatdan ijodkorligini ta'minlovchi, kasbiy xususiyatlarining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatuvchi, talaba (o'quvchi)lar jamoasiga tez kirishib ketishini ta'minlovchi vositadir.

O'qituvchi o'z ijodiy kayfiyatini vujudga keltirish uchun psixologik harakatlarning xilma-xil usullarini bilish kerak. Bu, darsni fikran xayoldan o'tkazish

va loyihalash, har bir o'kuvchi qalbiga oson yo'l topa olish mahorati, muloqot madaniyati. O'qituvchi ijodiy kayfiyatini, avvalo, o'zi yaratadi, bu uning xarakter xususiyatidan, o'z kasbiga nisbatan munosabatidan paydo bo'ladi.

Tajribali ustozlar sinovidan o'tgan, ijodiy kayfiyatni ta'lim jarayonida shakllantirishning ba'zi vositalari: yangi o'rganilayotgan o'quv mavzusidan o'z ijodiy kayfiyati uchun vositalar qidirish, ta'lim oluvchilar bilan bo'layotgan har bir muloqotdan ijodiy kayfiyat uchun motivlar topa olish, his - tuyg'u va kechinmalarini yaxshilikka, ijodiy kayfiyatga yo'naltira olish, talaba (o'quvchi)larning nojo'ya hatgi-harakatlariga doimiy e'tibor bermaslik va qulay vaziyatda rasmiy, ta'sirchan tanbeh berish, dars jarayonida aslo g'azablanmaslik, talaba (o'quvchi)lar kulgisini achchiq so'z bilan to'xtatmaslik, aksincha, to'g'ri qabul qila olish.

Ta'lim oluvchilar bilan bo'lajak pedagogik muomala oldidan o'qituvchining ijodiy kayfiyatini hosil qilishida uning o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materialiga o'z hissiy munosabatini ifodalashning tashqi shakllarini oldindan topishga intilishi muhim rol o'ynaydi: bular tegishli imo-ishoralar, yuz harakatlari, gapirish ohangidir. Muomalada ijodiy kayfiyatni vujudga keltirish va saqlashning muhim vazifasi o'qituvchining o'rganilayotgan yangi o'kuv materialiga nisbatan o'z hissiy munosabatini ifodalashda tashqi shakllarni mustahkamlashdir, u o'qituvchi tomonidan - darsning borishini, tadbirni fikran yodga tushirish, ko'zgu oldida takrorlash, namuna sifatida san'at (musiqa, adabiyot, kino, rangtasvir) asarlaridagi vaziyatlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik ijodkorlikning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin: o'qituvchi sinf jamoasi bilan bo'ladigan dastlabki muomalani oldindan payqashi, uning ijodiy kayfiyatini saqqovchi omil ekanligi; sinf jamoasi bilan dastlabki aloqa bevosita muomala paytida sodir bo'lishi, o'qituvchi ijodiy kayfiyatini rag'batlantiruvchi omil sifatida, talaba (o'quvchi)lar bilan muomaladan qanoat hosil qilishi, keyingi pedagogik faoliyatda o'qituvchining ijodiy kayfiyatini rag'batlantiruvchi omil ekanligi.

Pedagogik ijodkorlik va muomala jarayonida vujudga keladigan har qanday zo'riqishni, shuningdek, boshqa noxush holatlarni yengish uchun o'qituvchi o'z-

o'zini tarbiyalash yuzasidan doimiy faoliyat olib borishi zarur.

O'z-o'zini anglash jarayoni o'qituvchining o'z faoliyati va unda o'ziga nisbatan erkin pozitsiyadada turib, o'ziga tashqaridan qarash, o'zini kuzatish malakasini ko'zda tutadi. Bunda, tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi hodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarning kelib chiqish sababi, faoliyatdan ko'zlanadigan asosiy maqsad aniqlanadi, refleksiv - «Men» shakllanadi. Bu o'qituvchining dolzarb rivojlanish zonasi bilan bog'liqdir [14, 29].

Pedagogik refleksiya xususiyatlariga nazar tashlaganda, o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida o'qituvchining kasbiy faoliyati davomida takomillashtirilgan pedagogik mahorati, refleksiyalangan (ya'ni, avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida tobora optimal bo'lib chiqqan metodlar) harakat usullari va metodlarining o'sishi sodir bo'ladi. O'z-o'zini nazorat qilish o'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z-o'zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

Ta'kidlash joizki, dastlab ongda bilimlarning falsafiy refleksiya oqimidagi tahlili kechadi, keyin u pedagogik nazariya tarkibiga kiradi va uning bir qismiga aylanadi, so'ngra faoliyatni nazariy jihatdan anglashning boshlang'ich nuqtasi bo'lib qoladi. Shu tariqa inson o'z ongini, faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini egallash va ularni maqsadli boshqarish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

B.G.Ananyev, inson xarakterining shakllanish jarayonini taxdil qilib, refleksiv xossalari shaxsning boshqa sifatlariga qaraganda ancha kech shakllanishini aytadi. Uning fikricha: «inson hayoti davomida o'zaro munosabatlarning ko'plab ob'ektlari orqapi o'tadi, natijada uning ongi o'z-o'zini anglash ob'yektiga aylanadi. O'zining xulq-atvor sub'ekti sifatida ko'p marotaba anglash tajribasini to'plash va unga munosabatlar, biz refleksiya deb ataydigan xarakterga aylanishi uchun, xulq-atvorda uni muntazam qo'llash talab qilinadi» [36].

Ushbu fikr kasbiy refleksiyaning rivojlanishi, buning natijasi o'laroq, shaxsning faoliyat xususiyatlari bilan balgilangan refleksiv qirralari shakllanishini ta'minlaydigan malum sharoitlar, vaziyatlarni yaratish zaruriyati haqida xulosa qilish

imkoniyatini beradi. Shunday qilib, opimlarning tadqiqotlariga tayanib, ta'kidlash mumkinki, o'qituvchining kasbiy pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosini faqat uning kasbiy refleksiya-sini takomillashtirish asosida hal qilish mumkin. "Refleksiya - bu insonning uzluksiz hayot jarayonini go'yo bir daqiqaga to'xtatib, uzib ko'yadi va insonni xayolan uning sarhadlaridan olib chiqib ketadi, shu vaziyatda insonning har bir harakati hayot haqida falsafiy fikr mulohazalari muayyan bir xarakter kasb etadi" [89].

Insonning ijodiy muammolarni hal etishda ro'y beradigan fikrlashdagi refleksiya-ni o'rganib, olimlar uni fikrlovchi sub'ektning o'z - o'zini boshqarish usuli (Yu.N.Kulyutkin, S.Yu.Stepanov va boshqalar), tanqidiy fikrlash omili (I.N.Semyonov), nazariy jihatdan fikrlashning yuqori ko'rsatkichi (A.Z.Zak, V.V.Davidov va boshqalar) sifatida ta'rif berib baholaydilar. Refleksiv qobiliyat o'qituvchiga pedagogik bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotda undan foydalanish jarayonida muhim ahamiyatga ega. "Bu holda, - deb yozadi Yu.N.Kulyutkin, - o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratidan foydalanib amaliy qarorlarni ishlab chiqishi va qabul qilishi jarayonlarini refleksiya predmetiga aylantirishi lozim. Buning uchun esa o'qituvchida mazkur jarayonlarni tahlil qilishning tegishli tafakkur usullari shakllangan bo'lishi lozim" [13].

Rivojlangan pedagogik refleksiya-siz, o'qituvchi doimiy tahlil va o'z - o'zini tahlilsiz amaliy va nazariy pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni va ziddiyatlarni chukur anglashi, ularni doimiy tahlil qilishning yo'llarini to'g'ri tanlashi, olingan natijalarni tanqidiy baholashi va ularni korreksiya-lashi mumkin emas. G.M.Kodjaspirova pedagogik refleksiya-ni insonning o'z-o'zini anglashi deb, bunda nafaqat o'qituvchi o'z hatti-harakatlariga to'g'ri baho berishi, balki, u bilan pedagogik muloqot chog'ida o'zaro hamkorlik qiladigan talaba (o'quvchi)lar jamoasi, pedagogik jamoa, ta'lim-tarbiyaga mas'ul shaxslar va ota-onalar uni qanday qabul qilishini tushuna olish qobiliyati hamdir, deb ta'riflaydi [53].

Demak, refleksiya – o'qituvchining o'z-o'zini anglashi, o'zining kamchiligi va zaif tomonlarini bilib o'z-o'zini takomillapggirishga intilishi, o'z

tarbiyalanuvchilarining hamda o'z-o'zini takomillashtirishga zarur shart-sharoitlar yaratishi uchun mavjud ichki imkoniyatlarini kashf etishidir.

Kasbiy pedagogik faoliyatda refleksiv jarayonlarni o'rganib ta'kidlash mumkinki, refleksiya nafaqat pedagogik faoliyatni rejalashtirish bilan bog'liq hodisa, balki, refleksiya mohiyatini kasbiy faoliyatni optimallashtirish maqsadida ham qo'llanadi. Ba'zi olimlarning fikricha, refleksiya - asrlar davomida o'qituvchining kasbiy faoliyatida to'planib kelingan tajribalarida, uning xulq-atvori, muloqot madaniyati, tafakkurida yig'ilgan eski andozalarni, kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatini beradi.

O'qituvchining kasbiy refleksiyasiga pedagogik fikrlashning zarur tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin, u o'qituvchiga o'z kasbiy faoliyatiga tahliliy yondashishni, o'zining pedagogik faoliyatdagi o'rnini aniqlash va rejalashtirilayotgan ishlarda ijobiy natijalarga erishish uchun pedagogik faoliyatni maqsadli o'zgartirishning optimal yo'llari va konstruktiv vositalarini topish imkoniyatini beradi.

Refleksiyaning kasbiy qiyinchiliklarni yengishdagi rolini o'rgangan V.A.Metaevaning ishlari hozirgi kunning eng dolzarb tadqiqotlaridan biri sanaladi. Olima refleksiyaning rivojlanganlik darajasi o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi qiyinchiliklarni samarali hal qilishning asosi bo'lmish pedagogik mahorat natijasida muvaffaqiyatlarga erishishiga bog'liq, degan xulosaga keladi [53].

3. Musiqa fanlari o'qituvchisi innovatsion pedagogik faoliyatining ilmiy-nazariy asoslari.

Zamonaviy ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'qituvchi faoliyatiga yangicha qarash shakllanmoqda. Hozirgi davrning o'ziga xosligi shundaki, har bir o'qituvchi kundalik faoliyatida yangi g'oyalar, texnologiyalar, tushunchalar, o'qitish va tarbiya usullarini joriy etishda innovator, mutaxassis vazifasini bajarishi lozim.

Aytish lozimki, har bir o'qituvchi innovator, ya'ni innovatsion o'quv, ilmiy-pedagogik mahsulot muallifi bo'lmasa-da, har qanday holatda ham har bir o'qituvchi faoliyati doimiy yangilanishga qodir, yangi pedagogik tajribaga, ta'lim oluvchilar va jamiyat ehtiyojlari tizimidagi o'zgarishlarga ochiq bo'lgan innovatsion pedagogik

tizim sifatida qaralishi kerak. Shu munosabat bilan o'qituvchi faoliyatining mohiyati va tuzilishi, u bilan bog'liq bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi musiqa pedagogikasining dolzarb masalalaridan biridir [41].

Musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyati ko'p funktsiyali bo'lib, ta'lim maqsadi, o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, talaba (o'quvchi)larning yosh xususiyatlari va musiqa o'qituvchisining bir vaqtning o'zida bir nechta rollarni bajarishi bilan bog'liq holda o'ziga xos xususiyatlarga ega. U o'qituvchi sifatida talaba (o'quvchi)larga musiqa san'ati asoslarini o'rgatadi, shaxsning ma'naviy qadriyatlarini tarbiyalash va shakllantirishga hissa qo'shadi, musiqachi sifatida musiqa san'atini targ'ib qiladi.

Oliy musiqa ta'limida o'qituvchining ko'p qirrali va serqirra faoliyati musiqa pedagogikasi rivojlanishining barcha bosqichlarida tadqiqotchilarning diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda. Shu bilan birga, musiqa o'qituvchisining innovatsion faoliyati masalasi tadqiqotchilarning e'tiboridan ma'lum darajada chetda qolayotganligi haqiqatdir. Pedagogik izlanuvchanlik ko'nikma va malakalarini oshirishda ilmiy-tadqiqot faoliyatining rolini asoslash musiqa pedagoglari tayyorlashning ilmiy tadqiqot strategiyasiga adekvat bo'lgan yangi shart-sharoitlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Oliy musiqa ta'limida ilmiy-tadqiqot faoliyatining muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat: musiqa mazmunini ochishning yangi zamonaviy dasturlari va usullarini joriy etuvchi tadqiqotchi sifatida faoliyat yuritish, musiqiy va pedagogik faoliyatni yangilashga yuqori darajadagi tayyorlik, musiqiy-pedagogik tajribani nazariy tahlil qilish malakalarini egallash, professional o'zini-o'zi belgilash va professional barqarorlikning yetarli darajasi mavjudligi [60, 5-6].

So'nggi yillarda rivojlanayotgan ta'limdagi gumanistik kontsepsiya g'oyalari asosan musiqa ta'limining estetik tarkibiy qismini dolzarblashtirdi. Musiqa fanlari pedagogi kasbiy faoliyati mazmunining ijtimoiy-madaniy sharoitlar, musiqiy pedagogik nazariya va amaliyotning rivojlanish darajasi (O.A.Apraksina, L.G.Archajnikova, L.V.Shkolyar va boshq.) bilan shartliligini hisobga olgan holda, o'qituvchi-musiqachi kasbiy-pedagogik faoliyati kontekstida zamonaviy musiqa

pedagogikasining o‘ziga xos xususiyatlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin [37, 4].

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish jarayoni musiqa o‘qituvchisi innovatsion faoliyatining mazmunli-tarkibiy xususiyatlarini o‘rganish va uning konseptual modelini yaratishni taqozo etadi.

Musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyati sohasidagi tadqiqotchilarning fikriga asoslanib, aytish mumkinki, musiqaning o‘zi uning san’at sifatidagi o‘ziga xosligini belgilaydi va “musiqa – ta’lim oluvchi – o‘qituvchi” tizimidagi munosabatlarga to‘xtalish joiz. Musiqiy-pedagogik voqelikni aniq va teran tavsiflash musiqa pedagogi kasbining o‘ziga xos xususiyatlarini yorqin tarzda ko‘rsatishga imkon beradi:

1) musiqa “predmeti”ning xususiyatlari (o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini takomillashtirish bo‘yicha faoliyat sub’ekti sifatida talabaning shaxsi);

2) “ob’ekt” xususiyatlari (musiqa va uni o‘qitish usullari);

3) “mahsulot” (musiqiy madaniyat, ma’naviy madaniyat, ijodkorlik, musiqiylik, estetik ong kabi integral sifatlar bilan ajralib turadigan talaba (o‘quvchi)ning shaxsi) xususiyatlari.

Yu.B.Aliyevning fikricha, musiqa o‘qituvchisi ish boshlagan birinchi kundanoq paydo bo‘ladigan muayyan muammolarni hal qilish uchun unda barcha psixologik-pedagogik va musiqiy bilimlar zaxirasi zarur bo‘ladi, chunki u duch keladigan vaziyatlar ko‘p hollarda kutilmagan pedagogik vaziyatlar hisoblanadi [9, 64]. Oliy musiqa ta’limida musiqiy-pedagogik jarayon qanchalik takomillashtirilmasin, oliy o‘quv yurti bitiruvchisini hali tayyor, yetuk musiqachi o‘qituvchi deb bo‘lmaydi. Oliy o‘quv yurti talabani pedagogik faoliyatning barcha holatlari uchun metodik va shaxs sifatida to‘liq tayyorlay olmaydi, asosiy shakllanish, ya’ni, pedagogik mahorat pedagogik faoliyat va tajriba to‘planishi jarayonida shakllanib boradi.

Musiqa pedagogi kasbining murakkabligi “o‘qituvchi” tushunchasi bilan “musiqachi” tushunchasi tarkibiga kiradigan elementlar o‘rtasidagi yaqin munosabat

zarurati bilan belgilanadi va ularning har biri o'z navbatida ko'p qirralidir. Musiqa pedagogi ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. U shunchaki bilimli, o'z fanini yaxshi biladigan kasb egasi emas, balki, yuksak ijtimoiy ma'nodagi professional shaxs bo'lishi kerak.

Shuningdek, musiqachi-o'qituvchining ta'lim muassasasida samarali musiqiy va pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shaxsiy va kasbiy fazilatlarini hisobga olish zarur, bular: musiqiylik musiqa o'qituvchisining barcha faoliyati va boshqa barcha kasbiy fazilatlarini qamrab oluvchi asos sifatida, ta'lim oluvchilarga empatiya ayniqsa, musiqa pedagogi uchun zarurdir, professional tafakkur, metodik madaniyat, o'z-o'zini anglash, ta'lim oluvchilar shaxsidagi o'z-o'zini rivojlantirish tendentsiyalarini oldindan ko'ra olish, uni to'g'ri yo'naltirish va buning uchun sharoit yaratish imkonini beradigan musiqiy-pedagogik sezgirlik, oldindan ko'ra olish hamda o'z musiqiy-pedagogik faoliyatiga ijodiy yondashishni ta'minlaydi.

Nazariy fanlar o'z mazmuniga ko'ra musiqaning "poydevori" bo'lib, ular nota matnini professional darajada malakali o'qish va tushunishga yordam beradi, shuningdek, undagi musiqiy obrazni badiiy qayta tiklashga yordam beradi [87, 10].

L.G.Archajnikovaning so'zlariga ko'ra, musiqa o'qitish jarayoniga ijodiy-tadqiqotchilik yondashuvi pedagogik, xormeysterlik, musiqashunoslik, musiqiy-ijrochilik va tadqiqotchilik funktsiyalarini amalga oshirishni o'zida mujassam etgan o'qituvchi-musiqachi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Shu bilan birga, ilmiy izlanish o'qituvchi ijodkorligining eng yuqori darajasidir [11, 45].

Umumlashtirib aytish mumkinki, musiqiy pedagogik faoliyatning barcha yo'nalishlarida inson resurslaridan (ijrochilar) samarali foydalanish yo'lidagi izlanishlarning hozirgi bosqichida kompetensiyaga asoslangan (ijrochilik mahorati) yondashuvga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, "kompetentlik" tushunchasiga bilim va tushunish (nazariy bilim, o'zlashtirish va tushunish qobiliyati), qanday harakat qilish kerakligi (ma'lum aniq vaziyatlarda bilimlardan amaliy va operativ foydalanish) yoki boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy makonda musiqa madaniyati tasarrufi borasidagi munosabatlarni qanday qurish kerakligi

(konsert, ma'ruza-konsert, ma'rifiy tadbirlar) haqidagi bilimlar majmuasi sifatida ko'rilmoqda.

4. Musiqa fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalarini qo'llash.

Musiqa tovushi inson tomonidan alohida axborot maydoni sifatida qabul qilinadi. Axborot texnologiyalari musiqaning tovush (kengroq aytganda, semantik) makonida qanday ishlashi masalasi hozirda musiqachi faoliyatining yangi ijodiy istiqbollari shakllanishi munosabati bilan musiqachi-o'qituvchilar va boshqa mutaxassisliklar vakillarining e'tibor mavzusiga aylandi. Tovush hosil qilish, tovush yaratish sirlarini bilish, musiqaning tembr va akustik effektlari rang-barangligi chinakam sozanda yoki xonanda uchun yanada yorqin sezilib turadi, ijodiy tasavvurini boyitadi, badiiy yangilikka turtki beradi [30, 207].

XX asr oxiri XXI asr boshlarida elektron musiqa asboblari (eng oddiy sintezatorlardan tortib kuchli musiqiy kompyuterlargacha) – musiqiy kompyuter texnologiyalarining (MKT) jadal rivojlanishi tufayli musiqa ijodi va musiqiy pedagogikada yangi yo'nalish paydo bo'ldi [35]. Zamonaviy elektron musiqa asboblari - musiqa san'atida asrlar davomida to'plangan axborot texnologiyalari o'z ifodasini topdi. Musiqa ijodiyotining zamonaviy texnologik jihatlari, musiqa asboblari borasida (jumladan, musiqiy-kompyuterli) yetarli tasavvurlarsiz musiqa asarlarini ijrochi tomonidan malakali talqin qilish qiyin.

Rossiya davlat pedagogika universitetining "Musika va kompyuter texnologiyalari" o'quv-metodik laboratoriyasi xodimlari tomonidan "Ta'limda musika va kompyuter texnologiyalari" deb nomlangan magistratura dasturi ishlab chiqilgan. A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti (RDPU) O'quv-metodik laboratoriyasi mutaxassislari tomonidan 2006 yilda ishlab chiqilgan va tegishli ravishda litsenziyalangan "Musiqada axborot texnologiyalari" darsligi (4 jildli) ko'plab akademiyalar, universitetlar, konservatoriyalar va pedagogika universitetlarining o'quv jarayoniga kiritilgan [31; 32; 33; 34]. Atoqli sozanda va olimlarning cholg'u asboblarning musika tovushlarida gavdalangan tovush tembri haqidagi mulohazalari va fikrlari darslikning tub g'oyalarini yorqin ifodalagan.

"Musiqiy tovush arxitektonikasi" jamlanmasining birinchi jildida musika tovushlarining fizik xususiyatlarini, ularni yozib olish va takrorlash usullarini o'rganishga oid mavzular; inson tomonidan tovushni eshitish orqali idrok etish tushuntirilgan, musika tovushini kompyuterda yaratishning asosiy tamoyillari ko'rib chiqilgan. Musiqiy ijodiyot bilan shug'ullanuvchi kishilar uchun musika tovushining matematik, fizik va fiziologik tahlilini tushunishning ahamiyati XIX asr o'rtalarida atoqli nemis olimi G.Gelmgols tomonidan ochib berilgan edi. N.A.Rimskiy-Korsakov arxitektonikani "arxitektonik eshitish" deb atagan, ya'ni, yaxshi rivojlangan garmonik eshitishning xususiyati - musika tilining mantig'ini hissiy jihatdan idrok etish qobiliyatidir, deb talqin etgan edi.

Elektron musika ijodi sohasidagi mutaxassislarning keng doirasi uchun mo'ljallangan "Musiqiy sintezatorlar" jamlanmasining ikkinchi jildi musika asboblarning tarixiy rivojlanishida mexanik, akustik va boshqa musiqiy tovush sintezatorlari ishlashining turli jihatlarini tahliliy ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Yangi musika asboblari yoki musiqiy sintezatorlarning paydo bo'lishi ikki asosiy sababga bog'liqligi ma'lum. Ulardan birinchisi, musiqachilarning musiqiy ijod palitrasini boyitish istagidir. Ikkinchi sabab musika asboblarning tarixiy takomillashuvi bilan bog'liq bo'lib, u o'z tuzilishida musiqiy tovush sintezi va uni qayta ishlab chiqish sohasidagi fan va texnikaning zamonaviy yutuqlariga tayanishga intiladi.

"Sintezlash" atamasi ma'lum tarkibiy qismlar alohida elementlarining kombinatsiyasi yordamida biror narsa yaratishni anglatadi. Sintezlangan tovush - musiqachining cholg'u asbobi yordamida yaratadigan, tovushning o'ziga xos xususiyatlarini (balandligi, kuchi, davomiyligi, tembr xususiyatlari va boshq.) hosil qiluvchi tovushdir. Sintezlangan tovush an'anaviy akustik musiqiy tembr yoki shunga o'xshash bo'lishi mumkin yoki u oldin mavjud bo'lmagan, butunlay yangi, original bo'lishi mumkin. Biroq, barcha sintezlangan musiqalar uchun umumiy bo'lgan narsa shundaki, tovush "o'z-o'zicha" musiqa emas, musiqa bu tovushlarning o'zaro ta'siri va ovozni takrorlovchi yoki kompozitsiyani yaratuvchi musiqachi - boshqacha qilib aytganda, bastakorning fikri va uni ijrochi tomonidan keyingi talqini natijasida paydo bo'ladi.

Shu bilan birga anglash lozimki, I.F.Stravinskiy o'zining "Dialoglar" kitobida yozganidek, - har qanday mukammal musiqa asbobi inson tomonidan yaratilgan "obraz", inson tomonidan yaratilgan "musiqiy mashina"dir [73, 137]. Musiqiy ohanglarni yaratishda sodir bo'ladigan o'zaro ta'sir tufayli haqiqiy musiqachi ko'p qirrali tembrlar makonidagi tovushlarning barcha nyanslarini, inson qalbining hissiy "kayfiyatini", uning his-tuyg'ularini, kechinmalari va hissiyotlarini ifoda eta oladi va musiqaning badiiy ta'siri sezilarli darajada namoyon bo'ladi.

"Musiqiy kompyuter" jamlanmasi uchinchi jildining asosini yangi, ko'p funktsiyali politembral musiqa asbobi sifatida musiqiy kompyuter faoliyatining turli jihatlarini ko'rib chiqish tashkil etadi. Ma'lumki, musiqada kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga ishonchsizlik unda ijod qilishning sub'ektiv tabiati, inson ma'naviyati uchun xizmati deyarli yo'qligi haqidagi fikrlar ma'lum davrda qo'llab-quvvatlandi. Albatta, texnologiya hech qachon ijodkorlikka to'siq bo'lmagan, aksincha, ular bir-biri bilan yaqin munosabatlarda rivojlangan.

Yevropa musiqa madaniyati cholg'u asboblari texnikasiga asoslanadi. Hashamatli arxitekturaga ega binolar va kontsert zallarining akustikasi texnik asos bo'lib, ularsiz vokal va xor musiqasini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunda asosiysi cholg'u sozlariga, ovozga, musiqaga sarflangan insoniy iliqlik, muhabbat va mehnatdir. Shu bois, musiqiy kompyuterlarning "insoniylashishi" uni qanday

o'zlashtirishga bog'liq. Kompyuter inson tafakkurining o'ziga xos ko'zgusidir: unda siz o'zingizni tashqi tomondan ko'rishingiz mumkin, ammo buning uchun uni o'zlashtirishingiz kerak. 70 yildan ortiq vaqt mobaynida musiqa ijodkorligi va musiqa tadqiqotlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish jadal rivojlandi.

O'tgan asrning o'rtalarida dunyoning turli burchaklarida elektron tovush sintezi bo'yicha tajribalar amalga oshirildi. Eng muhimi R.Mug, D.Bukl tomonidan AQShda, A.N.Skryabin muzeyi qoshidagi Elektron musiqa studiyasi (keyinchalik - SSSRda Melodiya firmasi)da, Frantsiyada IRCAM (Institut de Recherche et de Coordination Acoustique Musique ("Akustika va musiqa tadqiqotini muvofiqlashtirish instituti")), Germaniyada K.Shtokxauzen tomonidan erishilgan natijalar muhim ahamiyat kasb etdi. 1957 yildan boshlab amerikalik kompozitor va muhandislar M.Mettyuz va Dj.Pirslar musiqiy tovushlarning raqamli sintezi bilan shug'ullandilar. 1976 yilda Frantsiyada IRCAM instituti tashkil etilgan bo'lib, u kompyuter texnologiyalari ishtirokida musiqiy va akustik texnologiyalar, kompozitsiya va ijrochilik sohasida tadqiqot va tajribalar olib boradi [31, 87].

Parijdagi Pompidou nomli Markazda IRCAM xalqaro institutining (*Institut de Recherche et Coordination Acoustique/Musique*, Musiqa akustikasini muvofiqlashtirish va tadqiq etish instituti) ochilishi Yevropa va dunyoning turli mamlakatlaridagi institutlar, kompyuter-akustik studiyalar, markazlar, universitetlar laboratoriyalari mutaxassislarining sa'y-harakatlarini birlashtirishga ulkan hissa qo'shdi (<https://ru.wikipedia.org/wiki/IRCAM>). Musiqachi-tadqiqotchi uchun raqamli tizimlarning asosiy afzalligi yozib olingan va tahlil qilingan "tabiiy" tovushlarni yengil modifikatsiyalashtirish (qayta ishlab chiqarish) va osongina o'zgartirish, shuningdek, mutlaqo yangi, original tovush shakllarini yaratish imkoniyatidir.

Mazkur soha mutaxassisi G.G.Belov talqiniga ko'ra, - "Professional bastakor uchun multimedia kompyuteri ko'p funksiyali "ishlab chiqarish vositasi"ga aylanishi mumkin, agar bastakor yaratmoqchi bo'lgan kompozitsiyasini puxta o'ylasa, uni ichki qulog'i bilan to'liq eshitsa, u pianinosiz ham musiqasining ovozli timsoli ustida (xuddi P.I.Chaykovskiy va D.D.Shostakovich kabi) ishlay oladi. Endi kompyuter

muallifga asarning yozuvini (*Finale, Sibelius, Score* va boshqa dasturlarda) ovozlar partiyalari kesimida, transpozitsiya qilinadigan cholgʻu sozlari uchun avtomatik tahrirlangan, nashriyotlar tomonidan chiqarilgan shaklda amalga oshirishga, uni printeriga "yuborish" va bir nechta nusxalarini chop etishga imkon bermoqda [15, 35].

Inklyuziv musiqa ta'limini amalga oshirishning turli yo'llari va usullarini izlashda musiqiy kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega [23; 24]. Ta'lim natijalarini baholashning zamonaviy vositalari va texnologiyalarini hisobga olgan holda, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda talabalar bilimni baholashga innovatsion yondashuvni amalga oshirish mumkin. Innovatsion ta'lim texnologiyalariga asosan quyidagilar kiradi: interfaol ta'lim texnologiyalari, loyiha asosidagi o'qitish texnologiyasi va kompyuter texnologiyalari [71, 12].

Kompyuter ta'limi texnologiyalari - bu kompyuter orqali axborotni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va ta'lim oluvchilarga uzatish jarayonlaridir. Bugungi kunga kelib, kompyuterlar eng keng tarqalgan texnologik sohalarga aylandi, ular: talabalarga bilimlarni uzatish uchun o'quv materiallarini taqdim etish vositasi, qo'shimcha axborot manbai sifatida ta'lim jarayonlarini axborot bilan ta'minlash vositalari va talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim elementlardan biri.

Hozirgi bosqichda ko'plab ta'lim muassasalari o'quv maqsadlari uchun alohida dasturiy mahsulotlarni va turli o'quv fanlari uchun avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlarini ishlab chiqqan va ishlatmoqda. Ularga ko'rgazmali, nazariy, amaliy ijro, o'quv-uslubiy materiallar majmuasi, o'quv jarayonini boshqaruvchi kompyuter dasturlari kiradi.

Oliy musiqa ta'limi tizimida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish talaba shaxsini rivojlantirish, uni mustaqil samarali kasbiy ijrochilik faoliyatiga tayyorlash, jamiyatning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy tartibni amalga oshirish, musiqa ta'limida o'quv jarayonini faollashtirish kabi musiqiy pedagogik maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Internet xizmatlaridan foydalanish darsda o'qitish usullarini qo'llash, yangi mavzuni o'rganish, internetdan zaruriy ma'lumot qidirish, o'quv materialining reja-

konturini tuzish, nota matnini tahlil qilish va shu asosda diagramma yoki jadval tuzish imkonini beradi. Bilimlarni nazorat qilish turli test xizmatlari, onlayn viktorinalar va so‘rovlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Loyiha ustida ishlash turli internet xizmatlar bilan ishlashni o‘z ichiga oladi, jumladan, ma’lumot qidirish, audio yoki video materiallar, turli darajadagi vokal yoki cholg‘u ijrochilari tomonidan ijro etilgan asarlarni izlash, topish vqa uni ko‘chirib olish, loyiha bilan bog‘liq masalalarni vakolatli shaxslar bilan muhokama qilish [5]. Bunda virtual kutubxonalar, virtual muzeylar, turli ta’lim axborot serverlari, media saytlari, ensiklopediyalar va ma’lumotnomalardan foydalanish mumkin.

Telekonferensiya va chatlarda qatnashish texnologiyalari uzoq vaqtdan beri musiqa o‘qituvchilari tomonidan keng qo‘llaniladi, bu esa talaba (o‘quvchi)larga o‘z tengdoshlari bilan konkurensiya muhitida ishlashiga shart-sharoit yaratadi va ularning kasbiy o‘shida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijrochilik yo‘naliishi doirasida uzluksiz musiqa ta’limining barcha byuosqichlarida tahsil olayotgan yosh ijrochilar, professional ijrochilar, musiqa oliy o‘quv yurtlari va o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, talaba va o‘quvchilari, turli musiqa va san’at maktablaridagi o‘quvchilar va boshqalar bilan videoko‘priklar va suhbatlar, debatlar, vebinarlar, ma’ruza-konsertlar tashkil etish mumkin.

Ta’lim maqsadlarida elektron pochta qutisiga (masalan, gmail serverida) ega bo‘lish tavsiya etiladi. Bu nafaqat xat almashish va o‘qituvchiga uy vazifasini pochta orqali yuborish, balki Google tomonidan taqdim etilgan xizmatlarning barcha imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi [9].

Tabaqalashtirilgan darsda turli topshiriqlar berish, kuchlilar uchun saytdan foydalanib hisobotlar, taqdimotlar yoki sahifalar tuzish, nisbatan kuchsizlar uchun berilgan savollarga javob izlashni amalga oshirish mumkin.

Internet xizmatlarida ko‘p darajali vazifalarni tanlash yoki kompilyatsiya qilish (bir holatdan boshqasiga o‘tkazish). Internet xizmatlaridan foydalanib, talaba (o‘quvchi)larning sinfda ishini tashkil qilish mumkin, bular: frontal (virtual sayohat saytlaridan foydalanish, global rivojlanish tarmoq loyihalari va boshqalar), individual

(o‘quv ma’lumotlarini qidirish, tanlash va tahlil qilish) va guruhlarda (masalan, umumiy o‘quv loyihasini bajarishda) [8].

“Musika ta’limida **Future Skills** dasturiy ta’minoti bo’yicha kompetensiyalar hali to‘la va aniq belgilanmagan bo‘lib, ular oliy ta’lim, madaniyat va san’atni raqamli o‘zgartirish strategiyalarini hisobga olgan holda ularni prognozlashtirishda qo‘llanilishi mumkin. Raqamli texnologiyalar istiqbollidir, ular nafaqat o‘quv jarayonida, balki o‘qituvchining darsdan tashqari, tarbiyaviy ishlarida, shuningdek, maxsus, umumiy va qo‘shimcha musika ta’limida quyidagi shakllarda:

- ▶ sun’iy intellekt;
- ▶ katta hajmdagi ma’lumotlar;
- ▶ internet ma’lumotlari;
- ▶ kengaytirilgan, virtual, aralash va kengaytirilgan reallik;
- ▶ golografik va multimedia texnologiyalari qo‘llanilishi mumkin.

Bugungi kunda yuqorida qayd etilgan raqamli texnologiyalar asosida jahon va mahalliy darajadagi loyihalar faol rivojlanmoqda, ular musika o‘qituvchisi ishida darsda qo‘shimcha material sifatida qo‘llanilishi mumkin. Oliy musika o‘quv yurtlarida joriy etiladigan o‘quv dasturlarining vazifasi ushbu raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga izchil joriy etish, mobil ilovalar va maxsus dasturlar imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirishdan iborat” [18].

Oliy musika ta’limida axborot texnologiyalari imkoniyatlarini yaxlit o‘rganish talabalarida akustik va elektron tovush sohasidagi asosiy tushunchalarni va zamonaviy musika ta’limi tizimida musika tasarrufi borasidagi badiiy-estetik g‘oyalarni shakllantirish imkonini beradi, musiqiy-kompyuter texnologiyalari sohasida kasbiy yo‘nalishlar imkoniyatlarini kengaytiradi, musika kompozitsiyasi borasidagi ishlarni faollashtirish va yanada rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. O‘qitish jarayoniga texnologik yondashuv xususiyatlari.
2. Oliy musika ta’limida o‘qitishni tashkil etishning shakl hamda metodlariga qo‘yiladigan talablar.

3. Musiqa o'quv mashg'ulotlarida ijodiy kayfiyatni boshqarish.
4. Musiqa fanlari o'qituvchisi innovatsion pedagogik faoliyatining ilmiy-nazariy asoslari.
5. Musiqa fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalarini qo'llash.

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Pedagogik texnologiya atamasi qachon paydo bo'ldi va fanga kirib keldi?

- A) 20-asrning 20-yillarida
- B) 19-asr oxirida
- V) 21-asr boshlarida
- G) 20-asrning oxirida.

2. Pedagogik texnologiya qanday vazifani bajaradi?

- A) Ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshiradi
- B) Ko'rgazmalilik
- V) Ta'lim shakli
- G) Ta'lim natijasi.

3. O'qituvchining prognostik funksiyasi qay tarzda namoyon bo'ladi?

- A) O'quvchining istiqboldagi natijalarini ko'ra oladi
- B) O'quvchini qiziqtiradi
- V) O'quvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi
- G) Insonparvar munosabatda bo'ladi.

4. O'qituvchining prognostik funksiyasi qay tarzda namoyon bo'ladi?

- A) O'quvchining istiqboldagi natijalarini ko'ra oladi
- B) O'quvchini qiziqtiradi
- V) O'quvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi
- G) Insonparvar munosabatda bo'ladi.

5. Pedagogikada texnologik yondashuv tushunchasining qaysi qirralariga tayaniladi?

- A) Ilmiyligi, protsessualligi, amaliy samaraliligi
- B) ko'rgazmaliligi, tabaqalashtirilganligi

V) jamoaviyligi, kichik guruhda tashkil etilishi

G) individualligi, differensiallashtirilganligi.

Seminar mashg'ulotlari uchun mustaqil ish topshiriqlari

1. Musiqa ta'limida o'qitishni tashkil etishning shakl hamda metodlariga qo'yiladigan talablar va o'quv mashg'ulotlarida ijodiy kayfiyatni boshqarish omillarini chizma ko'rinishida ifodalang.

2. Musiqa fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati borasida o'z fikrlaringizni matn ko'rinishida yozib keling.

3. Pedagogik texnologiyani amalga oshirish bosqichlari (000-rasm)ni tahliliy tavsiflang.

II-MODUL. INTERFAOL O‘QITISH METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI.

Pedagogik innovatsion texnologiyalar asosida musiqa fanlarini o‘qitish.

Reja:

1. Innovatsion ta’lim sharoitida oliy musiqa ta’limi o‘qituvchisining kompetentlik modelini loyihalash.
2. Pedagogik texnologiya talablari asosida musiqa fanlarini o‘qitish jarayonini loyihalash. Darsning texnologik xaritasi.
3. Ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma hamda malakalarini baholashning zamonaviy metod va vositalari.
4. Virtual kutubxona va uning afzalliklari. O‘qituvchining elektron portfoliosi.
5. Multimedia vositalari asosida o‘quv mashg‘ulotlarini amalga oshirish.

Tayanch tushunchalar: innovatsion ta’lim, kompetentlik modelini loyihalash, texnologik xarita, virtual kutubxona, elektron portfolιο.

Asosiy adabiyotlar

1. Буслова Е.В., Ахлестина А.Ю., Боброва Э.В. Дистанционные образовательные технологии в профессиональной подготовке педагогов-музыкантов в университете. Эл. адрес: <https://cyberleninka.ru/article/n/distantсионные-образовательные-технологии-в-professionalnoy-podgotovke-pedagogov-muzykantov-v-universitete>
2. Смирнова Ж.В., Красикова О.Г. Современные средства и технологии оценивания результатов обучения // Вестник Мининского университета. 2018. Том 6, №3. –С.12.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Barcha magistratura mutaxassisliklari uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: TDPU, 2003. - 177 b.
4. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий. Т.1. -М.: Народное образование, 2006. - 468 с.

5. Virtual kutubxona va uning afzalliklari. O‘qituvchining elektron portfoliosi.
<https://kvakusha.ru/uz/chto-takoe-virtualnaya-biblioteka-sozdanie-virtualnoi.html/>

Электрон манбалар

1. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/282193>
2. <https://kompy.info/darsning-texnologik-xaritasi-v4.html>
3. https://manual.calibre-ebook.com/ru/virtual_libraries.html
4. <https://kiro-karelia.ru/activity/journal/nomera/> elektronnoe-portfolio-pedagoga-kak-forma-predstavleniya-pedagogicheskogo-opyta-2
5. <https://uportfolio.ru/>

1. Innovatsion ta’lim sharoitida oliy musiqa ta’limi o‘qituvchisining kompetentlik modelini loyihalash.

Hozirgi ijtimoiy-madaniy sharoit musiqachi-o‘qituvchining o‘zini-o‘zi anglashiga yordam beradigan shaxsiy va kasbiy fazilatlar zaxirasi asosidagi pedagogik malakasini shakllantirish zarurligini oldindan belgilab bermoqda [26].

Oliy musiqa ta’limi sohasidagi modernizatsiya musiqachi-o‘qituvchi shaxsini yuksak ma’naviy madaniyatga ega, badiiy va ijodiy an’analarni asrab-avaylashga qodir, zamonaviy va mumtoz musiqani rivojlantirishning innovatsion modellari va texnologiyalarini doimiy izlashga tayyor shaxs sifatida shakllantirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Musiqa ta’limida kompetensiyaviy yondashuv hozirgi vaqtda musiqachi-o‘qituvchi shaxsining ijodiy rivojlanishida uning turli qirralarini ochib berishda muhimdir. Shuningdek, oliy musiqa ta’limining kompetensiyaga asoslangan madaniy, shaxsga yo‘naltirilgan, akmeologik yondashuvlar bilan o‘zaro ta’sirini ta’kidlash lozim.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta’limning asosiy maqsad va vazifalarini belgilaydi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning kontseptual g‘oyalari oliy musiqa ta’limini modernizatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lib, pedagogik kompetensiyani shakllantirishni belgilaydigan oliy musiqa o‘quv yurtlari talabalarini ijodiy tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Shu sababli, hozirgi vaqtda musiqa o‘quv yurtlari asosiy o‘quv natijalaridan biri - talabalarning

pedagogik kompetentsiyasini shakllantirish muammosini o'rganish ayniqsa dolzarbdir.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'zini-o'zi boshqarishi va o'zini-o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan bilan talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirishdir [77, 47].

Ta'limdagi integratsiya jarayonlari muammosi asosida ta'kidlash lozimki, pedagogik integratsiya tushunchasi pedagogik tizim tarkibiy qismlarida yaxlitlikning mustahkamlanishiga va sifat jihatidan yangi xususiyatlarning paydo bo'lishiga olib keladigan rivojlanish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Oliy musiqa ta'limi muhiti ko'p jihatdan musiqa va kasbga bo'lgan ijodiy ishtiyoq muhitini yaratishga yordam beradi, buning natijasida kasbiy musiqiy ijro mahoratini yuksaltirish amalga oshiriladi. Musiqa ta'limi tizimini modernizatsiya qilish badiiy-ijodiy tarbiya muammolarining noan'anaviy usullarini, nostandart yechimlarini izlashni nazarda tutadi.

Oliy musiqa ta'limi talabalarini o'qitish jarayonida kasbiy va gumanitar fanlarning integratsiyasi - oliy ma'lumotli, madaniyatli shaxsning dunyoqarashi va qadriyatli munosabatlarini shakllantirish, badiiy-estetik ongni shakllantirish, metodologik madaniyatni shakllantirish, umumiy ilmiy psixologik-pedagogik tayyorgarlikning fundamental asoslarini ochib berish, ixtisoslashtirilgan kasbiy tayyorgarlik jarayonida individual ijodiy rivojlanish kabilarda namoyon bo'ladi.

Umummadaniy kompetensiyalar musiqa san'ati hodisalarini davr kontekstiga mos ravishda madaniyat va san'atning turli sohalarida keng ko'lamli badiiy hodisalar bilan bog'liq holda tahlil qilishdan iborat.

Pedagogik faoliyat sohasidagi kompetensiyalar musiqachi-o'qituvchining ijodiy ijrochilik, musiqiy-pedagogik, ilmiy-metodik faoliyatga qobiliyati va tayyorgarligidan iborat. Mustaqil professional ish tajribasiga ega bo'lgan musiqachi-o'qituvchi bir qator kompetensiyalarni egallashi kerak, masalan: musiqa materialini o'rganish va musiqiy-pedagogik tahlil qilish usullarini qo'llashga tayyorlik, talaba bilan ijodiy hamkorlikni amalga oshirish, badiiy va ijodiy muammolarni hal qilish jarayonida musiqiy-estetik muammolarni ko'ra olish, musiqiy dramaturgiyada

stilistik va janr xususiyatlarini tushunish qobiliyatini rivojlantirish kabilardir.

Umumiy ilmiy, gumanitar, psixologik-pedagogik, musiqiy-nazariy bilimlar va ijro mahoratining fanlararo o'zaro ta'sirini o'rganish musiqa ta'limining turli sohadagi musiqachilar faoliyatida badiiy va ijodiy o'ziga xosligi bilan dialektik bog'liq bo'lgan pedagogik jihatlarini ochib berishga imkon beradi. Oliy musiqa ta'limida talabalarning pedagogik malakasini bosqichma-bosqich shakllantirish belgilangan vazifalarni izchil hal qilishni nazarda tutadi.

Shaxsiy va kasbiy rivojlanish - bu shaxs xususiyatlari va fazilatlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab, ko'p bosqichli, dinamik jarayondir. Bu jarayon uzluksiz rivojlanishning uzoq muddatli xarakteriga ega va shu munosabat bilan rivojlanishning bir darajasidan boshqasiga o'tish sodir bo'ladi, ya'ni, bu jarayonning bosqichlari ajratiladi.

Kasbiy moslashuv. Maqsad: kasbiy faoliyatning umumiy madaniyatini shakllantirish. Kasbiy va gumanitar fanlarni integratsiyalash jarayonida umumiy madaniy kompetensiyalarni, asosiy ko'nikmalarni egallash.

Vazifalar: Pedagogik faoliyat uchun motivatsiyani rivojlantirish. Kasbiy pedagogik muloqotga qiziqishni shakllantirish, pedagogik faoliyatda ijodiy o'zini-o'zi rivojlantirish. Musiqiy pedagogika asoslarini egallash.

Mazmun: Badiiy-estetik, musiqiy va nazariy bilimlar. Professional ko'nikmalar va qobiliyatlari. Ta'lim mazmunini ko'p bosqichli o'zlashtirish.

Daraja: reproduktiv. O'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni namuna bo'yicha qo'llash.

Pedagogik yo'nalganlik. Maqsad: Umummadaniy va fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirish va qo'llash. Pedagogik malaka darajasining ko'rsatkichi sifatida kasbiy madaniyatni shakllantirish.

Vazifalar: kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni shakllantirish, kasbiy fikrlashni rivojlantirish. Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar va musiqa ta'limining ixtisoslashtirilgan usullarini o'zlashtirish.

Mazmun: Falsafiy-uslubiy, musiqiy-nazariy va kasbiy-pedagogik bilimlar. Kasbiy va gumanitar fanlar integratsiyalashuvi asosida kasbiy pedagogik

kompetensiyalarni egallash. Daraja: muammoli-qidiruv, evristik. Muammoni shakllantirish va musiqiy-pedagogik muammoni hal qilish yo'lini topish qobiliyatini shakllantirish.

Ijodiy pedagogik o'zini-o'zi belgilash. Maqsad: Umumiy madaniy va pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish va qo'llash. Pedagogik kompetentsiyani shakllantirish kompetentsiyalarga ega bo'lishni aktuallashtirish sifatida. Vazifalar: Musiqachining pedagogik kompetensiyasi tarkibini tashkil etuvchi har xil turdagi kompetentsiyalarni qo'llashga tayyorlikni shakllantirish. Musiqa pedagogikasi sohasida tajriba orttirish.

Mazmun: Ta'lim jarayoni mazmunini fanlararo integratsiyaga asoslangan holda loyihalash. Daraja: samarali, ijodiy. Yangi pedagogik vaziyatlarda kompetensiyalarni yangilash va paydo bo'lgan muammolarga nostandart yechimlarni topish qobiliyati.

Bu jarayonda insonparvarlik muhim rol o'ynaydi: madaniyat va san'at tarixi, milliy tarix, shuningdek, mahalliy va xorijiy musiqa tarixi borasidagi bilimlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Maxsus fanlar kurslarida talabalarning ijodiy faoliyatiga katta ahamiyat berilishi lozim, bunda darslarning individual shakli tufayli nafaqat umumiy madaniy kompetentsiyalar, balki kasbiy kompetensiyalar, shu jumladan, ijrochilik va pedagogik kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Musiqa ta'limi sohasida eng istiqbolli yo'nalishlardan biri interaktiv texnologiyalarni rivojlantirish bo'lib hisoblanadi. Dialogik texnologiyalar madaniyatlar dialogi nuqtai nazaridan madaniy xilma-xillikni o'rganish asosida shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Kasbiy musiqa ta'limi doirasida bu g'oyalar turli maxsus kurslar, jumladan, jahon va mahalliy mumtoz musiqa asarlarini o'rganish, shuningdek, zamonaviy musiqa repertuarining milliy va mintaqaviy tarkibiy qismi bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Pedagogik faoliyat tajribasini o'zlashtirish orqali musiqachi-o'qituvchining kasbiy tafakkurini yanada rivojlantirish amalga oshiriladi. Musiqa psixologiyasi, pedagogika va o'qitish metodikasi kurslarida pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Bunda pedagogik amaliyot muhim rol

o'ynaydi, bu orqali oliy musiqa ta'limida talabalar pedagogik faoliyatda zarur tajribaga ega bo'ladilar. Bu ko'p jihatdan ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatini tanlashda pedagogik yo'nalishni belgilaydi hamda har bir musiqachi uchun turli sohalarda ham ijrochilik, ham pedagogika bilan bog'liq holatda namoyon etiladi.

Musiqachining umumiy madaniy-pedagogik kompetentsiyalari tizimlashtiriladi. Fanlararo integratsiya jarayonida modulli kompetensiyaga asoslangan ta'lim texnologiyasidan foydalanish samarali bo'lishi mumkin. R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib boruvchi mazmuni sifatida qaraydi [8, 27].

Ushbu texnologiya musiqa san'ati hodisalarini ko'p qirrali o'rganishga ongli qiziqish va bu yo'nalishdagi bilimlarni chuqur singdirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi. Kompetensiyaga asoslangan modulli texnologiya fanlararo aloqalarni o'rnatishga imkon beradi, chunki kompetentsiyalarni shakllantirish vazifasi turli gumanitar va musiqiy-kasbiy bilimlarning integratsiyalashgan tuzilmalari orqali hal qilinadi.

O'qitishning modulli-kompetentli texnologiyasidan foydalanish ta'limda o'quv-uslubiy ta'minotni yangilash va yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Bular musiqachining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishning muayyan muammolari bo'yicha modullar, o'quv qo'llanmalar va uslubiy ishlanmalarga asoslangan yangi o'quv dasturlari bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda turli mutaxassisliklarda tahsil oluvchi talabalar uchun, jumladan, ta'limda ijro repertuarini tuzish va amalga oshirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Bu dasturlar milliy musiqiy ijrochilik maktablarining o'ziga xos xususiyatlarini bilish, jahon va milliy musiqa madaniyati rivojlanishining tendensiyalari, o'zaro ta'siri va o'zaro bog'liqligini anglash kabi kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Turli etnik va madaniy an'analar integratsiyasi sharoitida ushbu kompetensiyalarga ega bo'lish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. O'quv dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish musiqachining kasbiy pedagogik kompetentsiyalarini shakllantirish maqsadiga erishishni ta'minlaydigan modullarni tuzishga asoslanadi.

Kompetentsiyaga yo‘naltirilgan musiqa ta’limini amalga oshirish oliy ta’lim muassasalarida fanlararo integratsiyaga asoslangan zamonaviy ilmiy-uslubiy ta’minotni ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar, o‘qitish shakllari va usullaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Gumanitar, kasbiy pedagogik va maxsus fanlarning integratsiyasi ijodiy va badiiy tafakkurning oldingi bilim va tajribani plastik, simulyatsiya, ma’lumotni siqish va yangi sharoitlarga moslashuvchan shaklga o‘tkazish orqali umumlashtirish qobiliyati tufayli amalga oshiriladi, bu esa yagona, kasbiy pedagogik kompetensiyalarning ajralmas majmuasini talab etadi.

Musiqa pedagogikasida turli profildagi musiqachilarni tayyorlashni qamrab oluvchi universal fanlar mavjud. Bular, birinchidan, insonparvarlik turkumi fanlari, ikkinchidan, musiqachilarni tayyorlash uchun maxsus kurslardir. Ushbu fanlar doirasida oliy musiqa ta’limida talabalarning pedagogik kompetensiyasini shakllantirish samaradorligiga ko‘ra ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlarning ta’siri baholanadi.

Musiqa oliy o‘quv yurtida fanlararo integratsiya asosida shakllangan musiqachi-pedagogning yuksak pedagogik kompetensiyasi uzluksiz o‘z-o‘zini takomillashtirishga, ijodiy musiqiy-pedagogik faoliyatning barcha sohalarida yuksak pedagogik cho‘qqilarni zabt etishga intilishiga xizmat qiladi.

2. Pedagogik texnologiya talablari asosida musiqa fanlarini o‘qitish jarayonini loyihalash. Darsning texnologik xaritasi.

Loyihalash (lot. *projectus* - oldinga tashlangan) - loyiha yaratish, kelajakda taxmin qilinayotgan hodisaning tasvirini yaratish faoliyatidir [100]. Ma’lumki, inson mehnati mahsulotlarining aksariyati ularning dastlabki loyihasi orqali ishlab chiqariladi. Shu nuqtai nazardan, loyiha - bu tasavvur etilganni yaratish jarayoni, ya’ni, taxmin qilingan yoki mumkin bo‘lgan ob’ektning prototipi, haqiqiy mahsulotda o‘ylab topilganidan oldingi holatdir.

O‘qituvchining kasbiy faoliyatini tashkil etishda ta’lim jarayonini loyihalash alohida ahamiyatga ega. Har bir o‘quv kursini o‘rganish alohida mavzu va bo‘limlarni loyihalash asosida amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonini loyihalash –

pedagogik faoliyatning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, u ta'lim jarayonining texnologik tuzilmasi hamda o'qitish natijasini kafolatlovchi metod va vositalar yig'indisiga egaligi bilan tavsiflanadi

Pedagogik amaliyot mohiyatini tahlil etish natijasida ta'lim jarayonini loyihalashning bir necha qonuniyatlari ajratilgan. Ular: ta'lim jarayonining loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik boshqaruv, vosita, axborot, ijtimoiy-psixologik muhit)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi asosida ta'minlanadi, loyihalash sifati teskari aloqa (o'qituvchi - talaba (o'quvchi) o'rtasidagi) ko'lam, loyihalash mazmuni, shuningdek, barcha yuqorida keltirilgan omillar samaradorligiga bog'liq.

Pedagogik loyihalash – ma'lum tizim yaratish, ya'ni, yaratilgan loyihani ta'lim munosabatlarining haqiqiy ishtirokchilari tomonidan muayyan sharoitlarda foydalanish uchun batafsil tavsiflashdir. Pedagogik tizimlarni loyihalash ko'p bosqichli murakkab jarayon bo'lib, uning bosqichlari bir-biriga bog'liq va yakuniy natijaning rivojini yaqinlashtiradi.

Loyihalashda uch bosqich, ya'ni: modellashtirish, loyihalash va qurish mavjuddir. Pedagogik modellashtirish bosqichi pedagogik tizimlar va ularga erishish yo'llarini yaratishning umumiy g'oyasini ishlab chiqish bilan bog'liq. Mashg'ulotning ilmiy-uslubiy mazmuni loyihani yaratish bilan bog'liq bo'lib, allaqachon yaratilgan modelni yanada rivojlantirish va uni amaliy maqsadlarda ishlatishdir.

O'quv mashg'ulotini loyihalash bosqichida loyihani qo'shimcha detallashtirish va konkretlashtirish amalga oshiriladi. Loyihalash shakllaridan biri bu tushunchalar jamlanmasi bo'lib, u orqali pedagogik tizimlarni qurishning asosiy nuqtai nazari va boshlang'ich tamoyillari bayon qilinadi.

Barcha pedagogik tizimlar talaba (o'quvchi)larning qiziqishlari va qobiliyatlariga bo'ysunishi kerak. U yoki bu loyihani ishlab chiqayotgan o'qituvchi o'zini talaba (o'quvchi)ning o'rniga qo'yib, uning hatti-harakati, his-tuyg'ulari va o'quv materialini o'zlashtirishning qulayligini tasavvur qilishi kerak.

Loyihalashtirilgan tizimlarning o'z-o'zini rivojlantirish printsiplari ular dinamik va moslashuvchan bo'lishini, qayta qurish, soddalashtirish yoki murakkablashtirishga qodir bo'lishini nazarda tutadi. Didaktik ijodiyot nafaqat o'qituvchi, balki talaba (o'quvchi) uchun ham keng tarqalgan va qulay faoliyatdir.

Didaktik loyihalashtirishdan tashqari pedagogik texnologiya va dizayn sohasiga oid texnologik ijodkorlik mavjud. Pedagogik ijodning bu turi ancha murakkab bo'lib, o'qituvchi va talaba (o'quvchi)lar faoliyatini to'liq qamrab oladi – bu integrativ darsni yaratish, o'qitish shakllari, axborot texnologiyalari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Menejment sohasida faoliyatni rejalashtirish, nazorat qilish va moslashtirishning yangi usullarini yaratishda talaba (o'quvchi)lar va o'qituvchilar o'rtasida kommunikatsiya va o'zaro ta'sir, tashkiliy ijodkorlik zarur. U pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish va maqsadga olib keladigan barcha omillardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Shunday qilib, o'quv jarayonini amalga oshirish usullari va vositalari haqidagi barcha bilimlar "ta'lim jarayoni texnologiyasi" deb nomlanishi mumkin. Demak, pedagogik texnologiyani ishlab chiqish pedagogik loyihalash jarayonidir.

Muvaffaqiyatli pedagogik jarayonning muhim sharti uning loyihasi bo'lib, tahlil, diagnostika, prognozlash va faoliyat loyihasini ishlab chiqishdir. Pedagogik jarayonni loyihalash - bu o'quv materialini tarkibini ta'lim oluvchilarga yetkazish, moddiy resurslar va pedagogik harakat va amallarni loyihalash texnologiyasining birligidir. Ushbu texnologiyalarning har birida o'qituvchi analitik faoliyat, prognostik va proektiv-ijodiy aqliy faoliyatni izchil amalga oshiradi. Har qanday pedagogik vazifani hal qilish ushbu triada (uchlik)siz (tahlil, prognoz va loyiha) amalga oshirilmaydi.

Ko'pincha stajyor o'qituvchilar pedagogik faoliyatning paradokslaridan biri

bo'lgan pedagogik vaziyatni tushunishga yetarli e'tibor bermaydilar. Ko'pchilik o'qituvchilar esa dolzarb pedagogik vazifalarni oraliq vazifalar bilan almashtirib, o'z diqqatini ularga qaratadilar - dars tizimi, tadbir o'tkazish, talaba (o'quvchi)ga pedagogik ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash borasidagi ayrim holatlar pedagogik faoliyatning ikkinchi paradoksidir.

Dastlabki ma'lumotlarni tahlil qilish pedagoglar, talaba (o'quvchi)lar va ular o'rtasida shakllangan munosabatlarning xarakteriga, shuningdek, ta'lim mazmuniga, pedagogik jarayonni amalga oshirish vositalari va shartlariga qaratilishi lozim. Tahlil ko'plab ilmiy faktlarni, shuningdek, pedagogik jarayon, o'quv jamoasi va har bir talaba (o'quvchi)ning holatini tizimli o'rganishdan kelib chiqadigan faktlarni hisobga olish bilan chambarchas bog'liq, bu pedagogik tashxis uchun asosdir. Amaliy pedagogika uchun diagnostika pedagogik jarayonning butun yoki alohida tarkibiy qismlarini amalga oshirishda umumiy holatni baholash bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim jarayonini loyihalashning navbatdagi bosqichi maqsadni belgilashga to'g'ri keladigan bashoratdir. Prognozlash oqilona diagnostika maqsadlarini qo'yish imkonini beradi. Diagnostika - ta'limning maqsad va vazifalarini ishlab chiqish uchun umumiy talab bo'lib, diagnostika maqsadlari va ularni amalga oshirish, o'lchash va baholash usullarining aniq tavsifini anglatadi. Prognozlash talaba (o'quvchi), bilim, munosabatlar va boshqalarni o'z ichiga olgan ob'ekt haqida zarur ma'lumotlarni olish jarayoni sifatida amal qiladi.

O'qitish texnologiyalari tizimli bo'lib, uning tarkibiy qismlarini musiqa pedagogikasining maqsadi va mazmuni, pedagogik o'zaro ta'sir vositalari, ta'lim jarayonini tashkil etish, o'qituvchi va faoliyat natijasi tashkil etadi. O'qitish texnologiyasi - bu musiqa o'quv jarayonini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishdan iboratdir. Ushbu jarayonning barcha tarkibiy qismlari bir-biriga bog'langan va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi, tizim muvaffaqiyatli ishlashi uchun uning barcha tarkibiy qismlarini diqqat bilan ko'rib chiqish muhimdir.

Bugungi kunda ta'lim yo'nalishlarini texnik vositalar yordamida aloqa va masofaviy ta'lim shakllari ajratilgan o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro ta'sirning bilvositaligi, ta'lim va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, shu asosda o'rganishni

ajratish mumkin, kontekstli ta'lim va kontekstdan tashqari turdagi an'anaviy ta'limni ajratish mumkin bo'lgan kelajakdagi faoliyat bilan bog'liqlik kabi umumiy qoidalar bilan tavsiflash mumkin.

Ana shu asoslardan kelib chiqib, rivojlantiruvchi ta'lim ong tamoyiliga asoslangan aloqa, ma'lumot beruvchi va istiqbolda rivojlanishga yo'l ochuvchi imkoniyat deb ta'riflanadi. Rivojlantiruvchi ta'limda musiqiy bilimlarni egallash uchun barcha shart-sharoit mavjud.

Musiqiy bilimlarni egallash samaradorligi ko'plab omillar va birinchi navbatda talaba (o'quvchi)larning individual-psixologik xususiyatlari bilan ta'minlanadi. Bugungi kunda, muammoli va dasturlashtirilgan ta'lim zamonaviy ta'limning markaziy elementlaridan biri bo'lib, ko'p qirrali jarayon sifatida musiqiy pedagogik yo'nalishlarining turli elementlarini o'z ichiga oladi. Ushbu ko'p qirralilik muayyan ta'lim yo'nalishining afzalliklaridan foydalanish imkonini beradi.

Pedagogikada yaqin vaqtgacha "pedagogik texnologiya" atamasi turli texnik vositalardan foydalangan holda o'qitishni bildirgan. Pedagogika fani taraqqiyotining hozirgi bosqichida axborot olish va uzatishning samarali usullarini aniqlash zaruriyati paydo bo'ldi, bu esa pedagogikada bir qator o'qitish texnologiyalarini ta'lim va tarbiyaning samarali usullari sifatida aniqlashga olib keldi.

O'qitish texnologiyasi pedagogikaning asosiy kategoriyasi sifatida muhimdir. Pedagogikada o'qitish texnologiyalari ta'lim jarayonida doimiy ravishda qo'llaniladigan o'qitish shakllari va usullari, tarbiya texnikasi, bilimlarni uzatish va nazorat qilish vositalari majmuidir. Musiqa pedagogikasida o'qitish texnologiyasi - bu tizimli foydalanilganda o'qituvchining talaba (o'quvchi)lar bilan samarali pedagogik munosabatlarni tashkil etishga ko'maklashadigan usullar va innovatsion texnik vositalar majmuidir. Pedagogikada pedagogik texnologiyalarning turli tasniflari mavjud va ularning soni 500 dan ortiq. Quyida biz mashhur pedagoglardan biri, akademik German Konstatinovich Selevko tomonidan tuzilgan pedagogik texnologiyalar tasnifini keltiramiz.

- ▶ xususiy metodik texnologiyalar;
- ▶ mahalliy texnologiyalar;

- ▶ umumiy pedagogik texnologiyalar.

Falsafiy nuqtai nazardan texnologiyaning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

- ▶ idealistik va materialistik texnologiyalar;
- ▶ dialektik va metafizik texnologiyalar;
- ▶ insonparvarlik va g'ayriinsoniy texnologiyalar;
- ▶ pragmatik va ekzistensial texnologiyalar;
- ▶ antropo- va teosofik texnologiyalar;
- ▶ ilmiy va diniy texnologiyalar.

Psixologik nuqtai nazardan quyidagi texnologiyalar guruhlarini ajralib turadi:

- ▶ sotsiogen texnologiyalar;
- ▶ idealistik texnologiyalar;
- ▶ psixogen texnologiyalar;
- ▶ biogen texnologiyalar.

Muayyan texnologiyalar shaxsiy tuzilmalarga qanday yo'naltirilganligiga qarab, quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- ▶ evristik texnologiyalar;
- ▶ emotsional-badiiy va emotsional-axloqiy texnologiyalar;
- ▶ o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyalari;
- ▶ axborot texnologiyalari.

Pedagogik texnologiyaning tuzilishi va uning mazmuni qanday tashkil etilishiga qarab quyidagilar ajratiladi:

- ▶ kirib boruvchi va murakkab texnologiyalar;
- ▶ ta'lim va tarbiyaga qaratilgan texnologiyalar;
- ▶ xususiy sub'ektiv va monotexnologiyalar;
- ▶ gumanitar va texnokratik texnologiyalar;
- ▶ sanoat yo'nalishidagi texnologiyalar;
- ▶ gumanitar fanlar yo'nalishidagi texnologiyalar [69, 47].

Musiqiy pedagogikaning hozirgi rivojlanish bosqichida musiqiy axborotni qabul qilish va uzatishning samarali usullarini aniqlash zaruriyati yuzaga chiqdi, bu esa musiqa pedagogikasida o'qitish texnologiyalarini musiqiy ta'lim va tarbiyaning

samarali usullari sifatida ajratilishiga olib keldi. Biz an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan yangi, tezkor ma'lumotlar manbalariga o'tdik. Kompyuterlar, mikroelektron qurilmalar va Internet bizning hayotimizga mustahkam kirib keldi. Bularning barchasi hayotimizda chuqur iz qoldiradi, musiqa pedagogikasining rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi.

Musiqa pedagogikasida o'qitish texnologiyalari - bu musiqa ta'limi jarayonida qo'llaniladigan o'qitishning shakllari va usullari, musiqiy bilimlarni uzatish va nazorat qilish vositalaridir.

Xususi texnologiyalarni ajratish musiqa o'qitish samaradorligiga, talaba (o'quvchi)larning ijrochilik ko'nikma va malakalari rivojlanishiga va ulardagi insoniy fazilatlarini tarbiyalashga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Musiqa pedagogikasida o'qitish texnologiyasi - bu metodlar va innovatsion texnik vositalar borasidagi imkoniyatlar majmuasi bo'lib, ular tizimli qo'llanilganda o'qituvchining talaba (o'quvchi)lar bilan musiqiy bilimlarni o'zlashtirish, ijro mahoratini egallashida samarali muloqot qilishiga yordam beradi.

Turli innovatsion usullardan foydalanadigan musiqa pedagogi asosan, musiqa ijrochiligi borasida texnologiya yaratuvchisidir, chunki u kognitiv faoliyatga va ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratadi. Ta'lim jarayonida talaba (o'quvchi) va o'qituvchi o'rtasida ijobiy pedagogik munosabatlarni o'rnatish, shuningdek, bilim olish jarayonida talaba (o'quvchi)ning o'rnini muhim ahamiyatga ega. Musiqa pedagogikasidagi ushbu omilni hisobga olgan holda, texnologiyalar o'qituvchi va talaba (o'quvchi) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar, uning markazida talaba (o'quvchi)ning shaxsiyati turadi, avtoritar texnologiyalar, bunda dominant rol o'qituvchiga yuklanadi, ezoterik bilimlarga asoslangan texnologiyalar, bepul tarbiya texnologiyalari talaba (o'quvchi)larga to'liq mustaqillik berishni nazarda tutadigan texnologiyalar, hamkorlik texnologiyalari o'qituvchi va talaba (o'quvchi) o'rtasida tenglik va sheriklik munosabatlarini nazarda tutuvchi guruhlariga bo'linadi.

Ta'lim texnologiyalarining darajalari va tuzilishi. Talaba (o'quvchi)larning musiqiy talab va ehtiyojlari, tinglovchilik didi hamda madaniyati o'sib borishi musiqa

bozorida shakllanayotgan turli tendensiyalarni tahlil etish, ularning istiqbolli yo‘nalishlari borasida dadil prognozlar berish, shuningdek, ularning musiqiy qobiliyatlari, tinglovchilik didini diagnostika qilish orqali ta’lim samaradorligini oshirish borasida yangi metodikalarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Bolalar musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari, litseylarda darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda o‘qituvchi o‘z imkoniyatidan kelib chiqib quyidagi to‘garaklarni tashkil etishi mumkin. Musiqiy tarbiya shakllariga bolalar musiqa va san’at maktablari, bolalar ijodiyot markazlari, o‘quvchilar saroylari, bolalar teatrlari va boshqa ta’limiy-tarbiyaviy muassasalar kiradi. Mazkur muassasalarda qatnashadigan o‘quvchilar muntazam tarzda o‘qituvchi nazoratida bo‘lib, maktab badiiy-musiqiy hayotida ularning faol ishtirok etishlarini ta’minlash lozim.

Muxtasar aytganda, o‘qituvchining pedagogik jarayonni loyihalash kompetensiyalari mavjudligi musiqa ta’limi jarayoni rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Darsning texnologik xaritasi. O‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o‘qituvchiga bo‘lajak darsning texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga ega, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talaba-o‘quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Darsning texnologik xaritasini, zavodga tuproq shaklidagi chinni xom ashyoni topib kelishdan tayyor piyolagacha bo‘ladigan barcha texnologik jarayonlar ssenariysiga qiyoslash mumkin.

Texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o‘qituvchi pedagogik, psixologik, xususiy metodika va axborot texnologiyalaridan xabardor bo‘lishi, shuningdek, juda ko‘p metodlar, usullarni bilishi kerak bo‘ladi. Har bir darsning rang–barang, qiziqarli bo‘lishi avvaldan puxta o‘ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog‘liq.

Darsning texnologik xaritasini qanday shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik xaritaning tuzilishi o'qituvchini darsning kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topgan bo'ladi.

Texnologik xarita talaba (o'quvchi)ning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi va uni shaxs sifatida ta'limning markaziga olib chiqadi. Bu esa o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogik va o'zi tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llanilishini taqozo etadi. Ular juda xilma-xil bo'lib, biz ulardan ba'zilar xaqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi haqida uslubiy ko'rsatma beramiz. Ushbu metodik ko'rsatmada keltirilgan zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talaba-o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Ushbu metodik ko'rsatmadan foydalanuvchilar o'quv jarayonini tashkil etish uchun havola etilgan texnologiya treninglarni xuddi shu tartibda o'tkazishlari shart emas, xar qaysi o'qituvchi bu terininglarning umumiy shaklini olgan holda o'zlarining dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan tereninglarning to'liq yoki ularning ba'zi bir bosqichlari, elementlarini ishlatishlari mumkin.

Darsning texnologik xaritasi kamida 5 ta bosqichdan iborat bo‘lishi lozim, lekin darsning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda texnologik xaritaning bosqichlari erkin shaklda 7, 8, 10 ta bosqichdan ham tashkil torishi mumkin (1-jadvalga qaralsin).

1-jadval

Darsning texnologik xaritasi

№	Dars bosqichlari	Ajratilgan vaqt
1.	Darsga tayyorgarlik	5
2.	O‘tgan mavzuni so‘rash	10
3.	Yangi mavzuni tushuntirish	15
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash	10
5.	Uyga vazifa	5

Hozirgi kunda o‘qituvchi darsni samarali tashkil eta olishi uchun o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirib olishi zarur. O‘qituvchi bu jarayonda o‘quv fanining o‘ziga xos tomonlari, o‘qitishning texnik va didaktik vositalari, eng asosiysi, talaba (o‘quvchi)ning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina ko‘zlangan natijaga erishish mumkin (<https://kompy.info/tartib-raqam-sinf.html?page=10>).

O‘qituvchining dars jarayonini oldindan loyihalashtirib olishida u tomonidan bo‘lajak darsning texnologik xaritasini tuzib olish katta ahamiyatga ega. Chunki darsning texnologik xaritasi ukitilayotgan fan va uning xususiyati, utiladigan mavzu mazmuni, talaba (o‘quvchi)larning imkoniyati hamda ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunday texnologik xaritani tuzib olish uchun o‘qituvchi pedagogika, psixologiya, har bir fanning xususiy metodikasi, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bulishi, ko‘plab metodlar va usullarni bilishi kerak bo‘ladi. Har bir darsning rang-barang, kizikarli bulishi avvaldan puxta uylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog‘liq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko‘rinish yoki shaklda tuzish o‘qituvchining shaxsiy tajribasi, qo‘ygan maqsadi, vazifasi, ko‘zlayotgan natijasi hamda ixtiyoriga bog‘liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo‘lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo‘lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kutilayotgan natija, dars jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos texnologiyasi to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘lishi lozim. Texnologik xaritalarning turli ko‘rinishlari va shakllari mavjud bo‘lib, o‘qituvchi o‘z tajribasi, qo‘ygan maqsadi va kutilayotgan natijaga asosan ulardan birini tanlashi mumkin.

O‘qitish jarayonida o‘quvchi–talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga, pedagogik va o‘zi tanlagan kasbga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi (2-jadvalga qaralsin).

2-jadval

Darsning texnologik xaritasi

Darsning bosqichlari va mazmuni	Faoliyat	
	Ta’lim beruvchi (o‘qituvchi)	Ta’lim oluvchi
1-bosqich. Tayyorgarlik (8 minut)	Marosim qo‘shiqlari alohida yo‘nalish bo‘lsada, uning ba’zilari yo‘nalishlarda ham uchraydi. Siz marosim qo‘shiqlari yana qaysi yo‘nalishlarda uchraydi, deb hisoblaysiz? Buning uchun oldin o‘tganimiz, ma’lum vaqtda ijro etiladigan va istalgan vaqtda ijro etiladigan qo‘shiqlarni eslang.	Uyga berilgan topshiriq bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanadi va javob beradi.

2-bosqich. Yangi mavzuni o'zlashti-rish (50 minut)	Bugungi mavzumiz alohida yo'nalish sifatida o'zining boshqa yo'nalishlari bilan umumiy xususiyatlarini namoyon etadi. Pinbord usulida siz mavzu yechimi bo'yicha o'z g'oyangizni ilgari surasiz va uni ko'pi bilan ikki so'zda ifodalab, sinf taxtasida qog'ozcha shaklida yopishtirasiz. Ya'ni, marosim qo'shig'ining qaysilari yana boshqa qaysi yo'nalishda uchraydi? boshqa marosimlarni qismlarini eslang.	Guruh a'zolari o'z ish faoliyatlarini nazorat qilib borish uchun ekspert tanlaydilar. Bunda guruh a'zolarining psixologik moslik nuqtai nazaridan joylashishlari ta'minlanadi.
3-bosqich. Yakuniy xulosani yozma bayon etish. (10 minut)	Siz marosim qo'shiqlari ayrim elementlarining yana boshqa qaysi shaklda uchrashi mumkinligini aniqlash bo'yicha o'z g'oyalaringizni ilgari surib, yagona qarorga keldingizlar. Demak, marosim qo'shiqlari takrorlanadigan xalq musiqasi ijod tarzida keldigan kuy ohanglari xususiyatlari bilan o'xshashligini ko'rish mumkin.	Barcha mavjud g'oyalar sinf taxtasida o'z o'rnini topgach, guruh a'zolaridan 2 yoki 3 talaba chiqib o'zaro hamda boshqalar bilan maslahatlashadilar va aniq xato hamda qaytariluvchi g'oyalarni saralaydilar. Tortishuvli o'rinlarni aniqlaydilar, g'oyalarni ma'lum tizim bo'yicha (marosim qo'shiqlari) joylashtiradilar va yozuv taxtasida guruhlaydilar.

4-bosqich. Umumlashtirish. (7 minut)	Demak, marosim qo'shiqlari o'z paydo bo'lishi bilan tarixan xalq ijodigi musiqasiga xosdir. Lekin, uning ko'pgina elementlari yevropa musiqasida ham uchraydi. Shuning uchun, marosim qo'shiqlari fan doirasida mushohada yuritilgan ekanmiz, ushbu janrga xos bo'lgan ayrim elementlar boshqa shakllarda ham uchrashi mumkinligini bilish bizning o'zbek musiqasi tarixi fanidan egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarimizni yanada to'ldiradi.	Bu bosqichda talabalar marosim qo'shiqlari yo'nalishida uchraydigan turli xususiyatlarni bilib olgan holda, ularga qaratib to'g'ri chiziqlar o'tkazadilar va ularning moslik nuqtalarini aniq ko'rsatishga erishadilar.
5-bosqich. Yakun yasash, tahlil qilish va baholash. (5 minut)	Hurmatli talabalar, sizlar bu amaliy mashg'ulotimizda marosim qo'shiqlari yana qaysi musiqa yo'nalishida uchrashi mumkinligi muammosini yechishga erishdingizlar. Aniqlaganlaringizdan ko'rinib turibdiki, marosim qo'shiqlari yana boshqa qo'shiqlarda ham uchraydi ekan, demak, bu qo'shiq xususiyatlar yagona emas, balki, boshqa shakllarda ham uchraydi.	Talabalar ish yakunida o'zlarini baholaydilar.

Rejada faqat darsning maqsadlari ko'rsatilgan, xaritada talaba (o'quvchi)lar tomonidan o'quv materialni o'zlashtirishning har bir bosqichida bashorat qilingan natijalarga erishish diagnostikasi bilan o'quv faoliyatining butun jarayoni batafsil

tavsiflangan. Rejalashtirish bosqichida ham butun darsning borishini batafsil o'rganish bizga qog'ozda hal qilinishi mumkin bo'lgan ko'plab muammoli muammolarni aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, masalan, materialning eng murakkab elementlari osongina aniqlanadi va tahrirlanadi, ularni o'zlashtirish uchun ish tezligi sekin bo'lgan talabalar ko'proq vaqt talab etadi.

Darsni rejalashtirishning ushbu usuli bilan aniq tuzilgan loyiha, "texnologik xarita" atamasining o'zi ta'limga ishlab chiqarish hududidan kirib kelganligi bilan bog'liq bo'lib, u ma'lum bir jarayonni amalga oshiruvchi xodimlar uchun aniq ko'rsatmalar to'plamini anglatadi. Darsning texnologik xaritasi darsni rejalashtirishning zamonaviy ko'p komponentli shakli bo'lib, uning ssenariysi qulay grafik shaklda (jadval shaklida) ifodalanadi.

Bunday rejalashtirish o'qituvchiga darsning borishini aniq bashorat qilishga yordam beradi, shuningdek, davlat ta'lim standartida rejalashtirilgan natijalarga imkon qadar tezroq erishish, muayyan o'quv faoliyatini bajarish jarayonida talaba (o'quvchi)lar tomonidan shakllantirilgan o'quv faoliyatini aniqlash, ta'lim jarayoni barcha ishtirokchilarining samarali o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish, ta'lim jarayoni uning barcha bosqichlari o'rtasida mantiqiy bog'liqlikni o'rnatish yo'li bilan tuzilishi, darsning har bir bosqichida rejalashtirilgan vazifalarning bajarilishini xolisona baholash, zamonaviy pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan fanlararo aloqalarni nafaat nazariy jihat, balki, amalda bajarish, darsni rejalashtirishdan butun mavzuni keng ko'lamli loyihalashga o'tish tizimli va mantiqiydir.

Ko'pgina tajribali pedagoglar - kirish qismida darsning predmeti va mavzusi, asosiy jadval qismida o'quv maqsadlariga erishish uchun bashorat qilingan mantiqiy, kommunikativ, shaxsiy va boshqa natijalar ko'rsatilishini maslahat berishadi. O'qituvchining ixtiyoriga ko'ra, ba'zi bosqichlar bekor qilinishi yoki yaxlit qilib birlashtirilishi ham mumkin, ammo darsni tashkil qilish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va umumlashtirish kabi bosqichlar texnologik xaritada bo'lishi lozim. Jadvalli qismdan keyin yordamchi materiallar joylashtirishi tavsiya etiladi.

Dars rejasining innovatsion uslubiy loyihasi bo'lgan texnologik xarita zamonaviy ta'lim standartlariga to'liq mos keladi. O'quv materialini imkon qadar yaxlit va mantiqiy idrok etish imkoniyatiga ega bo'lgan o'qituvchi darsning har bir bosqichida talaba (o'quvchi)lar bilan yanada samarali pedagogik hamkorlik qiladi, rejalashtirilgan natijalarga tezda erishadi. Bundan tashqari, darsni rejalashtirishning ushbu usuli talaba (o'quvchi)lar uchun qulaydir: ta'lim oluvchilarni mustaqil intellektual va ijodiy faoliyatga undaydigan muhit yaratiladi, bu esa, o'z navbatida, ta'lim oluvchilarning shaxsini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma hamda malakalarini baholashning zamonaviy metod va vositalari.

1. Dasturlashtirilgan boshqaruv.

Talabalar bilimini tekshirish tizimida dasturlashtirilgan nazorat qo'llaniladi, uni alternativ usul (*fr.* – alternative, ikkita imkoniyatdan biri) yoki tanlash usuli deb ham atashadi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, talaba (o'quvchi)ga savollar beriladi, ularning har biri uchun uch yoki to'rtta javob beriladi, lekin ulardan faqat bittasi to'g'ri. Talabaning vazifasi to'g'ri javobni tanlashdir [75]. Bir vaqtning o'zida bir nechta shunga o'xshash savol va javoblar barcha talaba (o'quvchi)larga alohida varaqlarda yoki kompyuter yordamida berilishi mumkin, bu ularning bilimlarini bir necha daqiqada sinab ko'rish imkonini beradi. Bu dasturlashtirilgan nazorat usulining ijobiy tomonidir.

Biroq, bu usul ham o'zining kamchiliklariga ega. Asosiysi, u o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishning faqat ma'lum jihatlarini tekshirish uchun ishlatilishi mumkin. Bu usul bilimning to'liqligi va hajmini ochib berishga yetarlicha imkon bermaydi.

Biroq, bilimlarni tekshirish va baholashda yuqoridagi usullarning har biri o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Yozma testlar bir vaqtning o'zida sinf yoki guruhdagi barcha talaba (o'quvchi)larning bilimlarini tekshirish va baholash imkonini berishi bilan foydalidir, lekin ular ko'p vaqt talab qiladi va shuning uchun tez-tez bajarish imkoni cheklangan.

Shunday xulosa kelib chiqadi: o'quv-tarbiyaviy ishlar tizimida talaba

(o'quvchi)larning muvaffaqiyati sifati ustidan zarur tizimli va chuqur nazoratni ta'minlash uchun yuqoridagi barcha bilimlarni tekshirish va baholash usullari qo'llanilishi kerak.

2. O'quv materialini o'zlashtirish sifatini baholashda reyting tizimi. Reyting - tom ma'noda ingliz tilidan - sifat tushunchasining ba'zi bir raqamli xarakteristikasi bo'lgan baholash. Reyting odatda "yig'ilgan ball" yoki "tarixiy ball" deb tushuniladi, "individual, jami indeks" atamasi ham qabul qilingan [74].

Bilimlarni u yoki bu shaklda baholashning reyting tizimi uzoq vaqtdan beri mavjud. U ko'plab g'arb universitetlarida, sobiq metropoliyalarning ta'lim tizimlari saqlanib qolgan Afrika mamlakatlarida, shuningdek, mamlakatimizning ba'zi universitetlarida qo'llaniladi. So'nggi o'n yillikda u ba'zi tajriba o'rta maktablarida qo'llanildi. Hozirgi vaqtda bilimlarni nazorat qilish tizimi ta'limning zamonaviy talablariga zid keladi. Uning asosiy kamchiligi aniq - bu talabalarning faol va ritmik mustaqil ishlariga hissa qo'shmaydi.

Reyting tizimi talabalarning yutuqlarini hisobga oladi va shu bilan ularning mustaqil ishlarini sezilarli darajada faollashtiradi, kasrli 100 balllik reyting shkalasi yordamida bilimlarni xolis va aniqroq baholaydi, ta'limning ko'p bosqichli tizimiga o'tishda ayniqsa muhim bo'lgan differentsiatsiyaga zamin yaratadi, har bir talaba tomonidan mustaqil ish jadvalini bajarish haqida to'liq ma'lumot olish imkonini beradi.

Reyting har xil turlarga bo'lingan ular orasida: talabaning joriy ishi va imtihon (test)dagi natijalarini hisobga olgan holda fanlar bo'yicha reyting, barcha fanlar bo'yicha erishilgan yutuqlarni aks ettiruvchi kumulyativ reyting, muayyan davr mobaynida o'rganilgan turdosh fanlar sikli bo'yicha yakuniy reyting, o'qishning ma'lum davri uchun integral reyting, va o'qish davridagi umumiy ko'rsatkichi shular jumlasidandir. Taqqoslash qulayligi uchun reytinglar 100 balllik shkala bo'yicha hisoblanadi.

Eng mashhurlari 20 balli tizim (chet elda qo'llaniladi) va 100 ballli tizim (mamlakatimizda qo'llaniladi), 20 balllik tizim bilan barcha testlar ham shu shkala bo'yicha hisoblanadi va umumiy ball o'rtacha hisoblanadi. 100 balllik tizimda

umumiy ball oddiy nazorat faoliyati uchun berilgan ballar yig'indisidir. Ikkinchi modelga afzallik beriladi, garchi ular matematik jihatdan ekvivalentdir. Barcha G'arb tizimlarida ijobiy baholash chegarasi maksimalning yarmini tashkil qiladi [74].

To'rt balli (hatto ikki ballli: "o'tdi - o'tmadi") tizim bilimni to'g'ri baholash, eng muvaffaqiyatli talabalarni farqlash va rag'batlantirish uchun yetarli emas. Nazorat tizimlarini joriy etishning yuqoridagi metodologiyasi bir qator muhim kamchiliklarga ega va ularni bartaraf etish ta'limga tizimli-faollik yondashuvini, shu jumladan, muammoli-modulli ta'limni qo'llash texnologiyasini joriy etish bilan amalga oshirilishi mumkin.

Modulli ta'lim texnologiyasi g'oyasi va tamoyillari talaba (o'quvchi)larning ta'limdagi yutuqlarini monitoring qilish va baholashning adekvat tizimini ishlab chiqishni talab etadi. Mavjud boshqaruv tizimlari talaba (o'quvchi)larning mustaqil o'quv va kognitiv faoliyati doirasini kengaytiradigan muammoli modulli ta'lim usullari va shakllarining o'ziga xos xususiyatlariga hamisha ham to'liq mos kelmaydigan holatlar uchraydi.

Talabalarining bilim va ko'nikmalarini kuzatish va baholashning an'anaviy tizimlarida bitta nozik jihati kuzatiladi. Bu nazoratning barcha "torlari" va "tutqichlari" o'qituvchi qo'lida bo'lishidan iborat bo'lib, bu holat talaba (o'quvchi)ning tashabbuskorlik, mustaqillik va bilim olishdagi raqobatbardoshlik xususiyatlaridan ma'lum darajada yiroqlashtirishi mumkin. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar talabalarining bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish bo'yicha elementar talablarga rioya qilishga harakat qiladilar. Biroq, aytish joizki, ba'zan talaba darsda o'tirib, bugun undan so'rashdimi yoki yo'qmi, bila olmay qoladigan holatlar ham uchraydi.

Nazoratning asosiy talablaridan biri talaba (o'quvchi)larning individual xususiyatlarini hisobga olishdir. Bu sifatga qo'yiladigan talablar, bilim miqdori va ko'nikmalarni rivojlantirish darajasi haqida emas, balki talaba (o'quvchi)larning individual fazilatlarini (sustkashlik, uyatchanlik yoki aksincha, o'zini-o'zi yuqori baholash) hisobga olish haqida boradi. Bunga talabalarga dastur orqali individual rivojlanish sur'ati va fan mavzularini o'rganish variantini mustaqil tanlash huquqini

berish orqali erishish mumkin [70, 10].

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga urinib, muammoli hamda modulli o'qitish texnologiyasida ta'lim yutuqlarini monitoring qilish va baholash uchun reyting tizimidan foydalanish samarpali natijalarga olib keladi, degan xulosaga kelish mumkin. Reyting tizimida talaba (o'quvchi) o'z ballarini o'zi taqsimlaydi. Bu tizimda "a'lochilar", "past o'qiydiganlar" yo'q, ammo erishilgan ta'lim natijalari darajasi bo'yicha birinchi, ikkinchi, o'ninchi, yuzinchilar bor.

Reyting tizimini qo'llash ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va uning samaradorligiga faol ta'sir ko'rsatuvchi tizimdir. Baholashning reyting tizimi talabalarning bilim, ko'nikma va o'zlashtirish bilan bog'liq barcha faolligini va ularning shaxsiy fazilatlarini shakllantiradigan boshqa ko'rsatkichlarni hisobga oladi. Reyting yutuqlar shkalasi bo'lganligi sababli, o'lchov standarti ham bo'lishi talab etiladi. Reyting tizimi nafaqat bilimlarni o'zlashtirish darajasini baholash, balki fanni o'rganishga tizimli yondashish usulidir.

3. Testlar. Umuman olganda, ta'lim oluvchining bilimlari hajmini son jihatidan baholash mumkin, ammo zamonaviy ta'limni baholashlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Insonga xolis munosabatda bo'lish mumkin, biroq, uning bilimini baholash muqarrar ravishda «emotsional komponentni» o'z ichiga olishi aniq, uning qiymati o'qituvchining tajribasiga ham, ta'lim oluvchining mahoratiga ham bog'liqdir. Deyarli dunyoning barcha mamlakatlarida, har qanday turdagi ta'lim muassasalarida o'quvchilarning bilimiga baholar qo'yiladi.

Joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazoratlar mavjud. Ta'lim jarayonida baholash funktsiyalari bilim sifatini baholash, talaba (o'quvchi)larning o'quv faoliyatini rag'batlantirish, ta'lim jarayonini tashkil etish sifatini baholash, o'qituvchining ish sifatini baholashda namoyon bo'ladi.

Baholash ushbu funktsiyalarning barchasi bajarilishi uchun xolis bo'lish, aniqlik bo'lishi, talabaga tushunarli bo'lishi. quyidagi talablarga javob berishi lozim.

Albatta, bilimlarni nazorat qilish va baholashning mutlaqo sub'yektivligi, obyektiv va sub'yektiv sabablarga ko'ra baholash hamisha ham to'g'ri amalga oshirilmasligi kabi ayrim kamchiliklarga ega.

Rasman “test” atamasi 1890 yilda amerikalik psixolog J.Kettel tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U tovushga nisbatan reaksiya tezligi bo'yicha psixofiziologik xususiyatlarni aniqlash uchun 50 ta testdan iborat seriyani taklif qildi. Fransuz A.Bine esa 1891 yilda testologik tadqiqot tamoyillarini shaxsning oliy psixik funksiyalari - xotira, diqqat, estetik va axloqiy tuyg'ularga nisbatan tatbiq etgan edi. 1911-yilda nemis psixologi V.Shtern insonning intellektual rivojlanishi darajasini aniqlash maqsadida testdan foydalanishni taklif qildi [56].

20-asr boshlarida pedagogik va psixologik testlarni qo'llashda birmuncha cheklanganlik kuzatildi. Birinchi standartlashtirilgan pedagogik test amerikalik psixolog E.Torndayk tomonidan 1874-1949 yillarda tuzilgan. U shuningdek, Amerika maktabi amaliyotiga testni joriy etishning uchta bosqichini alohida ajratib ko'rsatdi.

1900-1915 yillar - izlanishlar davri. Ushbu bosqichda frantsuz psixologi A.Bine tomonidan taklif qilingan xotira, diqqat, idrok va boshqa bilish jarayonlari darajasini aniqlash uchun testlarni anglash va amaliyotga joriy etish yuz berdi. 1931 yildan boshlab maktablarda testlarni qo'llashning rivojlangan bosqichi boshlandi. Mutaxassislarining izlanishlari testlarning obyektivligini oshirish, testlar diagnostikasida uzluksiz tizim yaratish bo'yicha yagona g'oya va umumiy tamoyillarga qaratildi [56].

Rossiyada testlar 1920-yillarda pedagogik jamoatchilikning e'tiborini tortdi, 1926 yilda hatto maktablar uchun testlar to'plami nashr etildi, ammo o'n yil o'tgach, ular taqiqlandi. Nafaqat intellektual, balki, o'zlashtirish testlari ham yo'q qilindi. 70-yillarda ularni qayta tiklashga qaratilgan urinishlar hech narsa bermadi, bu borada sovet ilm-fani va amaliyoti xorijnikidan ancha ortda qolib ketdi.

Rivojlangan mamlakatlarda testlarni joriy etish va takomillashtirish tez sur'atlar bilan davom etdi. O'zlashtirish testlari keng tarqalgan bo'lib, ular bir nechta ishonchli javoblardan to'g'ri javobni muqobil tanlash, qisqa javob yozish, harflar, raqamlar, so'zlar, formulalar qismlarini qo'shish va boshqalar asosida diagnostika qilar edi.

Ushbu oddiy topshiriqlar yordamida muhim statistik materialni to'plash, unga matematik ishlov berish va test sinovlari uchun taqdim etilgan topshiriqlar doirasida

obyektiv xulosalar olish mumkin. Test natijalari talabani javobini standart bilan solishtirish orqali baholanadi, agar uning javobi standartga mos kelsa, test ijoyiy baholangan sanaladi; agar javob standartga mos kelmasa, u hisobga olinmaydi. Standartning mavjudligi baholashning obyektivligini ta'minlaydi.

4. Virtual kutubxona va uning afzalliklari. O'qituvchining elektron portfoliosi.

Virtual (elektron) kutubxona - bu navigatsiya va qidiruv vositalari bilan jihozlangan turli elektron hujjatlarning (shu jumladan kitoblar, jurnallar) buyurtma to'plami bo'lib hisoblanadi [101]. Kitoblar nashr etish paydo bo'lganidan beri bosma kitoblar axborotni saqlash va tarqatishning eng asosiy shakli bo'lib, kutubxonalar barcha zarur ma'lumotlarni to'plash, saqlash va undan bekamu-ko'st foydalanishning asosiy vositasiga aylangan.

“Aytish joizki, qo'lyozma va bosma kitoblar, hujjatlarni saqlash va ulardan foydalanish texnologiyasi yaxshi o'zlashtirilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda boy tajriba, turli davrlarda faoliyat ko'rsatgan turli mutaxassislarning kitoblari, adabiy asarlari, tadqiqotlari, hujjatli materiallar, amaliy ishlarining natijalari saqlanadi. Biroq, ma'lumotlar hajmining muntazam o'sib borishi bilan, ushbu adabiyotlar bilan ishlash (saqlash, qayta ishlash, ta'mirlash, qidirish, buxgalteriya hisobi) murakkablashadi” [22].

Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi axborot va ma'lumotlarni elektron shaklda saqlash va tarqatishga imkon berdi. Bu insoniyat tarixida bosma ixtiro bilan taqqoslanadigan inqilobiy ahamiyatga ega yangilikdir.

Elektron kutubxona yoki raqamli kutubxona hujjatlar saqlanadigan va mashinada elektron shaklda o'qiladigan axborot tizimining bir turi va dasturiy ta'minotni o'z ichiga olgan elektron hujjatlarga, matnlar va rasmlarga kirish uchun yagona interfeysdan iboratdir. Elektron shakl ma'lumotni yanada ishonchli, ixcham, qulay holatda saqlashga imkon berdi, bu esa ma'lumotlarni tarqatish tezligi va qulayligini yanada oshirdi. Bosma nashrdan farqli o'laroq, elektron shaklda ma'lumotlar erkin boshqarilishi imkoniyati mavjud. Natijada elektron nashrlar soni yildan yilga ortib bormoqda.

Elektron kutubxona tizimi bepul adabiyotlar katalogi orqali ilmiy va ommabop kutubxonalar to'plamlariga (nodir nashrlar, davriy nashrlar, tarixiy, o'lkashunoslik adabiyotlari va boshqalar) kirish imkonini beradi. Saytda foydalanuvchilar uchun turli fanlar bo'yicha o'z bilimlarini sinab ko'rishga yordam beradigan 350 dan ortiq onlayn testlar mavjud. Shuningdek: hujjatlar matnini aniqlashtirish, kitoblar matnini aniqlashtirish va raqamlashtirish, anketalarni qayta ishlash, ma'lumotlarni kiritish, hujjatlarning elektron arxivini yaratish, elektron kutubxonalar yaratish, elektron katalog yaratish va axborotni qayta ishlashdan iborat.

Elektron kutubxona quyidagi elementlarni: elektron kutubxona fondini, axborot va lingvistik ta'minotni, dasturiy ta'minot, shu jumladan foydalanuvchi interfeysini, texnik yordam, shu jumladan apparat va aloqa vositalarini o'z ichiga oladi [63].

“Elektron kutubxona” tushunchasi birinchi marta xorijiy nashrlarda 80-yillar o'rtalarida paydo bo'ldi. Elektron kutubxona yaratish bo'yicha birinchi loyiha Gutenberg loyihasi bo'lib 1971 yilda amalga oshirilgan. Runetda Maksim Moshkov kutubxonasi birinchi elektron kutubxona bo'lib, Rossiya federatsiyasida elektron kutubxona yaratish bo'yicha birinchi ishlar 1990-yillar o'rtalariga to'g'ri keladi. Dunyoning mashhur kutubxonalari sirasiga AQSh Milliy kutubxonasi yoki Kongress kutubxonasini kiritish mumkin. AQSh Milliy kutubxonasi dunyodagi eng yirik kutubxonalardan biri bo'lib, Vashingtonda joylashgan. Elektron kutubxona resurslari - kutubxona fondi negizida yaratilgan va axborot texnologiyalari orqali foydalanish uchun taqdim etilgan elektron axborot resurslaridir [63].

Bosma kitoblar saqlanadigan kutubxonalarda kitob hoshiyalariga eslatma yozish, matnda qatorlar tagiga chizish, kitob sahifalarida yozish; kitobga zarar bermaslik, ehtiyot bo'lib, diqqat bilan varaqlash; kitobni tashlab yubormaslik; uyga olib kelingan kitoblarni o'z vaqtida kutubxonaga qaytarish; kutubxona kitoblariga o'zinikidek ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kabilardir. Kutubxonalarni dastur orqali papkaga o'rnatish tavsiya etiladi, chunki unda kirillcha belgilar mavjud emas va uni saqlash bilan bog'liq hech qanday muammo bo'lmaydi. Elektron kutubxonani kutubxonalar papkasiga shunday ko'chirishingiz kerakki, kutubxona nomi yozilgan papkada kutubxona fayllari joylashtirilishi lozim.

Elektron kutubxona yaratish uchun “Boshlash” (pusk) tugmasi bosiladi, shaxsiy jild ochiladigan foydalanuvchi nomi bosiladi, shundan so‘ng chap tomondagi ustundan “Kutubxona” (biblioteka) bosiladi. Kutubxonalar menyusida sozlamalar panelidan “Yangi kutubxona” (novaya biblioteka) tanlanadi. Kutubxona nomini kiritiladi va “Kiritish” (enter) tugmasi bosiladi. Elektron kutubxona navigatsiya va qidiruv vositalari bilan jihozlangan turli elektron hujjatlar, kitoblar, jurnallarni o‘z ichiga olgan buyurtmalar to‘plamidir.

Elektron kutubxona internet sayti bo‘lib, unda turli matnlar bo‘lishi mumkin va media fayllar asta-sekin to‘planadi, ularning har biri talaba (o‘quvchi) tomonidan istalgan vaqtda so‘ralishi mumkin. Elektron kutubxonalar saytlarini qo‘shni tarkibiy saytlar turlaridan, ayniqsa adabiy kutubxonalardan ajrata olish lozim. Bosma nashrning bir turi sifatida dunyoga kelgan, ammo tuzilmasi muvaffaqiyatli va tubdan o‘zgarmagan holda Internet tarmog‘iga o‘tgan adabiy jurnaldan farqli o‘laroq, elektron kutubxona nashrlarga bo‘linmaydi va yangi materiallar paydo bo‘lishi bilan doimiy ravishda yangilanadi.

Bepul nashr qilinadigan saytdan farqli o‘laroq, elektron kutubxona, qoida tariqasida, loyiha koordinatori tomonidan o‘z xohishiga ko‘ra tanlanadi va eng muhimi, nashr etilgan matnlar atrofida kommunikativ muhit yaratish ko‘zda tutilmaydi. Shu bilan birga, individual Internet-loyihalar amaliyotida gibrid shakllar ham, oraliq yechimlar ham qo‘llanilishi mumkin: masalan, har bir nashr etilgan material muallifi uchun tarmoq adabiyoti elektron kutubxonasida kitoblarni ochish mumkin.

Bugungi kunda har bir o‘qituvchi o‘zini o‘quv, uslubiy, ijodiy, tadqiqotchilikda to‘laqonli tasavvur qila olishi uchun "hujjatlar papkasi" - portfelga ega bo‘lishi muhimdir. Bunday portfelni yaratish an‘anasi hayotiy zaruratdan kelib chiqdi, zero ta‘lim sifatiga qo‘yiladigan talablar doimiy ravishda ortib bormoqda: bir tomondan, o‘qituvchining portfoliosi pedagogik faoliyatining samaradorligini kuzatib borish va nazorat qilish uchun ta‘lim muassasasi ma‘muriyati uchun zarurdir. Boshqa tomondan, o‘qituvchini malaka toifasi uchun muvaffaqiyatli sertifikatlash, uchinchi, o‘qituvchining pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan o‘zini-o‘zi kuzatishi

va takomillashtirishi uchun zarur bo'lib, portfolio haqiqatan ham natijalarni to'laqonli tarzda taqdim etishga imkon beradi (Петрова Г.А. Электронное портфолио педагога как форма представления педагогического опыта [102]).

Demak, **portfolio** (ingl. portfolio - portfel, muhim ishlar yoki hujjatlar uchun papka) - bu shaxsning ma'lum bir sohadagi muvaffaqiyatini, uning ta'limdagi yutuqlarini, turli tanlovlarda ishtirokini tasdiqlovchi hujjatlar to'plami. Ma'lumot uchun: <https://uportfolio.ru/> [103] saytida elektron portfolio yaratish uchun bepul konstruktor joylashtirilgan bo'lib, portfolio yaratish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirishda ushbu saytdan samarali foydalanish mumkin.

O'qituvchi portfoliosi - bu o'qituvchining kasbiy mahorati darajasini va kasbiy faoliyati muammolarini hal qilish qobiliyatini ko'rsatadigan materiallarni to'plash usulidir. Elektron portfolio yaratish o'qituvchining yutuqlarini ko'rsatish, muvaffaqiyatli attestatsiyadan o'tish imkonini beradi va ish joyini o'zgartirish va boshqa ta'lim muassasasiga o'tishda u tashrif qog'ozi va tavsiyanoma rolini o'ynashi mumkin.

Portfel (portfolio) haqida dastlabki yozuvlar o'quv jarayonining tarkibiy qismi sifatida 19-asrning o'rtalariga to'g'ri keladi va maktab bilan emas, balki badiiy ta'lim bilan bog'liq holda kirib kelgan. Portfoliodan foydalanish amaliyoti birinchi marta Parij san'at studiyalarida - atelelarda paydo bo'lgan. Ustozda o'qish istagida bo'lgan talaba o'zining saralangan asarlarini papka – portfolioga yaxshilab yig'ilgan holda ustoz hukmiga havola qiladi, bu an'ana bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Hozirgi davrda portfolio biznes sohasida kompaniyaning yutuqlarini ko'rsatish uchun, fotosuratchilar va fotomodellar orasida esa fotosuratlar bilan albom sifatida qo'llaniladi. 21-asr boshlariga kelib, ta'limda portfoliodan foydalanish g'oyasi butun dunyoda mashhur bo'ldi, ular birinchi navbatda talaba portfoliosi, keyinroq o'qituvchi portfoliosi haqida gapirishadi. Portfolioning asosiy maqsadi sizning mavjud yutuq va imkoniyatlaringizni ko'rsatishdir.

Ilgari portfolio faqat qog'ozli papkada mavjud edi, ammo bugungi kunda kompyuterda hujjatlar (fayllar) ko'rinishidagi materiallarni taqdim etishning elektron shakli (taqdimotlar, matnli hujjatlar, hujjatlarning skanerlangan nusxalari va

boshqalar) yoki Internetda joylashtirilgan veb-sayt shaklida keng ommalashmoqda. Portfolio yaratish uchun o'qituvchi uning mazmuni, tuzilishi va uni yaratish platformasini (taqdimot shaklini) aniqlashi kerak.

Portfolio tarkibi va tuzilishi. Portfolio yaratish bo'yicha umumiy qabul qilingan yagona model mavjud emas va uni tayyorlashga yondashuvlar har xil, u har bir o'qituvchi uchun individualdir va o'qituvchi kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga, shuningdek, o'qituvchi uchun o'quv faniga bog'liq. Hech qanday holatda ham o'qituvchi portfoliosi hech qachon ishlab chiqilgan barcha testlar, darslar va kurslar materiallari to'plangan jamlanma emas. O'qituvchi o'z ishini, muvaffaqiyatlarini tahlil qilishi, pedagogik yutuqlarini umumlashtirishi va tizimlashtirishi, o'zining imkoniyatlarini obyektiv baholashi, qiyinchiliklarni yengishi va yaxshi natijalarga erishish yo'llarini aniq-tiniq ko'rishi zarur.

Barcha o'qituvchilar uchun xarakterli bo'lgan portfolioning umumiy elementlari, bo'limlari va tarkibiy qismlari mavjud. Portfolioga qanday ma'lumotlarni kiritishni xohlayotganingizni aniq bilshishingiz lozim. Elektron portfolio yaratish uchun sayt tanlashda kompyuteringizda (materiallar, taqdimot, matnli fayl) yoki Internetdagi saytlardan birida portfolio yaratish va saqlashni amalga oshirishingiz mumkin:

Siz istalgan vaqtda va Internetga ulangan istalgan kompyuterda o'z portfolioingizni to'ldirishingiz, o'zgartirishlar kiritishingiz mumkin va bu qo'shimchalarning barchasi darhol barcha manfaatdor shaxslar uchun ochiq bo'ladi. Siz portfolioingizga havolani bir marta taqdim etishingiz kerak va u doimiy ravishda mavjud bo'ladi, portfolio qaerda kerak bo'lsa, uni havola orqali har doim ochish imkoniyatingiz mavjud bo'ladi.

Bitta resursni kuzatib borish ancha oson, hamma narsa bitta "virtual portfel"ga joylashtirilgan. Portfolioning ma'nosi nafaqat o'zini-o'zi taqdim etish yoki hisobot berish, balki tajriba almashish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan o'zaro izchil munosabatda bo'lishdan iborat bo'lib, faqatgina internet tarmog'ida joylashtirilgan portfolio bu maqsadni to'laqonli amalga oshirish imkonini beradi.

Portfolio yaratish mashaqqatli jarayon bo'lsa-da, ammo olinadigan natija bunga arziydi. Shu orqali qayta foydalanish mumkin bo'lgan, boshqalarga ko'rish va tanishish uchun taklif qilinadigan, muntazam ravishda to'ldirib boriladigan va yangilanib turadigan "mahsulot" olish mumkin. Shunday qilib, portfolio zamonaviy o'qituvchi tizimli faoliyatining bir qismiga aylanadi, bu esa "virtual portfel" bo'ladi. Bu yerda barcha materiallarni "javonlarga" joylashtiriladi, ularni olib, kasbiy faoliyatda foydalanish va hamkasblar bilan pedagogik tajriba almashish mumkin.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Innovatsion ta'lim sharoitida oliy musiqa ta'limi o'qituvchisining kompetentlik modelini loyihalash asoslari.
2. Pedagogik texnologiya talablari asosida musiqa fanlarini o'qitish jarayonini loyihalash.
3. Darsning texnologik xaritasi.
4. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma hamda malakalarini baholashning zamonaviy metod va vositalari.
5. Virtual kutubxona va uning afzalliklari.
6. O'qituvchining elektron portfoliosi.
7. Multimedia vositalari asosida o'quv mashg'ulotlarini amalga oshirish.

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayoni bosqichlari?

- a) Kasbiy moslashuv, pedagogik yo'naltirish va ijodiy pedagogik o'zini-o'zi belgilash bosqichlari;
- b) maqsadni belgilash, vazifalar ishlab chiqish bosqichlari;
- c) natijaga yo'nalganlik, mustaqil ishlash bosqichlari;

d) o‘z ustida ishlash, natijalarni tahlil qilish bosqichlari.

2. Texnologik xaritaning muhim jihati.

A) Dars bosqichlarining ketma-ketligi va vaqt limiti belgilanadi

B) Darsda o‘quvchilar erkin faoliyat ko‘rsatishadi

V) O‘quvchilar bilimi tezkor aniqlanadi

G) Diagnostik tahlil amalga oshiriladi.

3. Loyihalash mahsuli ta’lim jarayonining ... sanaladi.

A) Loyihasi

B) Tahlili

V) Natijasi

G) Xulosasi.

4. Loyihalash bosqichlari.

A) Modellashtirish, loyihalash, qurish

B) Loyihalash, qurish, rejalashtirish

V) Qurish, modellashtirish, prognozlash

G) Rejalashtirish, natija, qurish.

5. Pedagogik texnologiyani ishlab chiqish jarayonidir.

A) Pedagogik loyihalash

B) Dars tahlili

V) Dars konspekti

G) Darsni tizimlashtirish.

Seminar mashg‘ulotlari uchun mustaqil ish topshiriqlari

1. Innovatsion ta’lim sharoitida oliy musiqa ta’limi o‘qituvchisining kompetentlik modelini grafik organayzerda ifodalang.

2. Bir soatlik darsning texnologik xaritasini tuzib kelish.

3. Ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma hamda malakalarini baholashning zamonaviy metod va vositalari nimalardan iborat. Ularni jadval shaklida ifodalang.

4. Virtual kutubxona afzalliklarini grafik organayzerda ifodalang.

5. O‘zingizning elektron portfoliopingizni yarating.

6. Darslarda multimedia vositalarini qo'llash bo'yicha o'z taklif va mulohazalaringizni matn ko'rinishida yozib keling.

Oliy musiqa ta'limida interfaol metodlar: tasnifi va qo'llanishi.

Reja:

1. Musiqa o'quv mashg'ulotlarida faol va interfaol metodlarni qo'llash.
2. Hamkorlikda o'qitish, jamoada o'qitish va kichik guruhlarda o'qitish texnologiyalari.
3. Modulli va masofaviy ta'limning musiqiy rivojlanishni amalga oshirishdagi imkoniyatlari.
4. Musiqa ta'limida dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari.

Таянч тушунчалар: фаол методлар, интерфаол методлар, ҳамкорликда ўқитиш, модули таълим, масофа110

вий таълим, дастурлаштирилган таълим.

Asosiy adabiyotlar

1. Яхругина М.А. Технология сотрудничества как средство повышения познавательной активности учащихся на уроках музыки. Эл. manzil: <https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/362422-tehnologija-sotrudnichestva-kak-sredstvo-povy>
2. Корзникова С.В. Групповые формы работы как средство повышения познавательной активности на уроках музыки. Эл. manzil: <https://urok.1sept.ru/articles/685634>
3. Буслова Е.В., Ахлестина А.Ю., Боброва Э.В. Дистанционные образовательные технологии в профессиональной подготовке педагогов-музыкантов в университете. <https://cyberleninka.ru/article/n/distantcionnye-obrazovatelnye-tehnologii-v-professionalnoy-podgotovke-pedagogov-muzykantov-v-universitete>

4. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Toshkent, 2007. - 195 b.

5. Авлиякулов Н.Х. Педагогическая технология. - Т.: Aloqachi, 2009. - 148 с.

Elektron manbalar

1. <https://challengel.com/article/chto-takoe-keysy/>
2. <https://nsportal.ru/kultura/muzykalnoe-iskusstvo/library/2015/02/14/razvitie-vidov-i-form-sotrudnichestva-na-urokakh>
3. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/29811>
4. <https://www.e-xecutive.ru/wiki/index.php5>
5. <https://externat.foxford.ru/polezno-znat/modulnoe-obuchenie-na-semejnom-obrazovanii>
6. <https://niidpo.ru/blog/modulnoe-obuchenie-chto-eto>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/distsionnaya-forma-obucheniya-v-dopolnitelnom-professionalnom-obrazovanii-muzykanta-ispolnitelya>
8. <https://bigenc.ru/c/skinner-berres-frederik-36c076>

1. Musiqa o‘quv mashg‘ulotlarida faol va interfaol metodlarni qo‘llash.

O‘qitishning interaktiv metodlari bu o‘qituvchi va o‘quvchi (talaba) o‘rtasidagi muloqot yoki suhbat jarayonida o‘zaro pedagogik munosabatlarni o‘z ichiga olgan usul. O‘qitishning interaktiv metodlari mohiyati shundaki, ular nafaqat o‘qituvchi va talaba (o‘quvchi)lar o‘rtasidagi keng o‘zaro munosabatlarga, balki ularning o‘zaro munosabatlariga ham yo‘naltirilgandir.


Interfaol ta’lim - ta’lim jarayoni shptirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’limdir [43, 4]. Metod va usullar: o‘xshashligi, farqi va o‘ziga xos jihatlari. Maxsus adabiyotda “o‘qitish metodlari” va “o‘qitish usullari”ga turlicha ta’riflar keltiriladi. Bu orqali o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning o‘zaro birgalikdagi faoliyati amalga oshiriladi va bilim, ko‘nikma hamda malakalar shakllantiriladi.

Farqi shundaki, o'qitish usuli bu – bir masala borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan qisqa muddatli vositadir. Metod esa – uzoq muddatli jarayon bo'lib, bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi hamda ko'pgina usullarni o'z ichiga oladi. Demak, o'qitish usuli u yoki bu metodning tarkibiy qismidir. O'qitish metodlari uchga bo'linadi:

O'quv faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari, o'quv faoliyati samaradorligini baholash metodlari va o'quv faoliyatini rag'batlantirish, jazolash metodlari. O'qitish metodlari kommunikativ nuqtai nazardan: passiv, aktiv va interaktiv o'qitish metodlariga bo'linadi.

O'qitishning faol (aktiv) metodlari. Dars jarayonida o'qituvchi birgina metodni qo'llashi yoki bir nechta metodlar kombinatsiyasini qo'llashi mumkin. Uning muvaffaqiyati tanlangan metodlar hamda qo'yilgan vazifalar nisbatiga bog'liq. Keng tarqalgan o'qitishning faol metodlari bilan tanishamiz (5-rasmga qaralsin):

Prezentatsiya (tadqiqot) - darsda qo'llash uchun eng oddiy va keng tarqalgan metodlardan biri. Bu talaba (o'quvchi)lar tomonidan dars mavzusi bo'yicha tayyorlangan slaydlar namoyishidir.



5-rasm. O'qitish metodlari tasnifi [68].

Keys-texnologiyalar pedagogikada o'tgan asrdan boshlab qo'llanib kelgan bo'lib, mavzu muammosi bo'yicha modellashtirilgan yoki real vaziyatlar tahliliga asoslanadi. Keyslarni tuzishda ikkita yondashuv ajratib ko'rsatiladi. Amerika maktabi qo'yilgan vazifani yechish uchun birta, yagona to'g'ri variantni topishni nazarda tutadi. Yevropa maktabida esa, aksincha, vazifani yechishda qo'p qirralilik va ularni asoslashni taqozo etadi.

Muammoli ma'ruza an'anaviy ma'ruzadan farqli ravishda, muammoli ma'ruzani amalga oshirishda bilimlarni singdirish passiv tarzda amalga oshirilmaydi. Ya'ni, o'qituvchi an'anaviy o'qitish usulidan farqli ravishda tayyor yechimlarni taklif etmaydi, balki, savollar qo'yadi va muammoni belgilaydi. Bunda talaba (o'quvchi)larning o'zlari qoidalarni ishlab chiqishadi. Bu metod ancha murakkab bo'lib, o'quvchilardan ma'lum darajada mantiqiy fikrlashni talab etadi.

Interaktiv metodlar ta'lim oluvchilarning nafaqat o'qituvchi bilan birgalikdagi faol harakatini, balki, ta'lim oluvchilarning o'zaro, bir-biri bilan faol hamkorligi orqali dars jarayonidagi faolligini nazarda tutadi. Interaktiv (*«inter»* — o'zaro, *«act»*

— harakat qilmoq) — birgalikda kim bilandir dialogga, suhbatga kirishish, ya'ni, o'zaro ta'sir sharoiti nazarda tutiladi (106).

Interaktiv o'qitish metodlarining vazifalari - mustaqil izlanish, axborotni tahlil qilish va vaziyatni muqobil hal etish bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish, jamoada ishlashga o'rgatish, ma'lum faktlarga asoslangan holda o'zining mustaqil fikrini shakllantirish va bayon etishga o'rgatishdan iborat.

Quyida V.S.Zaytsevnin "Sovremenniy pedagogicheskiy texnologiy: uchebnoye posobiye. Chelyabinsk, CHPGU, 2012. - 411 s." o'quv qo'llanmasidan metodlar keltirildi:

O'qitishning interaktiv metodlariga:

Aqliy hujum - savollar va javoblar majmuasi yoki qo'yilgan vazifa bo'yicha taklif va g'oyalarning to'g'riligi yoki noto'g'riligini shturm orqali tahlil etiladi.

Klasterlar, qiyosiy diagrammalar, pazllar¹ — ma'lum mavzu bo'yicha muammoli va kalit so'zlar izlash.

AKT, audio va video materiallar asosida interaktiv dars – onlayn rejimida testlar, elektron darsliklar, o'qitish dasturlari, ta'lim saytlari bilan ishlash.

Davra stoli (diskussiya, debatlar) - metodlarning guruhli ko'rinishi bo'lib, unda muammolar, takliflar, g'oyalar, fikrlar va ularning hamkorlikdagi yechimi ko'zda tutiladi.

Ishchan o'yinlar (jumladan, rolly, imitatsion) — keng tarqalgan metod bo'lib, uzluksiz ta'limning barcha bosichlarida amalga oshirilishi mumkin. O'yin jarayonida barcha o'quvchilar o'zlarini turli kasblarda tasavvur qilib, u yoki bu vaziyatning ishtirokchilari rolini o'ynashadi.

Akvarium - ishchan o'yinlardan biri bo'lib, realiti-showni eslatadi. Bunda qo'yilgan vazifani 2-3 ishtirokchi bajaradi. Boshqalar ishtirokchilarning harakatlarini nafaqat chetdan kuzatishadi, balki, ular taklif etayotgan variantlar, g'oyalarni tahlil qilishadi.

¹ **Pazl** — o'yin-boshqotirma bo'lib, unda turli shakldagi rasmlar parchalaridan mozaika tuzish orqali amalga oshiriladi.

Loyihalar metodi - talaba (o'quvchi)lar ma'lum mavzu bo'yicha loyiha ishlab chiqishadi va uni himoya qilishadi.

Mini ma'ruza – amaliy mashg'ulotlarda qisqa nazariy ma'lumotlarni esga olishning samarali usullaridan biri. Qaysidir ma'lumotni yetkazishdan oldin o'qituvchi - talaba (o'quvchi)lar uni qanchalik bilishini so'raydi. Javob olgach, o'qituvchi mazkur savol javobini muhokama qilish uchun vaqt beradi.

Binar ma'ruza – darsning ikki o'qituvchi, ya'ni amaliyotchi o'qituvchi va olim-tadqiqotchining dialogi asosida tashkil etilishi. Zaruriy talablar: diskussiya madaniyatini namoyon etish, mavzu muhokamasiga talabalarni ham jalb etish.

Brifing – (ingl. – qisqa); bir mavzuga bag'ishlangan qisqa matbuot konferensiyasi. Asosiy belgilari: taqdimot (prezentatsiya) qismi mavjud emas. Darhol savol-javoblarga o'tiladi.

Vebinar – bu internet texnologiyalari asosidagi virtual praktikumdir. Uning asosiy belgisi – interaktivlikdir. Bunda ma'ruza qilinadi, tinglovchilar savol berishadi, ularga javob beriladi.

Videokonferensiya – bu vxborot texnologiyalari vositasida tashkil etiladigan, bir vatning o'zida ikki tomonlama, turli masofalarda interaktiv axborot uzatish va qabul qilishni ta'minlaydigan texnologiyadir.

Video ma'ruza – yozib olingan, audio, foto va videomateriallar bilan boyitilgan ma'ruza bo'lib, dars jarayonida samarali qo'llash imkoniyati mavjud.

Debatlar – bu dolzarb mavzularda, ikki tomon orasida oldindan maxsus tayyorlanadigan va tashkil etiladigan, ommaviy fikr almashishdir. Ushbu ommaviy diskussiyaning maqsadi qarshi tomonni emas, balki, uchinchi tomonni o'zining haqligiga ishontirishdan iborat.

Diskussiya – ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, ma'lum aniq muammoni jamoaviy muhokama qilishga qaratilgan interaktiv metod bo'lib, g'oyalar, tajriba va fikrlar almashuvini ko'zda tutadi.

Interaktiv (muammoli) ma'ruza – bu tajribali professor-o'qituvchining katta auditoriya oldida 2-4 soat mobaynida muammoli ma'ruza qilishidir. Bu: boshqariladigan ma'ruza; moderatsiya - ya'ni, ma'ruza mashg'ulotidagi barcha

ishtirokchilarning dars materialini o'rganish jarayoniga safarbar etilishi; slayd-taqdimot; "aqliy hujum", o'qituvchining motivlashtiruvchi nutqi va h.k.

O'quv video filmlari ko'rish - o'quv va ilmiy bilishga yo'naltirilgan, tegishli mazmundagi video filmlarni darsning xohlagan qismida, dars maqsadiga mos tarzda, asosiy material sifatida ko'rish mumkin.

Kollokvium – o'quv-nazariy mashg'ulotlar ko'rinishi bo'lib, o'qituvchi rahbarligida muammolarning keng doirasi guruhviy tarzda muhokama qilinadi. Bir vaqtning o'zida bu metod nazorat va baholash metodi hamdir.

Didaktik o'yinlar — ishchan o'yinlardan farqli ravishda didaktik o'yinlar vaqti qat'iy belgilanadi.

"Aqliy hujum" metodi.

"Baliq skeleti" metodi.

"Bahs-munozara" metodi.

"Blis-so'rov" metodi.

"Bumerang" metodi.

"Konseptual jadval" grafik organayzeri metodi.

"Venn diagrammasi" metodi.

"Video topishmoq" metodi.

"Jadval" grafik organayzeri. Mavzu mohiyati jadvalda aks ettiriladi.

"Insert" grafik organayzeri (metodi). Mavzu bo'yicha tegishli tushunchaga ega bo'lganlik darajasini aniqlash metodi.

Keys–metod (ma'lum vaziyatlar tahlili) yoki "Case-study" ("Keys-stadi") metodi – ma'lum vaziyat tahlilini amalga oshirishga qaratilgan metoddir. Bunda ma'lum vaziyat tahlil qilinishi orqali keys ishlanadi va boshqalar.

STL "Hamkorlikda o'qitish" (*Student Team Learning*) texnologiyasi.

Ijodiy loyihalar - natijalarning tegishli dizaynini o'z ichiga olgan loyihalar video ssenariysi shakli, bayram dasturini dramatizatsiya qilish, kompozitsiya, maqola, reportaj va boshqalar, gazeta, albom dizayni va sarlavhalari tarzida tashkil etilishi mumkin. Ijodiy loyihalar san'at yo'nalishlaridagi ta'lim muassasalarida ijobiy metodik natijalar berishi mumkin. Mazkur loyihalarni amalga oshirish jarayonida

ta'lim oluvchilar kreativ tafakkur, ijodiy fikrlash orqali qo'yilgan vazifalarni qiziqish bilan bajarishlariga imkon yaratiladi.

Rolli o'yinlar, o'yin loyihalari - bu loyihalarda ishtirokchilar shartli ravishda ma'lum rollarni bajaradilar. Musiqiy ijrochilik jarayonida ijro vaziyatini yaratish, jumladan, konsert zalida, imtihonda, sinf konsertida, tanlov yoki festivallarda sahnada ijro etishning o'ziga xos ma'naviy-estetik va pedagogik-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ma'lum vaziyatni imitatsiya qilish orqali ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, ustanovka yaratishga shart-sharoit yaratiladi.

Dasturlashtirilgan o'qitish metodlari o'quv materialini elementlar bo'yicha nazorat qilishni, musiqa o'qitishni imkoniyati boricha individuallashtirishni, nazariy bilimlarni egallashning individual sur'atini hisobga olishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Elektron darslikda materiallar shunday taqsimlanadiki, unda berilgan materiallar qismlarga bo'lib ko'rsatiladi va har qaysi o'quvchi tomonidan bajarilishi bilanoq o'zini-o'zi tekshirib ko'rish imkoniyati beriladi. Shu yo'sinda topshiriqlar borgan sari murakkablashib boradi.

Offlayn texnologiyalar - bu tarmoq tizimida axborotlarni uzatish elektron kommunikatsiya vositasi bo'lib, ma'lumot almashishning asinxronligini ta'milnaydi. Offlayn texnologiyalar orqali ichki ma'lumotlar almashish va veb-forumlarni tashkil etish amalga oshiriladi. Bu mashg'ulotlar jarayonida dars mavzusi bilan bog'liq OTM elektron kutubxonasidan turli audio, video, rasmlari va matnli materiallarni olish va qo'llash imkoniyatini beradi.

Barcha aktiv va interaktiv metodlarning asosiy vazifasi – talaba (o'quvchi)ga o'qish, izlanishni o'rgatishga qaratilganligidir. Muhimi vaziyatni tahlil qilish, ma'lumotni mustaqil izlash, mantiqiy zanjir tuzish, puxta o'ylangan qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish orqali talaba (o'quvchi)larni tanqidiy fikrlashga o'rgatish amalga oshiriladi.

“Case – (ingl. – voqea, hodisa, vaziyat); study” – o'rganish, o'qish, o'qimoq); mazkur metod real yoki sun'iy yaratilgan vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va

ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan interfaol ta'lim metodidir [105].

Tahlil uchun vaziyatlar:

1. Milliy maqom musiqasini rivojlantirish masalasi zamonaviy o'zbek musiqasi amaliyotida ustuvor yo'nalish sifatida kun tartibiga chiqdi.

- ✓ Maqomlar musiqasining tinglovchilar o'rtasida qiziqib tinglanishi yoki tinglanmasligi holati (vaziyati);
- ✓ unga sabab bo'layotgan omillar;
- ✓ uni rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim?

2. Bugungi kunda talabalarning darsga qatnashi (ishtiroki) masalasi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

- 1) Bu muammoning sabablari va;
- 2) uni bartaraf etish yo'llari borasida maqbul variantlarni keltiring.

Vaqt limiti: 15 minut.

Zamonaviy estrada san'ati jamiyatimizda ustuvor ahamiyat kasb etib, umumiy tinglovchilar sonining aksariyat qismini o'ziga jalb etganligi haqiqat. Ta'kidlash lozimki, musiqa janrlari orasida eng ko'p tanqidga uchraydigan janr ham estrada janri. Chunki, bu janrdagi musiqa asarlari orasida tinglovchilar didiga, ularning badiiy saviyasiga turlicha ta'sir ko'rsatuvchi asarlar mavjud.

Ushbu holat borasida **Sizning fikringiz?**

Fikrlaringizni "SWOT tahlil" interfaol metodi orqali ifodalang.

Vaqt limiti: 15 min.

Strengths (Kuchli tomonlari)	Weaknesses (Kuchsiz tomonlari)
1. ...	1. ...
2. ...	2. ...
3. ...	3. ...
4. ...	4. ...
Opportunities (Imkoniyatlari)	Threats (Xatarlari)

1. ...	1. ...
2. ...	2. ...
3. ...	3. ...
4. ...	4. ...

Mustaqil ishlash uchun vazifa: Vebinarda ishtirok etish texnologiyasini o'rganish va yozib kelish.

2. Hamkorlikda o'qitish, jamoada o'qitish va kichik guruhlarda o'qitish texnologiyalari.

Hamkorlik - bu o'zaro tushunish, bir-birining ma'naviy dunyosiga kirib borish, ushbu faoliyatning borishi va natijalarini jamoaviy tahlil qilish bilan bog'liq ta'lim oluvchilar va ustozlarda birgalikda rivojlanish faoliyatining gumanistik g'oyasidir va pedagogik ish shaklidir. Hamkorlik strategiyasi o'qituvchi tomonidan talaba (o'quvchi)larning kognitiv qiziqishlarini rag'batlantirish va yo'naltirish g'oyalariga asoslanadi.

Musiq darslaridagi hamkorlik boshqa fanlar bo'yicha o'qituvchilarning hamkorligidan farq qiladi. Musiq inson aqliy faoliyatining hissiy, kechinmalar bilan bog'liq sohasini aks ettiradi. Shu bois musiq darslarida hamkorlikni ko'rib chiqish masalasi hozirgi davrda dolzarb sanaladi [106].

O'qituvchi talabalarga katta hajmdagi nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun taqdim etganda, katta hajmdagi o'quv materiallari qismlarga bo'linadi va o'rganish uchun kichik guruhlariga taqsimlanadi. Buni talaba (o'quvchi)lar kichik guruhlarda ishlashda yetarlicha tajriba to'plagan bo'lsa, amalga oshirish tavsiya etiladi. Faraz qilaylik, o'qituvchi talaba (o'quvchi)larni kompozitor ijodi bilan tanishtirishni maqsad qilgan bo'lsa, uning hayot yo'li, alohida biografik ma'lumotlari va faktlari; kompozitorning ijodiy yo'li, ijodiy yutuqlari va uni turli jihatdan tavsiflovchi asarlar vositasida taqdimot qilinishi maqsadga muvofiq. Dars oxirida xulosa chiqarish va nazorat savollariga javob berishni yoki topshiriqni bajarishni taklif qilishimiz mumkin [90].

Oliy musiqa ta'limida hamkorlikdagi yoki guruhiy ta'lim ma'lum ijobiy ahamiyatga egadir, chunki, ta'limning bu shakli nafaqat o'quv jarayonini faollashtirishga, balki talaba (o'quvchi)lar bilan, balki, o'qituvchining talaba (o'quvchi)lar bilan faol pedagogik ishlashini shakllantirishni ta'minlaydigan ijodiy muhitni yaratishga imkon beradi [50].

Masalaning dolzarbligini belgilaydigan bir nechta sabablarni ko'rsatish joiz. Bular: ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samarali hamkorlik qilish, tengdoshlari bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyati demokratik jamiyatda hayotga tayyorgarlikni amalga oshirishga ko'maklashadi.

Hamkorlik ko'nikmalari uzluksiz musiqa ta'limi tizimining barcha bo'g'inlarida o'zlashtirilishi, uzluksiz musiqa ta'limi tizimining dastlabki bo'g'inlaridan to oliy ta'limgacha musiqiy muloqot kompetensiyasini shakllantirish, fikr va so'z, amaliy ijro orqali ishontirish, o'z nuqtai nazarini mohirlik bilan himoya qilish ko'nikmalarini tarbiyalash zarur.

Badiiy-estetik, ayniqsa musiqa ta'lim tizimidagi muammolarni tahlil qilib, musiqa o'qitish bilan bevosita bog'liq qator obyektiv va sub'yektiv muammolarni ajratib ko'rsish mumkin. Bular: shaxsni ma'naviy tarbiyalashning global vazifalarini belgilash va ta'lim olish vaqtini minimallashtirish o'rtasidagi ziddiyat, bir tomondan mumtoz musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishning ma'lum darajada pasayishi, ikkinchi tomondan, ommaviy madaniyatga qiziqishning kuchayishi, bu ko'pincha musiqa ta'limining ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlariga hamisha ham javob bermayotganligi, talaba (o'quvchi)larning qizg'in intellektual faoliyati tufayli musiqa san'atini emotsional idrok etish darajasining yuksalishidir.

Shunday qilib, sanab o'tilgan psixologik-pedagogik muammolar musiqani o'qitishga yondashuvdagi vaziyatni ochib beradi va uni hal qilishda guruhiy yoki jamoada o'qitish usullaridan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlaydi.

Talabalar guruh ishini o'quv auditoriyasida ishlashning eng ustuvor shakli deb bilishadi. Ularning fikricha, jamoaviy faoliyatlarda hamkorlik imkoniyatlari rivojlanadi, jamoada ishlash qobiliyati, faol va ongli faoliyat rag'batlantiriladi.

3. Modulli va masofaviy ta'limning musiqiy rivojlanishni amalga oshirishdagi imkoniyatlari.

Modulli ta'lim - o'quv ma'lumotlarining blok-modulli taqdimoti asosida o'quv jarayonini tashkil etish usulidir [107]. Modulli ta'limning mohiyati shundan iboratki, o'qitish mazmuni mustaqil tashkiliy-metodik bloklarga - modullarga ajratiladi. Ularning mazmuni va hajmi didaktik maqsadlarga, o'quv kursini o'zlashtirishning individual traektoriyasiga ega bo'lgan holda talaba (o'quvchi)larning kasbiy yo'nalganligi va bilim darajalari farqlanishiga, o'quv jarayonini tanlash istagiga qarab o'zgarishi mumkin [108].

Modullarning kombinatsiyasi talabalarning ma'lum bir toifasini o'qitish va maxsus didaktik, kasbiy maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aniq o'quv materialini tanlash hamda to'ldirishda zarur moslashuvchanlik va erkinlik darajasini ta'minlashi lozim. Modulli o'qitishning zaruriy elementi bilimlarni baholashning reyting tizimi bo'lib, u har bir modulni o'rganish natijalari bo'yicha talabalarni baholashni nazarda tutadi.

Modul – o'zlashtirilishi lozim bo'lgan ko'nikma, bilim, malaka va tajribaning yaxlit majmui bo'lib, modulni o'zlashtirishni yakunlagandan so'ng talaba bajarishi kerak bo'lgan talablar ko'rinishida tavsiflanadi va umumiy yaxlit funksiyaning ajralmas qismini ifodalaydi. Har bir modul yakunida talaba baholanadi [109].

Modullar fanlar bo'yicha o'quv dasturining tarkibiy birligi sifatida, shuningdek, tashkiliy va uslubiy fanlararo tuzilma sifatida, ma'lumotlar bazasida tematik asosda birlashtirilgan turli fanlar bo'limlarining to'plami shaklida va o'quv fanlari doirasida tashkiliy-metodik tarkibiy bo'linma sifatida shakllantiriladi. Ushbu tamoyil asosida tayyorlangan o'quv-uslubiy majmualar namunalari sifatida zamonaviy til bo'yicha darsliklarni keltirish mumkin.

Bugungi kunda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot shakli o'zgarib bormoqda, bu modullar vositasida va shaxsiy muloqot orqali amalga oshiriladi. Modulli o'qitishning xarakterli xususiyatlari. O'qitish mazmuni ma'lumotlar blokida taqdim etiladi va maqsadga muvofiq tarzda o'zlashtiriladi. Didaktik maqsad talaba uchun tuziladi va nafaqat o'rganilayotgan materialning mazmuni hajmini, balki, uni

o'zlashtirish darajasini ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, har bir talaba o'qituvchidan qanday qilib oqilona harakat qilish kerakligi, kerakli o'quv materialini qaerdan topish va hokazolar bo'yicha yozma maslahatlar olishi mumkin.

Modulli ta'limda talaba maksimal darajada mustaqil ravishda ishlaydi, o'z-o'zini rejalashtirish, o'zini-o'zi tashkil etish, o'zini-o'zi boshqarish va o'zini-o'zi baholashni o'rganadi. Bu unga faoliyatda o'zini anglashi, bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlashi, bilim va ko'nikmalaridagi kamchiliklarni ko'rish imkonini beradi. Bosma asosdagi modullarning mavjudligi o'qituvchiga talabalar bilan ishlashni individuallashtirishga imkon beradi.

Modulli (yoki blokli) ta'lim – o'qitish tizimi amaliyotiga tubdan o'ziga xos yangicha yondashuv bo'lib, unda yaxlit birta modul yoki blokda 2–3 ta o'zaro bog'langan fanlar o'rganiladi. Bu talabaga dasturni to'liqroq o'rganish imkonini beradi [109].

Modul texnologiyasini J.Rassel yaratgan bo'lib, ushbu tizim har bir mavzuni o'rganish uchun keng, personal imkoniyatlarni ta'minlaydi. Ya'ni, shu shaklda ishlab, bitta fanni bir necha hafta, bir necha oy yoki butun yil davomida o'rganish mumkin, bunda ta'limiy ma'lumotlar modullarga kiritiladi [110]. Modul - o'quv dasturining bir qismi, axborot bloki bo'lib, o'zida mavzuning nazariy qismini, mashqlar bajarish imkoniyatni, nazorat testlari va topshiriqlarini, o'z-o'zini tekshirish va o'zaro tekshirish kalitlarini ifodalagan majmuadir.

Shunday qilib, modulli ta'limda umumiy mavzu doimiy ravishda aniq savollar orqali o'zlashtirib boriladi. Modulli tizim an'anaviy tizimdan nimasi bilan farq qiladi? Quyida modul tizimining afzalliklari qiyosiy jadvalda tahliliy ifodalangan (6-rasmga qaralsin).

Modulli o'qitish tizimi	An'anaviy o'qitish tizimi
Ta'lim oluvchilarga individual yondashuv amalga oshiriladi	O'rtacha darajadagi ta'lim oluvchiga mo'ljallangan
Ma'lum davrda 3-4 ta fan o'qitiladi	Barcha fanlar birdaniga o'qitiladi

Bir mavzuga bir necha kunlar sarflanadi	O'rganiladigan mavzular har darsda yangilanadi
Takrorlanmasligi sababli fanlar tezroq o'zlashtiriladi	Alohida olingan fan o'quv yili davomida o'zlashtiriladi
Fanni chuqur o'zlashtirish, bilimlar uzoq muddatli xotirada muhrlanadi	Bilimlar ham operativ, ham uzoq muddatli xotirada muhrlanadi

6-rasm. Modulli va an'anaviy o'qitish tizimi.

Modulli o'qitishning ikkita varianti mavjud, bular bir fanga chuqur kirib borish va ikki yoki uchta o'zaro bog'liq fanlarni (masalan, matematika va fizika, rus tili va adabiyoti) o'rganishdan iborat. O'qituvchining roli. Modulli o'qitishning asosiy tamoyili mustaqil faoliyatdir, shu bois, asosiy vaqt talabaning mustaqil faoliyatiga ajratiladi, faqat ayrim holatlarda o'qituvchining ishtiroki talab qilinadi, xolos.

O'qituvchi esa ta'lim faoliyatini muvofiqlashtiradi, taklif beradi, ko'maklashadi, yo'naltiradi, zarurat bo'lsa mavzuni qo'shimcha ravishda tushuntiradi hamda mashq qilish imkoniyatini yaratadi. Modulli ta'limda hamma bir xil modullarni o'rganadi. Agar bir nechta turdosh fanlar tanlangan bo'lsa, ular har kuni yoki har haftada kunlarini almashtirgan holda o'rganilishi mumkin.

Mashg'ulotlar an'anaviy ta'limda bo'lgani kabi, hamma uchun bir xil bo'lishi, shuningdek, talaba (o'quvchi)ga tematik vazifalar to'plamidan mashqlar tanlab, taqdim etish mumkin. Dars motivatsion, ya'ni, o'qituvchi mustaqil faoliyatga undaydigan suhbat o'tkazadi, keyingi faoliyatni bajarishga ko'rsatma beradi, modulli, ya'ni bloklar bilan ishlash, mavzu mohiyatiga kirib borish va refleksiya, ya'ni, talabalar o'zlarining o'quv mashg'ulotidagi natijadorligi darajasini baholaydilar. O'qituvchi modul bilan ishlash natijalariga ko'ra uyda bajariladigan topshiriqlarni taklif etadi.

Modulli ta'limning afzalliklariga har bir mavzuga maksimal darajada e'tibor berilishini, diqqatni jamlash va fikrni bir mavzudan boshqasiga o'tkazmasdan ishlashni, ishini, o'tgan mavzuni doimiy takrorlashning hojati yo'qligini kiritish

mumkin.

Masofaviy ta'lim texnologiyalari hayotimizga tobora ko'proq kirib kelmoqda va strategik ta'lim muammolari bo'yicha mutaxassislar masofaviy ta'lim shaklini XXI asrning ta'lim tizimi deb atashadi. Oliy musiqa ta'limida, kadrlar malakasini oshirish va kasbiy qayta tayyorlash tizimida, o'z-o'zini o'qitish jarayonida, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar va chekka hududlarda yashovchilarni o'qitish jarayonida masofaviy ta'limdan foydalanish nihoyatda o'rinlidir [20].

O'qitishning yangi texnologiyalarini yaratish ularni oliy musiqa ta'limida musiqa o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qo'llash masalasida muammolar yo'q emas. Yaqin yillargacha **Moodle** dasturidan asosiy o'quv platformasi sifatida foydalanib kelindi, uning elementlari oliy musiqa ta'limining o'quv jarayonida qo'llanildi va bunday sharoitlarda masofaviy ta'lim imkoniyatidan ma'lum darajada foydalanildi. Bundan tashqari, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi masofaviy formatda o'zaro pedagogik kommunikatsiyani tashkil qilish uchun barcha mumkin bo'lgan resurslar jalb qilindi: shaxsiy kompyuterlar, planshetlar, Internetga ulangan mobil telefonlar va h.k..

Talabalar o'qituvchilardan elektron pochta orqali yoki messenjerlar (**WhatsApp**, **Viber**, **Skype** va boshqalar) yordamida topshiriq va uslubiy ko'rsatmalar oladi, **Zoom** platformasi yordamida virtual makonda talabalar bilan bevosita muloqot o'rnatiladi.

Oliy ta'limda professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan masofaviy ta'limning individual shakllari va usullarini qo'llash xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Bular, birinchi navbatda, ma'ruza, topshiriq, test, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, shuningdek, **offline** va **online** maslahatlar kabi elementlardir. Masofaviy o'qitish quyidagi ijtimoiy ahamiyatli masalalarni yechishga ta'sir etishi lozim:

- ▶ ta'lim xizmatlarida aholining ehtiyojini amalga oshirish;
- ▶ sifatli tayyorlangan mutaxassislar bilan davlat ehtiyojlarini qondirish;
- ▶ aholining ijtimoiy va professional harakatchanligini oshirish;
- ▶ ijtimoiy faolligi, o'zligini anglashi, tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish;

► davlatimizning oliy maktablarida yig‘ilgan bilimlar hamda kadrlarning moddiy salohiyatini saqlash va ko‘paytirish;

► butun jahon hamjamiyati chegarasida ta‘lim fazosining har bir nuqtasida nostrifikatsiyalangan ta‘lim olish imkoniyatini ta‘minlashni o‘z ichiga olgan yaxlit ta‘lim fazosini rivojlantirish;

► geosiyosiy masalalarni yechish va boshqalar [59, 81].

Ko‘pgina musiqa fanlari amaliyotga qaratilgan yo‘nalishga ega, shuning uchun ularning rivojlanishi asosan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari shaklida amalga oshiriladi. Ularning mazmuni maxsus kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. **Moodle** tizimida ishlaydigan professor-o‘qituvchilar odatiy amaliy topshiriqlarning agar ular fan dasturida nazarda tutilgan bo‘lsa tahlilini taqdim etadilar, ularni amalga oshirish bo‘yicha topshiriqlar va tavsiyalar ishlab chiqadilar, darsning tegishli bo‘limlarida musiqa asarlarining ijrosi bo‘yicha sharhlar joylashtiradilar. Masofaviy ta‘lim texnologiyalari musiqani individual o‘qitishning an‘anaviy “ustoz-shogird” shaklida masofadan turib amalga oshirish imkonini beradi.

Videomaterialni izohlar bilan yozib olish usuli o‘zining sifati va audioni yetkazib berish jihatidan samarali hisoblanadi. Dars uchun ijroning videoyozuvini tayyorlashda, talaba ijro sifati bo‘yicha ko‘p harakat qiladi, o‘z talabiga to‘liq javob beradigan variantga erishmaguncha tinmaydi va shu bilan o‘zini-o‘zi nazorat qilish darajasini oshiradi. Boshqa tomondan, o‘qituvchi ijroni to‘xtatmasdan, o‘z fikrini bildirishda talaba tomonidan asarning ijro etilishi sifati tafsilotlarini diqqat bilan tinglash, ayrim parchalarni tinglash, yozuvni to‘xtatib fikr bildirish imkoniyatiga ega. Shu asosda talaba keyinchalik o‘qituvchining yozib olingan izohlarini tahlil qilib o‘z faoliyatini korrektsiyalashi, ustozni ko‘mapgida sifatli ijroga erishishi mumkin.

Talaba o'qituvchining ko'rsatmalarini eslab qolish va uni bajarish maqsadida nota yozuvlari to'g'risida "eslatma" tarzida yozib qo'yishi mumkin. O'qituvchi o'z navbatida, individual ijro epizodlarini ko'rsatadigan yozib olingan videolarni talabalarga yuborishi mumkin. Ushbu ish usuli nihoyatda samarali, lekin ayni paytda o'qituvchi va talaba nisbatan ko'p energiya sarflashiga to'g'ri keladi.

Albatta, individual ijrochilik fanlarini masofaviy o'qitish, o'qituvchining qaysi aloqa platformasini tanlashidan qat'i nazar, cholg'u sozi va ovozning sezilarli o'zgarishlari bilan ("suzuvchi", asl tembrni to'liq aks ettirmaydigan tovush, o'zgargan pedallashtirish kabilar) bog'liqdir. Ba'zan, uy sharoitida talabaning akustik pianinosi yomon sozlangan bo'lishi, boshqa hollarda asarlar raqamli elektron pianino yoki hatto klavishli sintezatorda ijro etilishi kabi omillarning barchasi o'z-o'zidan juda muhim bo'lib, o'qituvchi tomonidan talaba ijro etgan asarlarni tinglab, ularni obyektiv baholashi muhimdir.

Ta'kidlash joizki, vokal yoki cholg'u ijroning videoyozuvlari bugungi kunda mamlakatimiz va xalqaro musiqa tanlovlarida keng qo'llanilmoqda va baholanmoqda. Onlayn tingashlar kamdan-kam hollarda va faqat ishtirokchi ijrochilarning ijrolarini translyatsiya qilish uchun professional uskunalardan foydalanilganda qo'llaniladi.

Masofaviy ta'lim tizimining muhim elementi mustaqil ishlardir. O'qituvchi ma'lum mavzularni o'rganish ketma-ketligining metodik tavsifini, mavzuni o'zlashtirish uchun zaruriy adabiyotlar ro'yxatini taqdim etadi (talabalar uchun ushbu manbalar birinchi navbatda elektron kutubxona tizimida mavjud bo'lishi kerak), bunda har bir fanning o'quv dasturida ko'rsatilgan kompetentsiyalar ko'rsatkichi doirasida o'quv topshiriqlar tuzilishi, uni ishlash algoritmi tavsiflanishi va topshirish muddatlari belgilanishi lozim.

Talabalar amaliy topshiriqlarni bajaradilar, ma'ruza materiallarini, mavzu bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni o'zlashtiradilar, musiqa asarlarini tinglaydilar va ijro yo'llarini o'rganadilar, agar kerak bo'lsa, onlayn yoki mobil telefon vositasida ustozlariga murojaat qiladilar. Talabalar bajarilgan topshiriq materiallarini istalgan formatda (matn shaklida, fayl, audio yoki video yozuvlar

shaklida) joylashtirishlari mumkin. Bu, ayniqsa, maxsus musiqa fanlarini o'rganish uchun qulay, chunki topshiriqlarni bajarishda ko'pincha talabalarning ijro etgan musiqiy parchalari va yaxlit asarlar yozuvlarini ijro etib, topshirish kerak bo'ladi.

Test sinovlari talabaning ma'lum fanni o'zlashtirish sifatini joriy va oraliq nazorat qilish shakllaridan biridir. Masofaviy ta'lim sharoitida test topshiriqlarining mazmuniga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Ular imkon qadar fanning yaxlit mazmuni va mohiyatini aks ettirishi, shakl jihatdan rang-barang bo'lishi va turli muammoli masalalarni o'z ichiga olishi lozim.

Bo'lajak oliy musiqa ta'limi o'qituvchilarining musiqiy-tarixiy fanlarni o'rganishida ularning bilimlarini nazorat qilishning o'ziga xos shakllaridan biri bu **Zoom** dasturi orqali tashkil etiladigan treninglar va viktorinalardir. Talabalar elektron pochta orqali oldindan yozib olingan audio fayllarni trek tavsiflari bilan olishlari mumkin. Viktorina davomida asarlarning musiqiy parchalari tasodifiy tartibda **WhatsApp**-ga yuborish orqali efirga uzatiladi. Talabalar musiqa asarlari raqamlarini qabul qilib, tinglashadi, har bir tinglangan asarga tegishli sonni aniqlab, ularning ro'yxatini tuzgandan so'ng, o'qituvchining buyrug'i bilan **WhatsApp**-dagi o'qituvchining shaxsiy elektron pochta-siga javob xabari yuboradilar, unda tinglangan asarlari mualliflari va asarlar nomlari ko'rsatilishi kerak.

Oliy musiqa ta'limi jarayoniga masofaviy ta'lim elementlarini joriy etish magistratura bitiruvchisi hamda zamonaviy talablarga javob beradi: ya'ni, ushbu jarayonda magistrant axborotni mustaqil ravishda topishi, qayta ishlashi va undan foydalanishi, kompyuter texnologiyalarini mukammal bilishi, muayyan dastur va platformalardan ishonchli foydalana olishi muhimdir. Bir necha yil oldin musiqani masofadan turib o'rgatish mumkinligini hech kim tasavvur ham qila olmasdi, ammo zamonaviy voqeliklar uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lib ko'ringan va tanish bo'lgan o'qitish usullariga ma'lum tuzatishlar kiritishni talab qilmoqda.

Yangi masofaviy texnologiyalardan foydalanish jarayonida musiqa fanlari o'qituvchilari faoliyatini qayta ko'rib chiqish ushbu mavzu bo'yicha qator zamonaviy uslubiy nashrlar va ilmiy maqolalar paydo bo'lishiga asos bo'lganligini ta'kidlash o'rinlidir.

Shubhasiz, masofaviy ta'lim texnologiyalari professional musiqa ta'limida foydali bo'lishi mumkin, chunki, ular uzluksiz ta'lim jarayonini tashkil etish, talaba (o'quvchi)larning mustaqil ishlash ko'nikmalarini va axborot muhitida ishlash qobiliyatini rivojlantirish, axborot manbalarini topish, yuklab olish va ulardan foydalanish, o'z-o'zini istiqbolda rejalashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Masofaviy ta'lim - bu o'quv mashg'ulotlarining barchasi yoki ko'p qismi zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o'qitishdir [5, 125].

Masofaviy ta'limdan foydalanishning ko'pgina afzalliklari mavjud. Jumladan, o'quv topshiriqlarini bajarishda talabalarning shaxsini aniqlash muammosi to'liq hal qilinmagan, yuqori sifatli Internet aloqasi, telefon liniyalari hamma hududlarda ham mavjud emas va masofaviy o'qitish kurslarini ishlab chiqish ancha murakkab tadbir sanaladi. Bundan tashqari, masofaviy ta'lim talaba va o'qituvchi o'rtasidagi "jonli" muloqotni to'liq almashtira olmaydi.

To'g'ridan-to'g'ri emotsional aloqa va ta'sir ko'rsatishning faol usullari talabalarda darslarga qiziqish va musiqiy o'quv faoliyati natijalaridan qoniqishni shakllantirishga yordam beradi va o'qituvchining birgalikdagi ijodiy faoliyati jarayonida musiqiy qobiliyat va ijro mahoratini rivojlantirish samarali amalga oshirilishi mumkin. Shu bois masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish optimal, pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq bo'lishi va musiqa ta'limida shakllangan o'qitishning an'anaviy shakl va uslublari bilan albatta uyg'unlashgan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Nega ijrochi musiqachi tayyorlashda masofaviy shaklning tarqalishi bahsli va muammoli deyiladi? Avvalo, "ma'qul" va "qarshi" kabi u yoki bu nuqtai nazar ta'lim dasturlari mazmuniga bevosita murojaat qilish orqali shakllanadi. Ulardan ba'zilari haqiqatan ham masofaviy shaklda amalga oshirilishi mumkin, boshqalarining esa imkoni cheklangan [111]. Masalan, musiqa tarixi, nazariyasini o'rganish, bastakor ijodini tahlil qilish, kompyuter musiqa texnologiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq musiqiy-ma'rifiy xarakterdagi ta'lim dasturlarida masofaviy ta'limdan foydalanish

imkoniyati mavjud. Bunda qator innovatsion ta'lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi aniq.

Jumladan, guruhli va individual onlayn-vebinarlar, onlayn-mahorat darslari, onlayn-forumlarda muhokamalar, onlayn-test topshiriqlarini bajarish va h.k. Elektron kutubxona tizimlarining axborot resurslariga tayangan holda aytish lozimki, bu shakldagi turli ta'limiy va axborot kanallari, multimedia texnologiyalari o'z afzalliklarini namoyon etish imkoni bor, ularning interfaol ishtirokidan foydalangan holda ko'p bosqichli virtual makonda taqdimotlar, masofaviy formatdagi o'quv jarayonini tashkil etish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, musiqachi-pedagogni va musiqachi-ijrochini tayyorlashga qaratilgan masofaviy shakldagi professional dasturlarni, ya'ni, individual-amaliy komponent bilan jihozlangan professional dasturlarni uchratish qiyin. Ammo bu holatning sabablarini nafaqat yuqorida aytib o'tilgan amaliy harakatlarni takrorlovchi dasturlarning yuqori narxi bilan bog'liq obyektiv sharoitlardan, balki, masofaviy texnologiyalarni o'zlashtirishdagi murakkabliklardan izlash lozim bo'ladi.

4. Musiqa ta'limida dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari.

Dasturlashtirilgan ta'lim 1954 yilda professor B.F.Skinner tomonidan ilgari surilgan va ko'plab mamlakatlar mutaxassislari, olimlarning ishlarida ishlab chiqilgan o'qitish usulidir (Berres Frederik Skinner (1904-1990) - amerikalik psixolog, ixtirochi va yozuvchi) [112].

Dasturlashtirilgan ta'lim - bu o'qituvchi va talaba (o'quvchi)larning faoliyati amalga oshiriladigan va nazorat qilinadigan aniq vazifalarning ma'lum ketma-ketligidir. Dasturlashtirilgan ta'lim konsepsiyasi zamonaviy kompyuter o'qitish tizimlarining asosi bo'lib xizmat qildi. Dasturlashtirilgan ta'limning zamirida talaba (o'quvchi)lar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishni maqsadli boshqarish, axborot bilan ta'minlash va individuallashtirishga asoslangan jarayon sifatida o'rganish borasidagi g'oyalar yotadi (106).

Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi - bu maxsus vositalar (elektron darslik, kompyuterlar) yordamida oldindan ishlab chiqilgan o'quv dasturi bo'yicha mustaqil va individual ta'lim texnologiyasidir. Dasturlashtirilgan ta'limda o'rganish yaxshi

boshqariladigan jarayon sifatida amalga oshiriladi, chunki unda o'rganilayotgan material kichik, yengil o'zlashtiriladigan qismlarga bo'linadi. Ular o'zlashtirish uchun talaba (o'quvchi)ga ketma-ket taqdim etiladi. Har bir qismni o'rganib chiqqandan so'ng, o'zlashtirilganlik tekshiruvini o'tkazish talab etiladi.

Bu o'zlashtirishning taqdim etish, o'zlashtirish va tekshirish kabi qadamlarini tashkil etadi. Dasturlashtirilgan ta'lim uchun o'quv materialini maxsus qayta ishlash jarayoni - dasturlash deb ataladi. Dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasini amalga oshirishning asosiy vositasi o'rgatuvchi dasturlar hisoblanadi. U ma'lum bilim birligini o'zlashtirish uchun harakatlar ketma-ketligini belgilaydi.

Rivojlantiruvchi ta'limning maqsadi o'quvchining o'zini-o'zi o'zgartirishga qiziqqan va bunga qodir sub'ektga aylanishi rivojlanish jarayonining asosiy mazmunidir. Bunday rivojlanish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash - rivojlantiruvchi ta'limning asosiy maqsadidir. Rivojlantiruvchi ta'lim g'oyasi shundan iboratki, ta'lim bolaning rivojlanishidan oldinda borishi kerak, rivojlantiruvchi ta'limning asosida bola turadi, egallanadigan bilimlar bolani rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Rivojlantiruvchi ta'lim bu - rivojlanishdan oldinda boradigan ta'limdir.

Dasturlashtirilgan ta'lim konsepsiyasining maqsadi - kibernetik yondashuv asosida o'quv jarayonini boshqarish samaradorligini oshirishga intilishdan iboratdir [68]. Kibernetik yondashuv deganda - kibernetika tamoyillariga asoslangan tizim - tabiat, jamiyat, tirik organizmlar va mashinalarni boshqarishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fan, dinamik tizimlarni boshqarish bilan bog'liq axborot jarayonlarini o'rganish tushuniladi. Dasturlashtirilgan ta'lim 2 yo'nalishda amalga oshiriladi:

1) Dasturlashtirish deganda o'quv materialini o'rganishning har qanday dastur emas, balki dasturlashtirishning kibernetik va matematik qoidalari yoki shartlariga muvofiq dasturiga tushuniladi.

2) Elektron o'quv adabiyotlaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etish va bilimlarni o'zlashtirish.

Dasturlashtirilgan ta'lim ma'lum fan yuzasidan dastur hajmida ilmiy bilim berish va shu bilimlarga bog'liq holda tegishli ko'nikma hosil qilishga qaratilgan

mashqlar, misollar va masalalar ishlatish, ishlangan masala yoki savollarning javoblarini to'g'ri yoki noto'g'riligini talaba (o'quvchi)lar tomonidan tekshirib ko'ra olish imkoniyatlarini yaratadi. O'zlashtirilgan bilim va malakalarni bir tartibga tushirishga yordam beradi.

Dasturlashtirilgan o'qitish metodlari o'quv materialini element bo'yicha nazorat qilishni, o'qitishni imkoniyati boricha individuallashtirishni, bilimlarni egallashning individual sur'atini hisobga olishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Dasturlashtirilgan ta'lim maxsus ishlangan darslik va metodik qo'llanmalar vositasida olib boriladi. Bunda darsliklarda ayrim o'quv fanining alohida qismlaridagi mavzu yuzasidan ma'lumotlar berilgan bo'ladi [68].

Bunda ham mashq uchun topshiriqlar, o'zlashtirilgan bilimlarni amalda masala va misollar yechishda mehnat jarayonida qo'llay olishlari, o'zi bajargan vazifalarning to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirib ko'ra olishlari uchun yo'llanmalar berilgan bo'ladi. Garchi talaba (o'quvchi) topshiriqni bajara olmasa yoki xato qilsa, o'sha joydan, ya'ni, o'rganilishi lozim bo'lgan materialning o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan o'rnidan boshlab qay darajada ish ko'rish lozimligi ko'rsatilgan bo'ladi.

Bunday elektron darsliklar talaba (o'quvchi)larning mustaqil ishlari uchun juda muhimdir. Elektron darslikda materiallar shunday taqsimlanadiki, unda berilgan materiallar qismlarga bo'lib ko'rsatiladi va har qaysi talaba (o'quvchi) tomonidan bajarilishi bilanoq o'zini-o'zi tekshirib ko'rish imkoniyati beriladi. Shu yo'sinda topshiriqlar borgan sari murakkablashib boradi.

Dasturlashtirilgan matnlar bilimlarni o'zlashtirishni muayyan mantiqiy yo'lini vujudga keltiradi. Ammo bu yo'l faqat ma'lum material uchun xarakterlidir, ya'ni, ta'lim uslubi materialni mazmuniga bog'liqdir. Mazmun o'zgarsa, axborot berish va o'z-o'zini nazorat qilish usullari ham o'zgaradi. Uni bilimlarning ayrim tarkibiy qismlari bo'lishi mumkin bo'lgan mavzularni o'rganishda, chunonchi, turli fanlarga doir masalalarni fanda qaror topgan tizimlar haqida ma'lumot beruvchi materialni o'rganish vaqtida qo'llash mumkin.

Pedagog shuni nazarda tutishi kerakki, dasturlashtirilgan matnlarda aqlni o'stirish dasturi emas, balki o'quv materialini o'rganish dasturi berilgan. Shuning

uchun bu metoddan foydalanishda ham uning kamchiliklarini hisobga olish .nazarda tutiladi.

Dasturlashtirilgan ta'limning mazmuni davlat dasturi asosida belgilanadi. U ma'lum fan yuzasidan dastur hajmida ilmiy bilim berish va shu bilimlarga bog'liq holda tegishli ko'nikma hosil qilishga qaratilgan mashqlar, misollar va masalalar ishlatish, ishlangan masala yoki savollarning javoblari to'g'ri yoki noto'g'riligini talaba (o'quvchi)lar tomonidan tekshirib ko'ra olish imkoniyatlarini yaratadi. O'zlashtirilgan bilim va malakalarni bir tartibga tushirishga yordam beradi.

Dasturlashtirilgan o'qitish metodlari o'quv materialini element bo'yicha nazorat qilishni, o'qitishni imkoniyati boricha individuallashtirishni, bilimlarni egallashning individual sur'atini hisobga olishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi.

Darslikda materiallar shunday taqsimlanadiki, unda berilgan materiallar qismlarga bo'lib ko'rsatiladi va har qaysi talaba (o'quvchi) tomonidan bajarilishi bilanoq o'zini-o'zi tekshirib ko'rish imkoniyati beriladi. Shu yo'sinda topshiriqlar borgan sari murakkablashib boradi.

Musika o'quv mashg'ulotlarida faol va interfaol metodlarni, hamkorlikda, jamoada va kichik guruhlarda o'qitish texnologiyalarini, shuningdek, modulli, masofaviy va dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'quv mashg'ulotlarining yanada qiziqarli hamda natijador bo'lishiga shart-sharoit yaratadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Musika o'quv mashg'ulotlarida faol va interfaol metodlarni qo'llash.
2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari.
3. Jamoada o'qitish texnologiyalari.
4. Kichik guruhlarda o'qitish texnologiyalari.
5. Modulli ta'limning musiqiy rivojlanishni amalga oshirishdagi imkoniyatlari.
6. Masofaviy ta'limning musiqiy rivojlanishni amalga oshirishdagi imkoniyatlari.
7. Musika ta'limida dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari.

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Interaktiv (interfaol) soʻzining lugʻaviy maʼnosi.

- A) Birgalikdagi faoliyat
- B) Birgalikda anglash
- V) Birgalikda tasavvur qilish
- G) Birgalikda koʻrish.

2. Interfaol taʼlimning asosini nima tashkil etadi?

- A) Interfaol metodlar asosida darsni tashkil etish va olib borish
- B) Aralash darslar asosida olib borish
- V) Interfaol metodlardan qisman foydalanish
- G) Oʻqituvchi va talabalarning birgalikdagi hamkorligi.

3. Interfaol metodlar qanday natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi?

- A) Ruhiy va jismoniy koʻp kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish
- B) Qisqa vaqt ichida malaka hosil qilish
- V) Maʼnaviy sifatlarni shakllantirish
- G) Ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, bilimlarni nazorat qilish.

4. Hamkorlikda oʻqitish strategiyasi - bu ...

- A) Oʻqituvchi tomonidan taʼlim oluvchilarning oʻzaro tushunish asosida kognitiv qiziqishlarini ragʻbatlantirish
- B) Koʻrgazmalilik asosida darsni tashkil etish
- V) Individuallashtirilgan dars shakli
- G) Passiv oʻqitish shakli.

5. Modulli taʼlim - bu ...

- A) Blok-modulli taqdimot asosida oʻquv jarayonini tashkil etish usuli
- B) Multimedia asosidagi dars
- V) Texnologik xarita asosida darsni tashkil etish
- G) Oʻquv maʼlumotlarini qiziqarli shaklda taʼlim oluvchilarga yetkazish usuli.

6. Modul texnologiyasi fanga kim tomonidan kiritilgan?

- A) J.Rassel

- B) A.Gonobolin
- V) N.Saidaxmedov
- G) V.Slastyonin

7. Dasturlashtirilgan ta'limning asoschisi.

- A) B.Skinner
- B) G.Gelmgols
- V) N.Krouder
- G) N.Talizina.

Seminar mashg'ulotlari uchun mustaqil ish topshiriqlari

1. Musiqa o'quv mashg'ulotlarida qaysi faol metodlarni qo'llash mumkin, 4 ta faol metodni tahliliy tavsiflang.
2. Musiqa o'quv mashg'ulotlarida qaysi interfaol metodlarni qo'llash mumkin, 4 ta interfaol metodni tahliliy tavsiflang.
3. Modulli ta'lim xususiyatlarini yozma tushuntiring.
4. Masofaviy ta'lim xususiyatlarini yozma tushuntiring.
5. Musiqa ta'limida dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalarini qay tarzda qo'llash mumkin, misol orqali ifodalang.

Pedagogik mahorat va uning o'qituvchi kasbiy faoliyatida namoyon etilishi xususiyatlari.

Reja:

1. Pedagogning shaxsiy, kasbiy, psixologik va pedagogik xususiyatlari.
2. O'qituvchining pedagogik mahorati va uning tarkibiy qismlari.
3. Oliy musiqa ta'limi pedagogining didaktik qobiliyatlari.
4. Interfaol mashg'ulotlarni tashkil etishda oliy musiqa ta'limi pedagogining kasbiy mahorati.

Tayanch tushunchalar: shaxsiy, kasbiy, psixologik xususiyatlar, pedagogik mahorat, didaktik qobiliyatlar, kasbiy mahorat.

Asosiy adabiyotlar

1. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 136 b.
2. Реан А.А. Социальная педагогическая психология / А.А.Реан, Я.Л.Коломинский. СПб., 1999. - 343 с.
3. Raximov O.D., Turg'unov O.M., Mustafayev Q.O., Ro'ziyev H.J. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. - T.: Fan va texnologiya, 2013. - 200 b.
4. Сламбекова Т., Агзамова Г. Профессионально-личностные качества будущих педагогов. <http://oldconf.neasmo.org.ua/node/1951>
5. Qosimova Z.H. Ta'lim texnologiyalari (pedagogik mahorat). O'quv qo'llanma. Toshkent, 2014. - 203 b.

Elektron manbalar

1. <https://xn--e1aogju.xn--p1ai/schema/14688-klassifikacii-pedagogicheskikh-sposobnostei-v-a-kruteckii.html>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/distantsionnaya-forma-obucheniya-v-dopolnitelnom-professionalnom-obrazovanii-muzykanta-ispolnitelya>
3. <https://bigenc.ru/c/skinner-berres-frederik-36c076>

1. Pedagogning shaxsiy, kasbiy, psixologik va pedagogik xususiyatlari.

O'qituvchining shaxsiy xislatlariga bolalarni yaxshi ko'rishi, amaliy-psixologik aql-farosatlilik, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik, mehribonlik, kamtarlik, odamiylik, mustahkam xarakterga ega bo'lish, o'z bilimini oshirishga intilish kabilar kiradi.

Kasbiga xos bilimlariga esa, ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi, hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi, maktab yoshida bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi kiradi.

Shaxsiy pedagogik uddaburonligiga dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi, talaba (o'quvchi)larning bilish faoliyatini boshqara olishi, o'quv maqsadlarini rejalashtira olishi, o'zining talim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi kiradi. Tashkilotchilik malakalariga turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi, bolalarni qiziqtirib, ularni faollashtira olishi, amaliy masalalarni hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez hallay olishi kiradi.

Kommunikativ malakalariga bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tashkil eta olishi, bolalarning jamoalararo va jamoa ichida o'zaro munosabatlarni tartibga solishni bilishi kiradi. Gnostik malakalariga o'quvchilarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi, o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, boshqa o'qituvchilarning tajribalarini o'rganib, undan to'g'ri xulosa chiqara olishi, talaba (o'quvchi)larni to'g'ri tushunib, ularning xulq-atvor sabablarini tushuntirishni bilishi kiradi.

Ijodiy xislatlariga pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilishi, talaba (o'quvchi)larni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati, o'zini talaba (o'quvchi) o'rniga qo'yib, bo'lib o'tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi, o'zining pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra bilishga intilishi kabilar kiradi.

Pedagogik qobiliyatlar kishining pedagogik faoliyatta yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishi imkoniyatini beradi. Didaktik qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi zarurat tug'ilganda qiyin o'quv materialini osonroq, murakkabrog'ini soddaroq, tushunishi qiyin bo'lganini tushunarliroq qilib talaba (o'quvchi)larga moslashtirib bera oladi. Perseptiv qobiliyatlar talaba (o'quvchi)ning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, talaba (o'quvchi) shaxsining psixik holatlari bilan bog'liq tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir.

Nutq qobiliyati kishining o'z tuyg'u-hislarini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir. O'qituvchidan talaba (o'quvchi)larga uzatiladigan axborot, asosan,

ikkinchi signal tizimi nutq orqali beriladi. Bunda mazmun jihatidan uning ichki va tashqi xususiyatlari nazarda tutiladi.

O'qituvchining kasbiy faoliyatini baholash manbalariga dars tahlili, mukofotlar, faxriy yorliqlar, ogohlantirish, hayfsan va boshqalar, o'qituvchi bilan suhbat, o'qituvchining o'zini-o'zi baholash testi va uning kompetensiyalari natijalari, o'quvchilar va ular ota-onalarining o'qituvchiga bergan baholari, o'quvchilar egallagan bilimlar (dinamikasi) kiradi.

Shuningdek, o'quvchilarning fan olimpiadalari, tanlovlarda ishtiroki natijalari, o'qituvchining pedagogik mahorat tanlovlarida ishtiroki natijalari, pedagogik faoliyatda qo'llaydigan pedagogik vosita va metodlari, ta'lim muassasasi rahbar o'rinbosari bilan (o'qituvchi borasida) suhbat, malaka oshirish kursidan o'tganligi, dars materiallari va ishchi dastur tahlili, o'quvchilarning diagnostikasi va so'rovnomalar natijalari, o'qituvchining ta'lim sifati va monitoring natijalari nazarda tutiladi.

O'qituvchining o'zini-o'zi baholash ko'rsatkichlari va parametrlariga empatiya va sotsiorefleksiya, umumiy madaniyati, talaba (o'quvchi)larning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda darsning maqsadi va vazifalarini qo'ya olish, o'qitish metodlarini qo'llashda kompetentlik, faoliyatning sub'yektiv sharoitlarida kompetentlik, ta'lim dasturlarini tanlash va amalga oshirish, fan dasturlarlari, metodik va didaktik materiallar ishlab chiqarish malakalari mavjudligi, turli pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qila olish, sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini o'rnatish, ta'lim oluvchilar bilan o'quv faoliyatini tashkil etish olish va pedagogik baholashni amalga oshirish kiradi [70].

Pedagogik etika - faoliyat va muomala ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni kafolatlaydi. Bu: pedagogik kompetensiya, boshqa insonlar va ularning fikrlariga nisbatan muvofiqlik bo'lish, o'quv va tarbiyaviy faoliyatda ma'lum qarorlar qabul qilish bo'yicha ma'naviy javobgarlikni his etishdan iborat.

Pedagogik etikaning yuksakligi pedagogik mahorat mavjudligining belgisidir. Pedagogik etikani egallash o'qituvchidan o'z ustida puxta o'ylab ishlashni talab qiladi. Murabbiy o'z hatti-harakatini doimo nazorat qilishi, qarashi va ishorasi bilan talaba (o'quvchi)lar hatti-harakatiga o'z munosabatini bildirish olishi, ularni

boshqarishi kerak. Pedagogik etika o'qituvchida o'z tuyg'ularini ifoda qilishning sof tashqi malakalari mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Bu esa pirovard natijada ta'lim sifatining oshishiga olib keladi.

O'qituvchi kasbiy mahoratining nafaqat texnologik, balki shaxsiy tarkibiy jihati ham o'sib bormoqda, ular uzoq vaqtdan beri fan va o'qitish metodlari haqidagi bilimlardan tashqariga chiqib, murakkab kompetentsiyalarni, insonparvarlik qadriyatlarini va rang-barang faoliyat turlarini o'zida mujassam etgan [4, 54]. O'qituvchi pedagogik munosabatlarning to'liq ishtirokchisiga aylangan holda ilg'or o'qitish metodlarini o'z faoliyatida qollasa kasbiy-pedagogik faoliyat samarali bo'ladi. Doimiy "ishonch bilan oldinga siljish" ko'pincha talabalarda o'zlari amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlarni tayyorlaydi. O'qituvchining o'z qadr-qimmatiga bo'lgan ishonchi tashqi ijobiy motivatsiyaning jiddiyligi bilan bog'liqdir: muvaffaqiyatga erishish istagi qanchalik aniq bo'lsa va kasbiy faoliyatning motivatsion kompleksi qanchalik maqbul bo'lsa, o'qituvchi talaba (o'quvchi)ning shaxsiyati bo'yicha o'z baholariga shunchalik ishonadi [67, 343].

Akmeologik mazmun nuqtai nazaridan o'qituvchining kasbiy mahorati o'z ichiga kompetentsiyalarni, kasbiy faoliyat, qadriyat yo'nalishlarini, sub'yektivlik va innovatsiyani, o'z-o'zini namoyon etishni, o'qitish va muloqot, tafakkur va shaxsiy o'sish orqali rivojlanish darajasini ochib beradigan munosabatlar tizimini oladi [21, 38-50].

O'qituvchilik kasbi psixolog E.A.Klimov tasnifi bo'yicha "Inson-inson" faoliyat turiga kiradi, kasbning bu turi insonning quyidagi fazilatlari bilan belgilanadi: odamlar bilan ishlash jarayonida doimo sog'lom fikrli bo'lish, muloqotga ehtiyojiga ega bo'lish, o'zini boshqa odamning o'rniga aqliy ravishda qo'ya olish, tezda tushunish qobiliyati. boshqa odamlarning niyatlari, fikrlari, kayfiyati, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tezda tushunish, turli odamlarning shaxsiy fazilatlari haqidagi bilimlarni eslab qolish va yodda tutish kabilardir.

Ushbu kasbiy sxema quyidagilar bilan tavsiflanadi: rahbarlik qilish, o'qitish, tarbiyalash, insonlarning turli ehtiyojlariga xizmat qilish uchun foydali harakatlarni amalga oshirish"; tinglash va anglash qobiliyati; keng dunyoqarash; nutq madaniyati;

“ongning psixologik yo‘nalishi, insonning his-tuyg‘ulari, ongi va xarakterining namoyon bo‘lishini kuzatish, uning hatti-harakati, aqliy tasvirlash qobiliyati, ichki dunyosini aniq modellashtirish; empatiya qobiliyati; kuzatuv; “el-yurtga xizmat qilish g‘oyasining to‘g‘riligiga chuqur va optimistik ishonch”; nostandart vaziyatlarni hal qilish; o‘zini-o‘zi boshqarishning yuqori darajasi kabi xislat va fazilatlarga ega bo‘lishi talab qilinadi [48, 176-181]. Oliy ta’limda o‘qituvchi shaxsini shakllantirishda istiqboldagi mutaxassisni uning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatini ta’minlaydigan fazilatlari, xislatlari, xususiyatlari nuqtai nazaridan o‘rganish kerak.

Faol kasbiy rivojlanishga hissa qo‘shadigan kasbiy muhim shaxsiy fazilatlar tarkibini ochib berish va aniqlashtirish, birinchi navbatda, kasbga yaxlit nuqtai nazarni shakllantirishga imkon beradi; ikkinchidan, kasbiy faoliyat bo‘yicha oliy ta’lim bitiruvchisiga qo‘yiladigan talablarga muvofiq o‘quv rejalari va dasturlarini tuzish imkonini beradi; uchinchidan, bo‘lajak mutaxassislarni tanlagan kasbi bo‘yicha mustaqil ishlashga tayyorlashda talabalarda samarali kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan ma’lumotlarni oladi. O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi sifati uning ega bo‘lgan bilimi miqdoriga emas, balki hissiy-irodaviy sohasining rivojlanishiga, ijodiy pedagogik fikrlash jarayonlariga, kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar, pedagogik qobiliyatlar qobiliyatlarni shakllantirishga bog‘liq. pedagogik mahoratga bog‘liqdir. Demak, o‘qituvchi shaxsi nafaqat o‘z fanini chuqur biluvchi professional, balki, umuminsoniy fazilatlar va malakalarning murakkab birikmasidir [70].

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar sharoitida jamiyatda ta’lim tizimini takomillashtirishga qiziqishning ortib borishi, o‘qituvchilar kasbiy mahoratining individual standartlarini takomillashtirish, kasbiy kompetentsiya mazmuni va tuzilishi haqida aniq tasavvurni shakllantirish bilan bog‘liq. O‘qituvchi psixologik-pedagogik faoliyatning barcha tarkibiy qismlarining sifatini ta’minlashning zarur bo‘g‘iniga aylandi. Ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilari faoliyati samaradorligi shaxsiy va kasbiy mezonlarga qo‘yiladigan talablar murakkablashishi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, zamonaviy o‘qituvchi tomonidan bajariladigan funktsiyalar doirasi sezilarli darajada kengayib bormoqda [49].

2. O'qituvchining pedagogik mahorati va uning tarkibiy qismlari.

Har qanday mahorat ma'lum faoliyatning natijasidir. Amalga oshiriladigan faoliyatning sifati esa mahoratlilik darajasini belgilaydi. Shuning uchun avvalo, faoliyat va uning mazmuni borasida to'xtalamiz.

Faoliyat – atrof-olamga nisbatan inson munosabatining o'ziga xos shaklidir, uning mazmuni esa insonlar foydasi uchun o'zgarishi va qayta yaratilishi mumkin. Inson faoliyati – tarixiy hodisadir. U o'zi xizmat ko'rsatadigan va muntazam o'zgartiradigan ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi bilan birga paydo bo'ladi, o'zgaradi va takomillashadi. Pedagogik faoliyat sub'ekti bu ta'lim oluvchilarga ta'sir ko'rsatuvchi o'qituvchining o'zi. Chunki, u talabalarga tabiat, jamiyat, tafakkur qonunlari to'g'risida ma'lumot berish uchun avvalo, ularni o'z faoliyatining ob'yekti va sub'ektiga aylantiradi. Shu tariqa bilimlar o'zlashtiriladi, o'zlashtirilgan bilimlar ta'lim oluvchilarga yetkaziladi.


O'qituvchi faoliyati intellektual pedagogik faoliyat, mavjud bilimlarni uzatish, uning o'zlashtirishini nazorat qilish va egallanishiga erishish faoliyati bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi. Pedagogik mehnat o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro harakat, muloqot va kommunikatsiya jarayonidir. Boshidan oxirigacha insonlarning o'zaro, birgalikdagi harakati jarayonidir. Pedagogik mehnat predmeti individual, o'ziga xos, betakror xususiyat va sifatlarga ega bo'lgan faol inson. Pedagogik mehnat vositasi o'qituvchi shaxsi, uning bilimi, tajribasi va shaxsiy sifatlaridir.

Pedagogik faoliyatning asosiy elementlari:

- 1) sub'ekt, ya'ni faol shaxs;
- 2) ob'yekt, ya'ni faollik unga qaratilgan, hamda;
- 3) sub'ektning xususiy faolligidir [66].

Faoliyat hamisha maqsad va yo'nalganlikni o'zida aks ettiradi. U maqsadlarga ko'ra qayta yaratuvchi faoliyat, bilishga qaratilgan faoliyat, yaxlit-yo'naltiruvchi faoliyat va kommunikativ faoliyat turlariga bo'linadi. Faoliyatning barcha turlari ijodiy (produktiv) va mexanik (reproduktiv) xususiyatga ega. Inson faoliyati harakat shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Faoliyatda o‘zaro ta’sir turlari: harakat orqali ta’sir etish, gnostik, ya’ni bilish faoliyati orqali ta’sir etish, ijtimoiy-kommunikativ, ya’ni jamiyat maqsadlarini to‘g‘ri anglagan holda axborot uzatish va qabul qila olish hamda xulq-atvorning namoyon etilishi, ya’ni, chetdan kuzatish imkoni bo‘lgan harakatlar majmuasining mavjudligi kabilardan iborat. Pedagogik mahorat muntazam takomillashtirib boriladigan o‘qitish va tarbiyalash san’atidir, musiqiy pedagogik mahoratning asosini quyidagilar tashkil etadi (7-rasmga qaralsin).



7-rasm. Musiqiy pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari.

O‘qituvchining ijodiy faoliyati yo‘li bu doimo o‘quv jarayoniga yangilik olib kirish, takomillashishdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirish dastlab o‘qituvchining tasavvurida shakllanadi va so‘ngra ma’lum jarayonga aylanadi.

Pedagogik musiqiy ijodiyot yangi, oldin ma’lum bo‘lmagan, maxsus yo‘naltirilgan ijodiy faoliyat natijasida aniqlangan badiiy yangilikdir. Pedagogik musiqiy ijodiyotning asosiy qirralari: metodik ijodiyot, bunga dars badiiy materialini o‘zlashtirishning optimal usullarini ishlab chiqish kiradi; kommunikativ ijodiyot, musiqa asarlarini ijro etish uslubi va yo‘llari o‘qituvchidan talabaga ijodiy tarzda o‘tkaziladi; o‘z-o‘zini takomillashtirishga qaratilgan ijodiyot, musiqa san’atining muhim qadriyat sifatidagi ahamiyatini teran anglash orqali uni o‘zida singdirishdan iborat [61].

Zamonaviy o‘qituvchi qator qobiliyat, sifat va xususiyatlarga ega bo‘lishi hamda quyidagilarga e’tiborni qaratishi maqsadga muvofiq: talab darajasidagi musiqiy

repertuarni² tanlay olish qobiliyati, o'quv-tarbiyaviy materialni loyihalay olish, musiqa darslari va darsdan tashqari ish shakllarini tuza olish, talabalarga emotsional ta'sir eta olish qobiliyati mavjudligi, emotsiyalarning yorqinligi va yo'nalganligi, nutqdagi mimika, ijro jarayonida harakatlar, plastika (moslashuvchanlik)ning rang-barangligi, talabalarining ichki olamiga kira olish qobiliyati, uning holatini his eta olish, empatiya qobiliyati.

Umuman, zamonaviy ta'lim hozirgi kunda "pedagogik ta'sir" emas, balki "o'zaro hamkorlik" negizida, interaktiv shaklda tashkil etilishi maqsadga muvofiq va bunda o'qituvchining pedagogik mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Pedagogik mahorat – bu o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, talaba (o'quvchi)larda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir [51, 9].

O'qituvchining pedagogik mahorati asosan quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Dars jarayonidagi mahorat. Bu ikkiga bo'linadi, ya'ni, darsga tayyorlanish jarayonida va bevosita darsni o'tish vaqtida namoyon bo'ladigan mahorat. Darsga tayyorlanish jarayonida namoyon bo'ladigan mahorat badiiy-musiqiy maqsad va vazifalarni aniqlashda va darsning ijodiy rejasi qanday tuziladi, shu orqali namoyon bo'ladi.

Umuman, musiqiy pedagogik mahorat muntazam takomillashtirib boriladigan jarayon bo'lib, u o'qituvchining muntazam tarzda o'z ustida ishlashi, musiqa fanlari va san'atda paydo bo'layotgan yangi yo'nalishlar, uslublar, tamoyillar haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lishi, shaxslararo munosabatlar borasidagi, hamkorlik pedagogikasi va psixologiyasi borasidagi eng yangi adabiyotlarni mutolaa qilib borishi, internet tarmog'ida musiqa pedagogikasi borasida paydo bo'ladigan ilmiy pedagogik yangiliklardan boxabar bo'lishi va ularni o'z ish faoliyatida muntazam qo'llashga harakat qilishidan iboratdir.

Musiqiy pedagogik mahorat amaliy ijodiy faoliyat, o'qitish metodlari va

² Repertuar (fr.) – ro'yxat; madaniy-ommaviy tadbir yoki konsertda ijro etiladigan musiqa asarlari ro'yxati.

tinimsiz mehnat orqali namoyon bo'ladi. Aynan ustoz-murabbiy, oliy musiqa ta'limi pedagogining vazifasi ijtimoiy buyurtmani bajarishga qaratilganligi uning mohiyatini belgilaydi.

Umuman, musiqiy pedagogik faoliyatning sifati o'qituvchining har bir talabaga individual yondashish texnologiyasiga, shuningdek, darsda jamoani boshqarishdagi uslublarga bevosita bog'liq bo'lib hisoblanadi. Bu esa, musiqiy pedagogik mahorat darajasi bilan belgilanadi va bo'lajak o'qituvchilarda ushbu sifatlarni muntazam shakllantirib borish maqsadga muvofiq.

O'qituvchining etikasi uning yuz ifodasida, pedagogik ochiq ko'ngilligida, harakatidagi vazminlik va ixchamligida, imo-ishorasining haqiqiyliigi va talabaga e'tiborliligida, o'z gavdasini qanday tutishida bilinib turadi. Yuz ifodasini tirishtirish, harakatlardagi pala-partishlik, muloqot jarayonidagi imo-ishoraning ba'zan sun'iyliigi, jamoani boshqarishdagi bo'shanglikka yo'l qo'yilishi mumkin emas.

Hatto, o'qituvchining xonaga qanday kirib kelishi, bolalarga qanday nigoh bilan qarashi, salomlashishi, o'quv auditoriyasida qanday tempda yurishi - bularning barchasi talabaga o'ziga xos, ijobiy yoki salbiy psixologik ta'sir ko'rsatadigan kuchdir. Vazmin, xushmuomala, bilimlarni talabaga tushunarli va sodda tarzda yetkaza oladigan, har bir talaba ning o'zlashtirish dinamikasini sezib turadigan, shuningdek, hissiy holatini yaxshi tushunadigan o'qituvchi o'ziga ishongan, kuchli o'qituvchidir.

O'qituvchining musiqiy diagnostik mahorati - bilim, malaka va ko'nikmalar sifatiga tegishli baho baho bera olish, talabalarning egallagan bilim darajasini aniqlashdan iborat. Zero, talabalarning bilish faoliyatini shunday tashkil etish lozimki, o'quv materialini ularning faol harakatlari manbaiga aylansin, o'quv metodlari va vositalarini shunday tanlash lozimki, u o'zining murakkabligi nuqtai nazaridan talabalarning qobiliyatlari, ularning o'zlashtirish imkoniyatlari darajasida bo'lsin.

Musiqa o'quv mashg'ulotlarida talabalar o'qitish metodlari va vositalaridan estetik rivojlanish, mustaqil bilishga intilish, mas'uliyatlilik, javobgarlikni his etish, o'zi va boshqalarga nisbatan talabchanligi yo'lida foydalansin.

Har bir talaba nimani va qanday o'qishni, uni qaerdan axtarishni, qaysi ma'lumotlarni olishni, qaysi ko'rsatkichlar bo'yicha qo'llashni va foydalanishi orqali bilishning mo'ljallangan chegaralarini aniqlasin va darsda maqbul axloqiy-psixologik vaziyat, o'qituvchining talabalar bilan va talabalarning o'zaro munosabatlarida qulayliklar yaratsin.

Talabalar tomonidan darsda mustaqillik, faollik, o'qituvchiga ijobiy munosabat, malaka, o'rganilayotgan ijro materialining sifati borasida to'g'ri xulosa chiqara olish, ya'ni o'z-o'zini tahlil va o'z-o'zini baholash qobiliyati namoyon bo'lsin, musiqa fanlarining yetakchi g'oyalari, terminologiyasi va uni egallash imkoniyatlarini o'zlashtirsin. Har bir darsni qiziqtirish tamoyili va pedagogik hamkorlik asosida tashkil etish zarur. Bunda dars jarayonida yaratiladigan pozitiv badiiy-pedagogik vaziyat muhim rol o'ynaydi. O'qitish jarayonida pedagogik mehnat samaradorligining asosiy mezoni o'zlashtirish bo'lib, talabalarning ijodiy va intellektual tafakkurini rivojlantirish asosida fanning yetakchi g'oyalarini egallash samaradorligi muhim o'rin tutadi.

Pantomimika - bu gavda, qo'l va oyoqlarning harakatidir. U asosiy fikrga urg'u berib, uni ajratib ko'rsatishga imkon yaratadi. Mimika esa yuz mushaklari orqali o'z sezgisi, fikri, kayfiyatini ifodalashdir. O'qituvchining yuz ifodasi va qarashi talabalarga so'zdan ham qattiqroq ta'sir ko'rsatadi, qo'l ishorasi va mimika axborotning hissiy ahamiyatini oshiradi, uning puxtarroq o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Yuz ifodasi va harakatlar faqat dars maqsadiga, o'quv-tarbiyaviy ishni yaxshilashga yo'naltirilishi zarur. Yuz ifodasida ko'zlar muhim o'rin tutadi. "Jozibasiz ko'zlar ma'nosiz qalbni aks ettiradi", - degan edi mashhur pedagog K.S.Stanislavskiy. O'qituvchi yuz muskullari va ko'zlarini tez-tez harakatlantirishdan, shu bilan birga ularning birday qotib qolishidan ehtiyot bo'lishi kerak. O'qituvchi nigohi talabalarga qaratilgan bo'lishi, ular bilan bevosita kommunikatsiya jarayonini vujudga keltirishi zarur. Devor, deraza va shipga qarab turishdan saqlanish zarur. Barcha talabalarni diqqat markazida ushlab turishga intilish talab etiladi.

O'qituvchi va talaba muloqotini tashkil etishda san'atlar va fanlararo aloqalarning roli muhimdir. Shu bois, darslarni tashkil etishda badiiy adabiyot (she'riyat), tarix (turli davrlar), geografiya (joy nomlari, hududlar), tabiatshunoslik va biologiya (tabiat manzaralari, o'simliklar dunyosi, yil fasllari) fanlaridan integrativ foydalanish maqsadga muvofiq.

3. Oliy musiqa ta'limi pedagogining didaktik qobiliyatlari.

Didaktik qobiliyatlar – o'qituvchi tomonidan talaba (o'quvchi)larga o'quv materialini yoki ma'lum ilmiy muammoni qulay, aniq, sodda va tushunarli tarzda taqdim etish, ta'lim oluvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish va ularda mustaqil fikrni uyg'otish qobiliyatidir [68]. Musiqa o'qituvchisida pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, pedagogik talabchanlik, pedagogik takt, tashkilotchilik qobiliyati, nutqning soddaligi, aniqligi, ravonligi va ishonarliligi kiradi. Bu qobiliyatlar pedagogik faoliyatning barcha jabhalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi [72].

Pedagogik qobiliyatlarni V.A.Krutetskiy quyidagicha tavsiflagan:

1. Didaktik - o'quv materialini o'quvchilarga yetkazish qobiliyati.
2. Akademik - fanning tegishli sohasi bo'yicha qobiliyat.
3. Pertseptiv - o'quvchining ichki dunyosiga kirib borish qobiliyati.
4. Nutq - o'z his-tuyg'ularini, fikrlarini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati.
5. Tashkiliy - jamoani yo'naltirish, uni tashkil qilish qobiliyati.
6. Avtoritar – ta'sir ko'rsatish, rahbarlik qobiliyati.
7. Kommunikativ - talabalar va hamkasblar bilan muloqot qilish qobiliyati.
8. Pedagogik tasavvur - o'z faoliyatining oqibatlarini oldindan bilish.
9. Optimistik bashorat (prognoz).
10. Kuzatuvchanlik [118].

O'qituvchi faoliyatida umumiy va pedagogik qobiliyatlardan tashqari uning individual xususiyatlarini ham ochib beradigan qirralar: talabalar intellekti va kreativligining imkoniyatlariga ishonch; darsda o'rganilgan materialni maksimal darajada anglaganlik va uni qo'llash istagi; pedagogik kuzatuvchanlik, adolatlilik; muloqotga xayrixohlik. O'qituvchida birinchi navbatda musiqa psixologiyasi va

musiqiy pedagogikani chuqur bilish, o'z shogirdlari ta'lim-tarbiyasining keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatga erishish uchun mas'uliyat tuyg'usi lozim bo'lgan sezuvchanlik xususiyatlari bo'lishi lozim.

Musika ta'limida o'qituvchiga pozitiv emotsional kayfiyat hamisha zarur, bu xislatlar talabalarni o'ziga jalb qiladi. Har bir talabani baholashda adolat bilai ish tutish, shuningdek, estetik tuyg'ular va san'atga hissiy munosabat muhim ahamiyatga ega bo'lib, talabalar bilan pedagogik kommunikatsiya muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

O'qituvchilik kasbini tanlashda qarshi ko'rsatmalar ham mavjud bo'lib, ular: nutqdagi nuqsonlar, nutqning ifodasizligi, muloqotning talab darajasida tashkil etilmasligi, jiddiy jismoniy nuqsonlar, sustkashlik, boshqa insonlarga nisbatan befarqlik va h.k.

O'qituvchining ijroviy va pedagogik kasbiy rivojlanishi shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlar, kasbiy bilim va ko'nikmalarning shakllanishi, muntazam o'z ustida ishlash, egallangan bilim, ko'nikma va malakalarning musiqiy pedagogik faoliyatga samarali tatbiq etilishi bilan yuzaga chiqadi.

Umuman, musiqa pedagogikasida faoliyat ko'rsatuvchi pedagog uchun pedagogik mahorat, didaktik qobiliyatlar, pedagogik izlanuvchanlik, ijrochilik mahorati, ijroni tahlil qilish va tanqidiy baholay olish imkoniyatlari nihoyatda zarur va bu pedagogning kasbiy darajasini belgilovchi muhim mezonlar sanaladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Pedagogik mahoratga ta'rif bering.
2. Pedagogning shaxsiy, kasbiy, psixologik va pedagogik xususiyatlari.
3. O'qituvchi pedagogik mahoratining tarkibiy qismlari.
4. Oliy musiqa ta'limi pedagogining didaktik qobiliyatlari.
5. Interfaol mashg'ulotlarni tashkil etishda oliy musiqa ta'limi pedagogining kasbiy mahorati.
6. Pedagogik mahorat qanday egallanadi?
7. Pedagogik mahorat nimalarda namoyon bo'ladi?

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Pedagogik qobiliyatlar qatorini ko'rsating.

- A) Didaktik, perseptiv, kommunikativ
- B) Intellektual, kreativ, senzitiv
- V) Altruistik, plyuralistik, konformistik
- G) Affektiv, irodaviy, stereotipik.

2. Pedagogik mahorat – bu ...

A) O'quv jarayonining barcha shakllarini qulay va samarali holatda tashkil etish, talaba (o'quvchi)larni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, ularda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish

B) O'qituvchining nazariy va amaliy ijrochilik yo'nalishidagi bilim, ko'nikma va malakalari

V) Ta'lim oluvchilar bilan o'quv jarayonini samarali tashkil etishdagi kommunikativ qobiliyati

G) Yangi bilimlarni tushunarli va sodda shaklda yetkazishga qaratilgan didaktik qobiliyatlari.

3. Tarbiya jarayonida namoyon etiladigan mahorat qaysi yondashuvlar orqali amalga oshiriladi?

- A) Texnologik, ijtimoiy-psixologik, axloqiy yondashuv
- B) Ijtimoiy-psixologik, intonatsion, individual yondashuv
- V) Axloqiy, intonatsion, kompetensiyaviy
- G) Rivojlantiruvchi, tizimli-faoliyatli, axloqiy yondashuv.

4. Didaktik qobiliyatlarni ko'rsating.

- A) Kuzatuvchanlik, optimistik bashorat, avtoritar
- B) Assotsianizm, avtomatizm, animizm
- V) Akseleratsiya, appersepsiya, ataksiya
- G) Validlik, imbesillik, insayt.

5. Didaktika atamasining mazmuni.

- A) Ta'lim va tarbiya nazariyasi
- B) Tarbiya nazariyasi
- V) Ta'lim nazariyasi
- G) O'qitish metodlari majmuasi.

Seminar mashg'ulotlari uchun mustaqil ish topshiriqlari

1. O'qituvchi pedagogik mahorati va uning tarkibiy qismlarini grafik organayzerda tasvirlang.
2. Oliy musiqa ta'limi pedagogining didaktik qobiliyatlarini SmartArt dasturi imkoniyatlaridan foydalanib ifodalang.
3. Interfaol mashg'ulotlarni tashkil etishda oliy musiqa ta'limi pedagogining kasbiy mahorati qirralarini 4 ta interfaol metod misolida ifodalang.

III-MODUL. MUSIQIY PEDAGOGIK JARAYONDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING AMALIY ASOSLARI.

1-amaliy mashg'ulot ishlanmasi: Musiqa mashg'ulotlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Musiqa mashg'ulotlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish.

Vazifalar: a) shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari borasidagi bilimlarni o'zlashtirish hamda ularning asosiy xususiyatlarini ko'rsatish.

b) individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalarining musiqa pedagogikasidagi o'ziga xos jihatlarini tavsiflash.


v) muammoli ta'lim texnologiyalari talablariga mos mavzuni qamrab oluvchi savollar tuzish.

g) tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalarining musiqa pedagogikasidagi o'рни va ahamiyatini misollar orqali tushuntirish.

Darsda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etishda quyidagi xususiyatlar hisobga olinadi: butun dars davomida psixologik holatni baholash va zaruriy korreksiya (emotsionallik - quvonch, umidsizlik, xushchaqchaqlik, maqsadga erishish uchun butun dars davomida yuqori motivatsiyani saqlab qolish, mavzu bo'yicha bolalarning sub'ektiv tajribasini aniqlash, guruhning psixologik va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi materialni taqdim etish.

Shuningdek, yangi materialni tushuntirishda turli usullardan foydalanish, sinfda turli ish shakllarini tashkil etishda gender jihatini; ta'lim jarayonining uslub va uslublarini tanlash, mavzuni mustahkamlash ustida ish olib borishda bolaga vazifaning turi, shakli, uning bajarilish xususiyatlari bo'yicha tanlash imkonini beradigan didaktik materiallardan foydalanish, dars davomida har bir bolaning ta'lim faoliyati jarayoni va natijasini baholash va tuzatish, o'z-o'zini baholash va o'zaro baholashdan keng foydalanish.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar ta’lim oluvchi shaxsini ta’lim tizimining markaziga qo‘yadi, uning rivojlanishi uchun qulay, va xavfsiz sharoitlarni ta’minlaydi hamda tabiiy imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqaradi. Ushbu texnologiyada talaba (o‘quvchi)ning shaxsiyati ustuvor masaladir. Bu - mavhum maqsadga erishish vositasi emas, balki ta’lim tizimining umumiy maqsadidir (8-rasmg qaralsin).



8-rasm. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari turlari.

Topshiriqlar: Shaxsga yo‘naltirilgan qanday texnologiyalar mavjud?

Ularni tavsiflang;

farqli jihatlarini ifodalang;

musiqa pedagogikasida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni qo‘llashning o‘ziga xosligini misollar orqali tushuntiring.

Akademik Sh.Amonashvili pedagogik jarayonda “qo‘llab-quvvatlash”ning uchta tamoyilini ajratib ko‘rsatadi:

- bolalarni yaxshi ko‘rish;
- ular mavjud muhitni insonparvarlashtirish;
- bolalikda yashash [83].

V.A.Suxomlinskiy o'quvchini qo'llab-quvvatlash uchun o'qituvchi o'zida bolalik tuyg'usini saqlab qolishi kerakligini bayon etadi;

❑ bolani va u bilan sodir bo'lgan barcha narsani tushunish qobiliyatini rivojlantirish;

❑ o'quvchilarning harakatlari to'g'risida donolik bilan munosabatda bo'lish;

❑ o'quvchini doimo himoya qilish;


❑ o'quvchilar haqida yomon, nohaq o'ylamaslik va eng muhimi, o'quvchining individualligini buzmaslik, balki uning o'zini-o'zi bilish, o'zini ta'kidlash va o'zini-o'zi tarbiyalash holatida ekanligini nazarda tutgan holda, uning rivojlanishini to'g'ri yo'naltirish lozim, deb ta'kidlaydi [60].

Muammoli ta'lim usullarini 1894 yilda amerikalik olim va o'qituvchi **Jon Devi** taklif qilgan [63, 892-895]. Muammoli o'qitish uslubining mohiyati shundaki, u muayyan muammoli vaziyat yoki vazifaga asoslangan bo'lib, uning yechimi talaba (o'quvchi)larning bunday vaziyatlardan chiqish uchun eng maqbul yechimni topish ko'nikmalarini o'zlashtirishga qaratiladi.

Muammoli o'qitishdan foydalanish, ayniqsa o'quv materialining mazmuni – musiqa to'g'risida bilim va tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan hollarda samarali bo'ladi; ushbu tarkib talaba (o'quvchi)larning mustaqil izlashlari uchun mavjud bo'lganda, ya'ni, muammoli vaziyatlar ularning bilim va qobiliyatlarini maksimal rivojlanishi zonasida bo'ladi.

Musiqa mashg'ulotlarida muammoli vaziyatlarni yaratish talaba (o'quvchi)larga doimiy ravishda murakkab savollar va vazifalar berish orqali ta'minlanishi mumkin, ularni hal etishni o'quv materialini bevosita ko'paytirish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq emas. Muammoli ta'lim bir vaqtning o'zida bir nechta maqsadlarga erishishga yordam beradi.

Muammoni o'rganish usulining mohiyati - muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilish yo'llarini topish san'ati bo'lib, ushbu usulning eng qiyin qismi to'g'ri muammoli vaziyat yaratishdir. Endi darsda muammoli vaziyat yaratish usullarini batafsil ko'rib chiqamiz (9-rasmga qaralsin).



9-rasm. Muammoli ta'limning maqsadlari

Hayrat bilan muammoli vaziyat yaratishda o'qituvchi tomonidan bir vaqtning o'zida mavzu bo'yicha qarama-qarshi faktlar, nazariyalar taklif etiladi, talaba (o'quvchi)larga savol yoki topshiriq taklif etiladi, uning yechimida ularning qarama-qarshi fikrlari aniqlanadi, xato, yetarli ma'lumot, ortiqcha ma'lumot, ziddiyatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan vazifa yoki misol taklif etiladi, hodisa-vaziyatni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish taklif etiladi (masalan, musiqachi, advokat, o'qituvchi, olim, tadbirkor, ekolog va boshqalar).

Murakkablik asosida muammoli vaziyat yaratishda talaba (o'quvchi)larga ma'lum bo'lganlardan farq qiladigan topshiriq beriladi, amaliy vaziyat (hayotdan) taklif qilinadi, uni hal qilish uchun ta'lim oluvchilar hali yetarli bilimga ega emasliklari nazarda tutiladi.

Muammoni o'rganish usuli asosida darsni tashkil etishda muammoli vaziyatni bayon qilish, savol qo'yish, talaba (o'quvchi)larning muammoli vaziyatdan xabardor bo'lishi va uni shakllantirishi. Jarayonni yengillashtirish uchun siz ko'maklashuvchi savollar berishingiz mumkin. Muammoning kelib chiqishini o'quvchilarning o'zi tushunishi muhimdir.

Muammoning yechimini izlashda ushbu bosqichdagi ish turli yo'llar bilan o'quvchilarning yosh xususiyatlariga va umumiy tayyorgarligiga qarab tashkil etilishi mumkin. Bunda fikr va g'oyalarni to'plash (texnikalar), guruhlarda munozara tashkil etish, ma'lumotlarni qidirish faoliyatini darsliklar, ma'lumotnomalar, Internet orqali

tashkil etish - kuzatishlar orqali yechimga kelish, bilimlarni tekshirish, nazorat qilish asosida amalga oshiriladi.

Umuman, oliy musiqa ta'limida shaxsga yo'naltirilgan va muammoli ta'lim texnologiyalarini izchil qo'llash musiqa ijrochiligi, kompozitsiyasi, musiqashunoslik va boshqa yo'nalishlarda tayyorlanadigan mutaxassis pedagoglarning raqobatbardosh kadrlar sifatida kirib kelishiga shart-sharoit yaratadi.

Tabaqalashtirilgan ta'lim - bu o'quv jarayonini tashkil etish shakli bo'lib, unda o'qituvchi talaba (o'quvchi)lar bilan ishlashda ularning individual xususiyatlarini hisobga oladi. Ta'limning differensiatsiyasi (ta'limga differensial yondashuv) - bu turli sinflar, guruhlar uchun ularning xususiyatlarini hisobga olishda turli ta'lim sharoitlarini yaratishdir. Differensiatsiya (lot. *differentia* - farq) - jarayonlar yoki hodisalarni tarkibiy qismlarga ajratish. Ta'limni differensiallashtirish - bu turli qobiliyat va imkoniyatlarga ega o'quvchilarni bir xil guruhlariga tashkil etish orqali ta'lim olish uchun shart-sharoitlarni maqsadli yaratishdir [90].

Tabaqalashtirilgan ta'limning mohiyati har bir talaba (o'quvchi)ning individual xususiyatlarini (ta'lim darajasi, rivojlanish darajasi, fikrlashining o'ziga xosligi, fanga kognitiv qiziqishi) bilib, u uchun eng maqbul va samarali faoliyat turini, ish shakllari va turlarini aniqlashdan iborat.

Individuallashtirish talaba (o'quvchi) faoliyatini, talaba (o'quvchi)ning hayotiy tajribasini, qiziqishlar, istaklar, moyilliklar doirasini, talaba (o'quvchi)ning dunyoqarashini hamda talaba (o'quvchi)ning hissiy sohasini hisobga oladi.

Topshiriqlar: Tabaqalashtirilgan ta'limning individuallashtirilgan ta'limdan farqini tushuntiring.

Musiqa pedagogikasidagi individual ta'limdan tabaqalashtirilgan ta'limning farqli jihatlari nimalarda ifodalanadi?

Tabaqalashtirish sharoitida talaba (o'quvchi)lar guruhlariga ajratiladi va ularning ma'lum xususiyatlariga mos keladigan o'quv jarayoni quriladi. Individuallashtirish - talaba (o'quvchi)larning shaxsiy psixologik xususiyatlarini hisobga olish va rivojlantirish jarayonining barcha shakllari va usullaridir.

Ko'p bosqichli topshiriqlardan foydalanish o'quv fanlarini o'rganishga qiziqishni saqlab qolishga yordam beradi. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasida diagnostik, maqsadni belgilash, ta'lim mazmunini tanlash va farqlash, ta'lim usullarini loyihalash, vazifalarni erkin tanlash uchun sharoit yaratish bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Individual ta'lim yoki individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalari 2 ta yo'nalishda amalga oshiriladi. Individual ta'lim (o'qitish), 1 talaba (o'quvchi) bilan - yakka dars shaklida amalga oshiriladi. Guruh shaklidagi darsda har bir talaba (o'quvchi)ga individual yondashuv asosida dars tashkil etiladi.

Jahon pedagogikasida "Hamkorlikda o'qitish" (**STL** - *Student Team Learning*) texnologiyalari keng qo'llaniladi. STL "jamoaviy maqsadlar"ga va butun guruh muvaffaqiyatiga (jamoaning muvaffaqiyati) qaratiladi, bunga faqat guruh (jamo) har bir a'zosining mustaqil ishi natijasida o'sha guruhning boshqa a'zolari bilan ishlashda doimiy o'zaro ta'sir o'tkazish natijasida erishish mumkin.

Har bir talaba (o'quvchi)ning vazifasi nafaqat birgalikda o'rganish, balki har bir guruh a'zosi zarur bilimlarni egallashi, zarur ko'nikmalarni shakllantirishi va shu bilan birga butun jamoani tashkil qilishi uchun birgalikda o'rganishdir.

STL uchta asosiy tamoyilga asoslanadi:

- a) rag'batlantirish / baho shaklida, qandaydir mukofot shaklida;
- b) har bir talaba (o'quvchi)ning individual (shaxsiy) mas'uliyati, ya'ni, butun guruhning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi undagi har bir a'zoning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligiga bog'liq;
- c) har bir talaba (o'quvchi)ning muvaffaqiyatga erishishi uchun teng imkoniyat - bu har bir talaba (o'quvchi)ning avvalgi ko'rsatkichlarini yaxshilash orqali o'z guruhi uchun ma'lum ball to'plashini anglatadi.

Musiqqa pedagogikasida jamoaviy faoliyatlar: orkestr va xorda ijro etish jarayoni aynan "Hamkorlikda o'qitish" **STL** texnologiyasi talablariga to'la mos keladi. Ya'ni, orkestr yoki xor jamoasida ijro etuvchi har bir talaba yoki o'quvchi o'z partiyasini qanchalik sifatli, yuqori badiiy darajada ijro etishi - jamoaviy ijroning sifatini belgilaydi.

Ishbilarmonlik o'yini turli ishlab chiqarish vaziyatlarida mutaxassislar tomonidan qaror qabul qilish usuli bo'lib, ushbu qoidalarga muvofiq bir guruh odamlar yoki personal kompyuteri bo'lgan shaxs tomonidan interaktiv rejimda, ziddiyatli vaziyatlar yoki ma'lumotlar mavjud bo'lganda amalga oshiriladi [104].

Ishbilarmonlik o'yinini loyihalash jarayonida o'yin maqsadi aniqlanadi. U o'quv maqsadlari, o'rganilayotgan nazariy masalalarning mazmuni, mashg'ulot jarayonida ishtirokchilar egallashi lozim bo'lgan ko'nikmalardan kelib chiqib tuziladi. Ishbilarmonlik o'yinini loyihalash jarayonida o'qituvchi, sinf o'qituvchisi uchun faoliyatning tuzilishi jihatidan eng tipik bo'lgan vaziyatlar tanlanadi, bu o'yin uchun professional kontekstni ta'minlaydi. O'yin mazmunini ishlab chiqish. O'yin muhiti tavsifi, uning tashkiliy tuzilishi va ketma-ketligi, o'yin ishtirokchilari ro'yxati, ularning funktsiyalari, topshiriq va savollar, rag'batlantirish tizimini o'z ichiga olgan biznes o'yinining tarkibiy va funktsional dasturini o'z ichiga oladi.

V.P.Bespalko va G.K.Selevko ishbilarmonlik o'yinlarining texnologik va uslubiy yadrosini tashkil etadigan qator faol usullarni taklif etishgan [42].

Shaxsga yo'naltirilgan, muammoli, tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, shuningdek, ishchan o'yinlar texnologiyalarini musiqa ta'limida keng qo'llash orqali musiqa ta'lim sifatini yanada oshirish mumkin.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosidagi ta'lim texnologiyalari.
2. Muammoli ta'lim texnologiyalari.
3. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalari.
4. Individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalari.
5. Ishchan o'yinlar texnologiyalari.

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosidagi o'quv mashg'ulotlarida ta'lim markazida kim turadi?

- A) Ta'lim oluvchi shaxsi
- B) O'qituvchi shaxsi

- V) Ota-onalar shaxsi
- G) Ta'lim muassasasi rahbari shaxsi.

2. Muammoli ta'lim texnologiyalari dastlab kim tomonidan fanga kiritilgan?

- A) 1894 yilda Jon Devi tomonidan
- B) 1902 yilda S.Rubinshteyn tomonidan
- V) 1920 yilda K.Shtumpf tomonidan
- G) 1918 yilda G.Xoll tomonidan.

3. Darsda muammoli vaziyat yaratish usullari.

- A) Hayrat, murakkablik asosida
- B) Qiziqtirish, interaktivlik asosida
- V) Yo'naltirish, murakkablik asosida
- G) Interaktivlik, ko'rgazmalilik asosida.

4. Loyiha usuli - bu ta'lim jarayonini ... ga imkon beradigan usuldir.

- A) Individuallashtirish
- B) Differensiallashtirish
- V) Faollashtirish
- G) Integratsiyalashtirish.

5. Ishbilarmonlik o'yinlari - bu ...

- A) Turli pedagogik o'yinlar vaziyatlarida maqbul qaror qabul qilish
- B) Ta'limiy vazifalarni teran anglash
- V) Raqobat muhitida intellektual faoliyat
- G) Interaktivlik orqali tezkor muloqotni amalga oshirish.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosidagi ta'lim texnologiyalarining ayrimlarini konkret misollar orqali tushuntiring.
2. Muammoli ta'lim texnologiyalarini misollar asosida tushuntiring.
3. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalarini tavsiflang.
4. Individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalarini grafik organayzer shaklida ifodalang.

2-amaliy mashg'ulot ishlanmasi: **Dars materialini o'zlashtirishda grafik organayzerlar va infografikadan foydalanish.**

Maqsadi: talabalarda grafik organayzerlar va mavjud professional dasturiy ta'minot vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Vazifalar:

- a) grafik organayzerlar va ularni dars jarayonida qo'llash;
- b) Microsoft Office Excel dasturi vositasida diagramma, gistogramma, gipermatn va boshqa loyihalar tayyorlash;
- v) Smart Art dasturidan foydalanib, turli musiqiy jarayonlar va ulardagi bog'lanishlarni ifodalash;
- g) Microsoft Office Power Point dasturi vositasida musiqa tarixi, nazariyasi va amaliyoti yo'nalishida taqdimotlar yaratish texnologiyasini amaliy faoliyatda o'zlashtirish.

Zaruriy vositalar: interaktiv ekran, kompyuter, multimedia jamlanmasi, akustik tizim, "Sibelius" dasturiy ta'minoti.

Grafik organayzerlar o'quv materialini tushunish, o'zlashtirish, yodlash va tahlil qilishni yaxshilash uchun qog'oz sahifasidagi ma'lumotlarni tartibga solishga yordam beradi. Ular tashkiliy ta'lim jarayoniga hissa qo'shadi, o'quv maqsadlariga erishishda talabalarining ta'lim ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Grafik organayzerlar - bu kontentni ifodalashning vizual imkoniyatlaridan foydalanadigan vositalardir. O'quv rejasida o'qitish va o'rganish uchun har xil turdagi grafik organayzerlardan foydalanish mumkin. Ularni yaratish oson va axborotni sodda tarzda taqdim etish uchun samaralidir [78].

Tasviriy, kommunikativ va kognitiv funktsiyalarni bajaradigan didaktik vosita sifatida grafik organayzerlar nafaqat ma'lumot tashuvchisi, balki o'quv loyihalarini rejalashtirish, muammolarni hal qilish, qarorlar qabul qilish, tadqiqot va baholashda talabalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun ham qo'llaniladi.

Grafik organayzer bu matn bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadigan ma'lumotlarning grafik tasviri, chunki ikkilamchi manbalar (reja, algoritim, jadval) orqali asosiy g'oyani shakllantirish, kalit so'zlarni ajratib ko'rsatish, matnni tarkibiy qismlarga bo'lish, shakldagi ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradi.

Ular katta yoki murakkab tushuncha yoki g'oyalarni kichikroq, soddaroq qismlarga bo'lish orqali ma'lumotni tushunish, oson tarzda tasavvur qilish va taqdim etishga yordam beradi, talabalarga dars jarayonida va o'quv jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini beradi, aqliy hujum, tanqidiy va ijodiy tafakkur, turkumlashtirish va ustuvorliklarni aniqlash, mulohaza yuritish kabi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga hissa qo'shadi, mavzu bo'yicha bilimlarni yangilash va uni yangi ma'lumotlar bilan tezda boyitishga yordam beradi hamda o'z-o'zini tarbiyalashga ko'maklashadi, shuningdek, tahlil qilish, o'rganish uchun grafik organayzerlardan foydalanish talaba (o'quvchi)larning dars materialini o'zlashtirishini ancha osonlashtiradi.

Grafik organayzerlarda dizayn jihatidan ayniqsa murakkab narsa yo'q va eng yaxshi xorijiy tajribadan ilhomlanib, siz shaxsiy ehtiyojlar uchun shunga o'xshash narsalarni o'zingiz tayyorlashingiz mumkin. Quyida keltirilgan manbalarga havolalar orqali o'zingiz uchun qiziqarli shaklda organayzerlar tayyorlashingiz mumkin: [113;

114] http://www.teach-nology.com/web_tools/graphic_org/;
<http://www.enchantedlearning.com/graphicorganizers/>

Grafik organayzerlar turlari. Klaster inglizcha so'zdan kelib chiqqan va "dasta", "to'plam", "bog'lam" degan ma'nolarni anglatadi. Klaster usuli bo'yicha ishlaydigan talabalar varaqning o'rtasiga kalit so'z, mavzuni yozadilar, shakl, rasm chizadilar va ... atrofida so'zlar, iboralarni yozadilar.

Topshiriq:

Musiqqa janrlarini klaster usuli vositasida tavsiflang.

Kontseptual organayzer - bu intellektual xarita bo'lib, uning yordamida har qanday matnli hujjat uni o'rganishning barcha jihatlarida taqdim etilishi mumkin:

o‘qish, asosiy narsani ajratib ko‘rsatish, batafsil tahlil qilish, qisqacha diagramma, reja tuzish, taqdimot, eslatma, qabul qilish, taqdimot qilish va boshqalar.

Tushunchalar xaritasi - ishingizda intellektual shakllardan foydalanib, matnni tizimlashtirish, asosiy narsani ajratib ko‘rsatish, hodisalarning o‘zaro bog‘liqligini, sabab-oqibat munosabatlarini, voqealar ketma-ketligini ko‘rsatish, umumiydan xususiyni ajratib ko‘rsatish uchun grafik tasvirlarga o‘tkazish mumkin.

Topshiriq: musiqadagi lادلarni tushunchalar xaritasida ifodalang va o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.


Microsoft Office Excel dasturi vositasida diagramma, gistogramma, gipermatn va boshqa loyihalar tayyorlash.

Diagramma yaratish:

1. Diagramma uchun ma'lumotlarni tanlash.
2. Tavsiya etilgan *diagrammalar* yorlig'ida oldindan ko'rish uchun diagrammani tanlash. ...
3. OK tugmasini bosish.
4. Taqdimotda diagramma va grafiklardan foydalanish.

PowerPoint yoki Excelda diagramma yaratishingiz mumkin. Bu uchun Qo'yish yorlig'ida Diagramma tugmasini bosish va keyin kerakli diagrammani tanlash lozim [115].

1. “Vkladka” yacheykasidan “Diagramma” tugmasini bosing (10-rasmga qaralsin).



10-rasm. Diagramma oynasi.

2. Diagramma tipini aniqlang va kerakli diagramma ustiga ikki marta bosing.

3. Ko'rsatilgan varaqda to'ldiruvchilarni o'zingizning ma'lumotlaringiz bilan almashtiring.


4. Diagrammani kiritishda uning yuqori o'ng burchagida kichik tugmalar paydo bo'ladi. Sarlavhalar yoki ma'lumotlar yorliqlari kabi elementlarni ko'rsatish, yashirish yoki formatlash uchun diagramma elementlari tugmasini bosing. Diagrammaning rangi yoki uslubini tezda o'zgartirish uchun *Grafik uslublari* tugmasidan foydalaning.

5. Ish yakunida sahifani yoping.

Topshiriq:

majorli kvinta davrasini diagrammada ifodalang.

Gistogrammalar ma'lumotlarning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini ko'rsatish va turli miqdorlarni vizual ravishda taqqoslash uchun foydalidir. Chiziqli diagramma yaratish uchun quyidagilarni bajaring: Xabar oynasida Qo'shish > Diagramma-ni tanlang. Diagramma qo'shish dialog oynasida Gistogrammani bosing, kerakli gistogramma turini tanlang va OK tugmasini bosing. Gistogramma yaratish uchun elektron jadvalga ma'lumotlarni kiriting, ma'lumotlarni ajratib ko'rsating. Excel 2016: *Vstavka* ekranidan *Vstavit gistogrammu* yoki *lineychatuyu diagrammu* tugmasini bosib, gistogrammalarning kerakli tipini tanlash mumkin. Excel 2013: Qo'yish tugmasida "Vstavit gistogrammu" belgisini bosish so'ngra gistogrammalarning kerakli tipini tanlash (11-rasmga qaralsin).



11-rasm. Gistogrammaning tipini tanlash.


Vstavka ekranida Gistogramma belgisini tanlab bosing, so'ngra gistogrammalarinng kerakli tipini tanlang.

► Diagramma maketini o'zgartirish uchun *Konstruktor > Maket diagrammi* belgilarini bosing va maketni tanlang.

► Diagramma uslub (stil)ini o'zgartirish uchun *Konstruktor > Stili diagramm* belgilarini bosing va uslubni tanlang.

► Figuraning boshqa uslubini qo'llash uchun *Format > Stili figur* belgilarini bosing va uslubni tanlang.

Muayyan diagramma komponenti formatini (masalan, vertikal o'q (qiymatlar), gorizontaal o'q (toifalar) yoki diagramma maydoni) formatlashni o'zgartirish uchun *Format*-ni bosish, o'zgartirmoqchi bo'lgan har bir komponent uchun ushbu bosqichni takrorlash (12-rasmga qaralsin).




12-rasm. Diagramma formatini o'zgartirish.

Gipermatn - bu matn ma'lumotlarini tartibga solish usuli bo'lib, uning turli qismlari o'rtasida semantik (mazmunli) aloqalar o'rnatiladi. Giperhavolalar - matnli hujjat ob'ektlari orasidagi semantik bog'lanishlar:

- abzaslar;
- atamalar;
- rasmlar;
- jadvallar;
- diagrammalar va boshqalar.

Gipermatnli hujjatni yaratishdan maqsad - katta hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjat strukturasini yaratishdir.

Gipermatnli hujjatlarning qo‘llanishi doiralari. Ma’lumot tizimlari (*maslahatchi* +, *lug‘atlar*, *kataloglar*, *ma’lumotlar bazalari* va boshqalar), internetdagi veb-sahifalar, elektron darsliklar (13-rasmga qaralsin).



13-rasm. Gipermatnning tuzilishi.

Iqtibos ko‘rsatkichi - hujjatda vizual ravishda ajratib ko‘rsatiladigan ob‘ekt (ko‘k rang, tagi chizilgan):

- ▶ matn parchasi;
- ▶ jadval;
- ▶ diagramma;
- ▶ rasm;
- ▶ fotografiya.

Havolaning manzil qismi - hujjatdagi belgining nomi; Hujjatdagi unikal (noyob) nom berilgan element.

Giperhavola yaratish usuli - oddiy matnni o‘z ichiga olgan, lekin katta hajmdagi hujjat yaratishdir.

Hujjat belgisini yaratish:

- ▶ matnning bir qismini tanlash;
- ▶ “*Qo‘shish - Belgi ...*” buyrug‘ini kiritish;
- ▶ “*Belgi nomi*” maydoniga ism kiritish;
- ▶ “*Qo‘shish*” buyrug‘i;
- ▶ giperhavola yaratish;

- ▶ ***ko‘rsatkich*** - matn qismini ajratib ko‘rsatish;
- ▶ “*Qo‘shish – giperhavola*” buyrug‘ini kiritish;
- ▶ belgi nomini tanlash;
- ▶ “OK” buyrug‘i.

Topshiriq:

giperhavola yaratib, uni ishlatib ko‘rsating.

“Gipermatn” tushunchasiga ko‘plab ta’riflar berilgan. O.Dedova gipermatnni «ma’lum bir strukturaning matni, chiziqli bo‘lmagan strukturaning matni bo‘lib, ma’lumotni olish va o‘qish uchun ketma-ketlikni tanlash imkoniyatini taklif qiladi», deb ta’riflagan [38, 22-36].

Internet badiiy tafakkurning yangi turini yaratish, madaniyatda immanent (ichki) tamoyillar asosida yaratilgan avtonom madaniy makonlarni farqlash va aniqlashtirish uchun ideal muhitdir. Vizual tasvirlarning harakatchanligi, ularning kombinatsiyasi so‘zlar, tovushlar, buyruqlar va qoidalar kombinatsiyasidan ustun qo‘yiladi. Inson ramziy dunyoda yashaydigan jismoniy mavjudotdan virtualga aylanadi. Texnologiya insonning borligi va tanasiga kirib boradi, uning tanasiga aylanadi, uning ko‘p o‘lchovli makon va zamondagi hayotini ta’minlaydi, ongning asoslaridan biriga, shuningdek, madaniyatning moddiy va ma’naviy qismiga aylanadi [64, 247].


SmartArt grafikasi ma’lumotlar va g‘oyalarni vizualizatsiya, ya’ni, vizual taqdim etish uchun ishlatiladi. SmartArt grafikasini Excel, PowerPoint, Word dasturlarida yoki Outlook-da elektron pochtaida yaratishingiz mumkin. SmartArt tugmasi "Qo‘shish" yorlig‘ida joylashgan va ekran o‘lchamiga qarab, u quyidagicha ko‘rinishi mumkin (14-rasmga qaralsin):



14-rasm. SmartArt tugmasining ko‘rinishi.


SmartArt grafigining ko‘rinishini uning shakllari yoki matni uchun boshqa rang tanlash, soyalar qo‘shish, aks ettirish, yorqinlik kabi effektlarni qo‘llash yoki konturlarini qalin turli rangdagi chiziqlar bilan belgilash kabi 3D effektlarni qo‘shish orqali o‘zgartirish mumkin.

SmartArt grafik tipiga o‘xshaydi va har birida bir nechta turli maketlar mavjud. Maketlarni tez va oson o‘zgartirish mumkinligi sababli, to‘g‘risi topilmaguncha, turli variantlarni ko‘rib chiqish mumkin (15-rasmga qaralsin).



15-rasm. SmartArt maketlari ekrani.

Quyidagi jadvalda SmartArt grafik elementlardan tez-tez foydalaniladigan vazifalar va ular uchun mos variantlar keltirilgan (16-rasmga qaralsin).




16-rasm. SmartArtda matn maydoni.

Matn maydoni - bu SmartArt grafikasida paydo bo‘ladigan matnni kiritish va tahrirlash joyidir. U SmartArt grafigining chap tomonida joylashgan. Matn


maydoniga kontent qo‘shilib, tahrir qilinganda SmartArt grafigi avtomatik ravishda yangilanadi va kerakli shakllar qo‘shiladi yoki o‘chiriladi.

Belgilangan sonli shakllarni o‘z ichiga olgan SmartArt grafigi matn maydonida faqat matnning bir qismi, SmartArt grafigi paydo bo‘ladi. Maketni o‘zgartirganda bu kontent mavjud bo‘ladi, lekin agar siz ushbu tartibni saqlasangiz yoki yopsangiz, maxfiylikni himoya qilish uchun ma’lumotlar saqlanmaydi (17-rasmga qaralsin).



17-rasm. SmartArtda maketni o‘zgartirish imkoniyatlari.

Matn maydoni ma’lumotlarni SmartArt grafigi bilan taqqoslaydigan kontur yoki markirovka qilingan ro‘yxatga o‘xshaydi. Diagramma yaratish ekrani orqali ishlash ancha qulay bo‘lib, bunda qisqa vaqt mobaynida hamda format tuzilishini aniq bilgan holda diagramma yaratish mumkin (18-rasmga qaralsin).



18-rasm. Diagramma yaratish ekrani.


Har bir SmartArt grafigida matn maydonidagi markerlar va elementdagi shakllar to‘plami o‘rtasida muvofiqlik mavjud. Agar tashkiliy diagramma maketi “Yordamchi” figurasi bilan qo‘llaniladigan bo‘lsa, marker biriktirilgan qator bilan

“Yordamchi” figurasini bildiradi. SmartArt grafikasida matnga shrift, shrift o‘lchami, qalin shrift va pastki chiziq kabi belgilarni matn maydonida qo‘llash mumkin va u SmartArt grafikasida aks etadi. Sichqoncha ko‘rsatkichini “Konstruktor” yorlig‘idagi maketlar ustiga olib borish va u yoki bu tartibni qo‘llagashdan so‘ng grafik element qanday holatni egallaganini ko‘rish mumkin [116].

Topshiriq:

SmartArt grafikasida orkestr cholg‘ularini tasvirlang.

Microsoft Office Power Point dasturi vositasida musiqa tarixi, nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishida taqdimotlar yaratish texnologiyasi. PowerPoint-da taqdimot yaratish. Windows, Mac yoki mobil qurilmalar uchun PowerPoint quyidagi imkoniyatlarni [117] yaratadi. Slayd qo‘shish: “Slaydlar” bo‘limida “Maket”ni tanlash, so‘ngra menyudan kerakli maketni tanlash (19-rasmga qaralsin).



19-rasm. PowerPoint dasturida taqdimot yaratish yo‘li.

Matn qo‘shish va formatlash. Kursorni matn maydoniga qo‘yish va biror narsa yozish. Matnni tanlash va keyin Bosh sahifadagi *Shrift* ostidan bir yoki bir nechta variantni tanlash, masalan, *Shrift*, *Shrift hajmini kattalashtirish*, *Shrift hajmini kamaytirish*, *Qalin*, *kursiv*, *tagiga chizish* va hokazo.

Belgilangan yoki raqamlangan ro‘yxatni yaratish uchun matnni tanlash, so‘ngra “Markerlar” yoki “Raqamlash” ni tanlash.

Rasm, shakl va boshqa elementlar qo‘shish.

1. *Qo‘shish* yorlig‘iga o‘tish.
2. *Rasm qo‘shish*.

Topshiriq:

Power Point dasturida 6 ta slaydli taqdimot yarating.

Umuman, musiqa o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda grafik organayzerlar, shuningdek, Microsoft Office Excel, Smart Art va Microsoft Office Power Point dasturlari vositasida musiqa tarixi, nazariyasi va amaliyoti yo'nalishida turli tasviriylar vositalari, taqdimotlar yaratish va ularni qo'llash muhimdir.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Grafik organayzerlar va ularni dars jarayonida qo'llash.
2. Microsoft Office Excel dasturi vositasida diagramma, gistogramma, gipermatn va boshqa loyihalar tayyorlash.
3. Smart Art dasturidan foydalanib, turli musiqiy jarayonlar va ulardagi bog'lanishlarni ifodalash.
4. Microsoft Office Power Point dasturi vositasida musiqa tarixi, nazariyasi va amaliyoti yo'nalishida taqdimotlar yaratish texnologiyasi.

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Grafik organayzer - bu ...

A) O'quv materialini (kontent)ning mazmunini ifodalashning vizual imkoniyatlaridan foydalanadigan vositadir

B) Interaktiv muloqot shaklidir

V) Kommunikatsiya vositasidir

G) Smart Art texnologiyasidir.

2. Gistogramma - bu ...

A) Jadval ma'lumotlarini grafik ko'rinishda taqdim etish usuli

B) Ma'lumotlarni jadvalda aks ettirish usuli

V) Matn shaklidagi ma'lumotlarni chizma shaklda ifodalash usuli

G) Takomillashtirilgan diagramma.

3. Smart Art - bu ...

A) Har xil figuralarga professional, o'ziga xos ko'rinish berish uchun qo'llanadigan turli effektlar, jumladan, chiziqlar, ramkalar yoki uch o'lchamli effektlar kombinatsiyasi

B) Uch o'lchamli shakl yaratish dasturi

V) Grafik ishlar dasturi

G) Rasm chizish dasturi.

4. Microsoft Office Power Point dasturi qanday faoliyatni amalga oshiradi?

A) Taqdimot yaratish dasturi

B) Diagramma chizish dasturi

V) Uch o'lchamli shakllar yaratish dasturi

G) Nota yozish dasturi.

5. Gipermatn - bu ...

A) Matn ma'lumotlarini tartibga solish usuli bo'lib, matnning turli qismlari o'rtasida semantik (mazmunli) aloqalar o'rnatiladi

B) Matnli hujjat ob'ektlari orasidagi semantik bog'lanish

V) Matn va grafik elementlar o'rtasidagi bog'lanish

G) Matn va video materiallar o'rtasidagi bog'lanish.

6. Power Point ilovasi qaysi dasturga tegishli?

A) Microsoft Officega

B) Sibeliusga

D) NUENDOGa

G) Movavi Video Editor Plusga tegishli.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Grafik organayzerlarni dars jarayonida qo'llash bo'yicha yozma misollar keltiring.

2. Microsoft Office Excel dasturi vositasida 2 tadan diagramma, gistogramma va gipermatn tayyorlang.

3. Smart Art dasturi asosida turli musiqiy jarayonlarni ifodalang.

4. Microsoft Office Power Point dasturi vositasida ma'lum fan va mavzu asosida taqdimot yarating hamda uni yaratish texnologiyasini tushuntiring.

3-amaliy mashg'ulot ishlanmasi: **“Sibelius” nota matni muharriri va “Nuendo_10.3.0” audio muharririni kasbiy shakllanishda qo'llash texnologiyasi.**

Maqsadi: talabalarda “Sibelius” nota matni muharriri va “Nuendo_10.3.0” audio va video muharriri professional dasturiy ta'minot vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Vazifalar:

- a) “Sibelius” nota matni muharriri va uni dars jarayonida qo'llash;
- b) “Sibelius” nota matni muharriri dasturi vositasida asarlarni tahrirlash, transpozitsiya qilish, nota yozish boshqa loyihalar tayyorlash;
- v) “Nuendo_10.3.0” audio va video muharriri dasturidan foydalanib, turli audio formatda musiqiy jarayonlarni ifodalash;
- g) “Nuendo_10.3.0” audio va video muharriri dasturi vositasida radio va televidenie musiqiy ko'rsatuvlari repertuarini tayyorlash va turli musiqiy taqdimotlar yaratish texnologiyasini amaliy faoliyatda o'zlashtirish.

Zaruriy vositalar: interaktiv ekran, kompyuter, multimedia jamlanmasi, akustik tizim, “Sibelius”, “Nuendo_10.3.0” audio-video muharriri dasturiy ta'minoti.

Sibeliusni o'rganish nisbatan oson, ayniqsa oldin musiqiy nota dasturlarini ishlatgan bo'lsangiz ko'p elementlari o'zidan-o'zi tushunarli bo'ladi. Dastur bilan ishlash o'zlashtirilsa, oddiy notalarni kiritish, tahrirlash, ijro ettirish va chop etish, shuningdek, yanada murakkab musiqa bilan ishlashni qanday boshlash haqida tasavvurga ega bo'lasiz [74].

Sibeliusda har bir yorliq buyruqlar to'plamini (*Eslatma kiritish, Notation, Matn, Layout* va boshqalar) tavsiflaydi; agar siz yorliqni bossangiz, lenta ushbu buyruqlardan foydalanishga ruxsat beruvchi tugmalarni ko'rsatadi. Har bir lenta yorlig'i tegishli buyruqlarning bir nechta guruhini o'z ichiga oladi.

Muayyan buyruqqa qanday o'tishning tezkor usuli sifatida ushbu hujjat quyidagi formatdan foydalanadi: *“Uy > Asboblar > Qo'shish yoki o'chirish buyrug'idan foydalanish”* belgilari *"Asosiy yorlig'ini bosish, Asboblar guruhini ko'rib chiqish* va *Qo'shish yoki O'chirish* tugmasi faoliyati amalga oshirilishini bildiradi. Kompyuter atamalarining aksariyati deyarli barcha foydalanuvchilar uchun tushunarli, ammo ulardan ba'zilar notanish bo'lishi mumkin.

Lenta - bu *Sibelius* oynasining yuqori qismida paydo bo'ladigan buyruq tugmalarining keng chizig'i bo'lib, u erda dasturning barcha funktsiyalari joylashgan va vazifasiga muvofiq tartibga solinadi.

Notatsiya: (nota yozuvi) notalarning o'zidan boshqa musiqiy notalarni belgilashning barcha asosiy usullari, jumladan, kalitlar, tonalliklar, takt o'lchovlari, maxsus takt chiziqlari, chiziqlar, ramzlar, nota belgilari va boshqalar ifodalangan.

Ijro: ijro konfiguratsiyasini, transport panelini boshqarishni, jonli tempni, jonli ijroni va *Sibelius* sizning ballingizdagi belgini o'ynaganda qanday talqin qilishi kerakligini belgilaydigan sozlamalarni boshqaradi. Partitura bo'ylab harakatlanishning bir necha yo'li mavjud, ammo ularning eng osoni sichqoncha bilan ekrandagi "qog'oz"ni siljitishdir. Buning uchun sichqoncha bilan "qog'oz"ning bo'sh qismini bosish va sahifani tortish zarur.

Musiqqa asari ustida ishlayotganingizda, tajriba o'tkazmoqchi bo'lsangiz yoki bir asarning boshqa aranjirovkasi variantini yaratmoqchi bo'lsangiz bir xil partituraning turli versiyalarini saqlash foydali bo'lishi mumkin.

Chop etish va ko'rib chiqish panelini ko'rish uchun *Fayl > Chop etish* buyrug'idan (*Ctrl+P* yoki *XP* yorliqlari) foydalanish mumkin. Bunda barcha sozlamalar haqida tashvishlanish shart emas: faqatgina *Chop etish* tugmasii bosilsa bo'ldi. Biroz vaqt o'tgach, printerdan mukammal bosilgan partituraning olishi mumkin.

*Sibelius*da qilinadigan ishlarning aksariyati notalarni kiritish va kiritilgan notalarni tahrirlash bilan bog'liq. Partiturada notalarni kiritish va tahrirlashni o'rganishdan oldin, *Esc* tugmasi *Sibelius*ga musiqaning biron-bir tarzda notasini kiritish yoki tahrirlashda alohida ahamiyatga ega. U quyidagi vaziyatlarning har birida ishlatilishi mumkin:

Sichqoncha bilan nota kiritayotganda *Esc* tugmasini bosish keyingi nota qo'shishni to'xtatadi.

Kompyuter klaviaturasida nota terayotganda *Esc* tugmachasini bosish keyingi notalarni qo'shishni to'xtatadi va oxirgi kiritilgan notani ajratib ko'rsatadi.

Matnni tahrirlashda *Esc* tugmasini bosish matn yozish yoki o'chirishni to'xtatadi va ob'ektni ajratib ko'rsatadi. Agar biror notani ajratib ko'rsatgan bo'lsangiz, *Esc* tugmasini bosish bu vazifani bekor qilinadi. *Sibelius* dasturi partiturani ijro etayotgan bo'lsa, *Esc* tugmasini bosish ijroni to'xtatadi.

Topshiriq:

***Sibelius* nota matni muharriri dasturida berilgan nota parchasini tering va uni transpozitsiya qiling.**

Nota yozish va tahrirlashda pastki o'ng burchakdagi raqamli klaviatura notalarni, alteratsiya va artikulyatsiya belgilarini, liga va boshqa belgilarni kiritish uchun vositadir. Har doim *USB* qurilmasi yoki *CD*da kiritilgan nota materiallarini va ularning zaxira nusxasini muntazam ravishda saqlash zarur.

Notalarni kiritishda Klaviatura panelini ochish uchun *Ko'rish > Panellar > Klaviatura* buyrug'idan foydalanish lozim (20-rasmga qaralsin).



20-rasm. Raqamli klaviatura.

Raqamli klaviaturadagi qaysi tugmalar qaysi o'zgarishlarga mos kelishini eslab qolsangiz, oddiy tugmalar yoki sichqonchadan ko'ra tezroq ishlashingiz mumkin bo'ladi. Agar xatoga yo'l qo'yilsa yoki kiritilgan o'zgarishlar yoqmasa, orqaga qaytib, partiturani qo'lda tuzatish mumkin. Partiturada ob'ektlar tanlanganda rangli bo'ladi va ularni sichqoncha yoki klaviatura yordamida boshqarish mumkinligini ko'rsatadi. *Sibelius*da bajariladigan barcha amallar tanlash orqali amalga oshiriladi.

Tanlashning uchta asosiy turi mavjud:

- ✓ Faqat bitta ob'ekt tanlanganda bitta tanlash;
- ✓ Bir nechta alohida ob'ektlar tanlanganda ko'p tanlash amalga oshiriladi.


Nota parchalari, musiqaaning yaxlit polosalari tanlanganda, ular ko'k yoki binafsha rangga kiradi. Har uchta tanlov bilan deyarli bir xil vazifalarni bajarish mumkin, asosiy farq, avvaliga ob'ektlarni qanday tanlashga bog'liq. Barcha belgilangan notalar atrofida ko'k rang chegara paydo bo'ladi (21-rasmga qaralsin):



21-rasm. Taktlarni belgilash.

MIDI qurilmasini qo'llash *Flexi-time* funksiyasidan foydalanish uchun kompyuterda *MIDI* klaviaturasi yoki *MIDI* gitara ulangan bo'lishi kerak. Agar *MIDI* qurilma to'g'ri sozlangan bo'lsa, undan kirib, nota kiritish va ijro ettirishni amalga oshirishingiz mumkin. Buning uchun *Nota kiritish* > *Sozlash* > *Kirish* qurilmalari buyrug'idan foydalanish lozim.

Transport paneli *Sibelius*da ijroni kuzatish va boshqarish imkonini beradi. Agar transport paneli ko'rinmasa, uni *Ko'rish* > *Panellar* > *Transport* orqali yoqish zarur bo'ladi. *Kiritish* > *Flexi-time* > *Flexi-timeni kiritish* buyrug'ini ishga tushirish bilan (Ctrl+Shift+F yoki xXF yorlig'i) yoki transport panelidagi dumaloq yozish tugmasi bosilsa, *Sibelius* sizga bir takt hisobini beradi, so'ngra ijro etilganlarni notaga olishni boshlaydi (22-rasmga qaralsin).



22-rasm. Transport paneli.

*Sibelius*da Alifbo tartibida kiritganda akkordlarni yaratishning uchta yengil usuli mavjud. Agar boshqa musiqa dasturidan *Sibelius*ga o'tilsa, standart *Sibelius* kiritish usuli xuddi *Simple Entry* (oddiy kiritish) deb nomlangan usul kabi ishlaydi [74, 39].

Topshiriq:

***Sibelius*da berilgan kuyni gvrmoniyalang va pleer orqali tinglab, tahlil qiling.**


NUENDO 10 dasturida loyihalar boshqaruvi. “*Nastroyka studii*” dialog oynasi ulangan audio, MIDI va masofadan boshqarish vositalarini sozlash imkonini beradi. “*Nastroyka studii*” dialog oynasini ochish uchun *Studiya* > *Nastroyka studii*-ni tanlash lozim [58, 17] (23-rasmga qaralsin).



23-rasm. Muloqot oynasida audio uskunani sozlash.

Foydalanishdan oldin “*Nastroyka studii*” muloqot oynasida audio uskunani tanlash va sozlash lozim. *Nuendoda* monitoring yozuv paytida kirish signalini tinglab,

nazorat qilishni anglatadi. Bunday holda, *MIDI* qurilmasi kompyuterda ijro etish yoki yozib olish uchun *MIDI* ma'lumotlarini yuboradi (24-rasmga qaralsin).



24-rasm. MIDI uskunasini sozlash.

MIDI sozlamalari: Nuendo-da yozib olish uchun *Audio podklyucheniya* oynasida kirish va chiqish shinasini tanlash zarur. Ushbu oynada *guruhiy* va *FX* kanallarini, tashqi effektlarni, va *Control Room* monitoring seksiyasidagi tashqi asboblarni ulash mumkin.

Loyiha oynasi yangi loyihani ochish yoki yaratishda ekranga chiqadi.

- Loyihani ochish uchun *Fayl > Ochish*-ni tanlash;
- Yangi loyiha yaratish uchun *Fayl > Yangi loyiha*-ni tanlash talab etiladi.

Loyiha oynasi bir necha bo'limlarga bo'lingan:

1 *Chap zona*. Chap zonada ikkita yorliq bilan *Inspektor* ko'rsatiladi:

- *Track* yorlig'i ro'yxatda tanlangan trek sozlamalarini ko'rsatadi.

2 *Loyiha maydonida* asboblar paneli, treklar ro'yxati, loyiha qismlari va hodisalarini o'z ichiga olgan voqealar ekrani va *Loyiha oynasi* vaqt jadvalini o'z ichiga oladi. Asboblar panelida holat panelini, ma'lumot panelini, loyihani ko'rib chiqish panelini va pastki *Transport* panelini yoqish/o'chirish mumkin.

3 *Pastki zonada* akkordlar jamlanmasi, *Tahrirlovchi*, *Semplerni boshqarish* va *MixConsole* ko'rsatiladi.

4 *O'ng zonada* *VSTi*, *Media*, *Control Room* va *Indicator* ko'rsatiladi.

Chap va o'ng asboblari paneli bo'linmalari asboblari panelining chap va o'ng tomonidagi muayyan asboblarning o'rnini doimo ko'rsatish imkonini beradi.

Har bir trek turi uchun qaysi boshqaruv elementlari ko'rinishini tanlash zarur bo'lsa *trek ro'yxatining o'ng tugmasini bosish* va *Trek boshqaruvlarini o'rnatish*-ni tanlash mumkin bo'ladi (25-rasmga qaralsin).



25-rasm. Treklar ro'yxati tuzish.

Masshtablashtirishning kursorlari va koeffitsientlarini loyiha hududida va pastki zonadagi *Piano Roll muharriri*, *Zarblilar muharriri* va *Audio qism muharririda* bog'lash mumkin. Nuendoda loyihalar asosiy hujjatlar sanaladi. Dastur bilan ishlash uchun loyiha yaratish va sozlash talab etiladi. *Shablonlar* asosida bo'sh loyihalar yoki shablonlar asosida loyihalar yaratish mumkin. Global treklarni boshqarish elementlari trek ro'yxatining tepasida joylashgan (26-rasmga qaralsin).



26-rasm. Treklarni boshqarish.

Agar *Nuendo*-da bir nechta loyihalar ochiq bo'lsa, ulardan faqat bittasi faol bo'lishi mumkin. Faol loyiha *Loyiha* oynasining yuqori chap burchagidagi ajratilgan *Loyihani faollashtirish* tugmasi bilan ko'rsatiladi. Agar boshqa loyiha ustida ishlash zarur bo'lsa, uni faollashtirish kerak.

Topshiriq:

Nuendo dasturida audio materiallarni joylashtirish texnologiyasini o'zlashtirish.

Musiqqa studiyasi uchun sinxronizatsiyani sozlash. Akkordlar va partituraning tahrirlash. Treklar loyihani tashkil etuvchi qismlardir. Ular *partiyalar* va *hodisalarni import qilish, qo'shish, yozib olish, tahrirlash* imkonini beradi. Treklar trek ro'yxatida yuqoridan pastgacha ko'rsatiladi va loyiha oynasida gorizontaal ravishda joylashtiriladi.

Trek qo'shish dialog oynasi orqali treklarni qo'shish mumkin.

1. *Global treklarni boshqarish* ro'yxatida *Trek qo'shish* tugmasini bosish.

2. Quyidagilardan birini bajarish:

✓ *Trek turini* bosing va ehtiyojlaringizga qarab variantlarni tanlash.

✓ Faqat bir marta qo'shish mumkin bo'lgan trekni qo'shish uchun "*Ko'proq treklar*" bo'limini ochish va *trek turini* bosish zarur.

3. *Track qo'shish* tugmasini bosish.

Nuendo-da oynalar va dialoglarni ish joylariga ajratish, alohida elementlarning ekranini sozlash, menyu va uning alohida elementlarini sozlash va dastur sozlamalarini profil sifatida saqlash mumkin. Video faylni import qilishda *audioni ajratib olish* - Import qilingan videofayldan audio ma'lumotlarni alohida klipga ajratib oladi va saqlaydi.

Topshiriq:

Nuendo dasturida berilgan video materiallardan audioni ajratib oling va uni formatlashtiring.

Yuqorida tahlil etilgan dasturlardan tashqari, musiqa materiallarini tahrirlashda keng qo'llaniladigan *CUBASE 5* dasturini ham alohida ta'kildab, mualliflarning

quyidagi o'quv qo'llanmasini misol tariqasida keltirish mumkin: [76] Trusova V.A., Medvedev Ye.V. CUBASE 5 i NUENDO 4. Naibolee polnoe rukovodstvo (+DVD). Izdatelstvo: DMK-Press, 2010. – 560 s. El. manzil: <https://www.labirint.ru/books/249408/>

Musiqqa o'quv mashg'ulotlarini dasturlashtirilgan ta'lim formatida tashkil etish va ko'zlangan natijalarga erishishda Sibelius, shuningdek, *NUENDO 10* dasturlari samarali bo'lib, bo'lajak magistrning kasbiy pedagogik shakllanishida ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Sibelius dasturini o'rnatish va faoliyatga tayyorlash.
2. *NUENDO 10* dasturida loyihalar boshqaruvi.
3. *NUENDO 10* dasturida yangi loyihalar yaratish.
4. *NUENDO 10* da virtual yordamida *MIDI* yozish.

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Sibelius dasturi qanday faoliyatni amalga oshirishda qo'llaniladi?

- A) Nota yozish va tahrirlashda
- B) Audio va video materiallarni tahrirlashda
- V) Taqdimot yaratishda
- G) Grafik materiallarni tahrirlashda.

2. *NUENDO 10* dasturi qanday faoliyatni amalga oshirishda qo'llaniladi?

- A) Audio va video materiallarni tahrirlashda
- B) Nota yozish va tahrirlashda
- V) Grafik materiallarni tahrirlashda
- G) Taqdimot yaratishda.

3. Sichqoncha bilan nota kiritayotganda *Esc* tugmasini bosish qanday natijaga olib keladi?

- A) Keyingi notani qo'shishni cheklaydi
- B) Oxirgi qo'shilgan notani olib tashlaydi
- V) Notani bir tonga yuqoriga ko'taradi

G) Notaning cho‘zimini ikki baravarga ko‘paytiradi.

4. Sibeliyda partitura ijro etilayotgan bo‘lsa, Esc tugmasini bosish qanday holatga olib keladi?

A) Ijroni to‘xtatadi

B) Tempni sekinlashtiradi

V) Dinamikani kuchaytiradi

G) Alohida partiyani ajratib ijro ettiradi.

5. MIDI atamasi nimani bildiradi?

A) Musiqa cholg‘ularining raqamli interfeysi (elektron musiqa asboblari o‘rtasida ma’lumot almashish orqali raqamli ovoz yozish standarti)

B) Musiqiy ovoz rejissurasini amalga oshiradi

V) Tabiiy cholg‘u sozlari ansambliga elektron cholg‘u sozlarini qo‘shib ijro etishni amalga oshiradi

G) Minusovka bilan ishlash standarti.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Sibeliy dasturini o‘rnatish va faoliyatga tayyorlash bosqichlarini tavsiflang.

2. Birta kamer asar partiturasini Sibeliy dasturida yozib kelish.

1. *NUENDO 10* dasturida yangi loyiha yaratish ketma-ketligini matn shaklida yozing.

3. Musiqa studiyasi nima va unda sinxronizatsiya qay tarzda sozlanadi. Bu uchun bajariladigan amallarni yozing.

4-amaliy mashg‘ulot ishlanmasi. **Pedagogik texnika - o‘qituvchi kasbiy mahoratini yuzaga chiqarish omili.**

Maqsadi: talabalarda pedagogik mahoratning zaruriy qismi bo‘lgan pedagogik texnika borasida tushuncha berish va ularda pedagogik mahorat ko‘nikmalarini shakllantirish.

Vazifalar:

a) pedagogik texnikaning musiqa pedagogi faoliyatida namoyon etilishi;

b) o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati, shuningdek, pedagogik muammolarni hal qilish jarayonida shaxs va jamoa bilan o‘zaro munosabatda bo‘la olish qobiliyati;

v) kommunikativ qobiliyatlari, nutq texnikasi va notiqlik madaniyati;

g) pedagogik takt va pedagogik xushmuomalalik borasida tasavvurlarning shakllanganligi.

Zaruriy vositalar: interaktiv ekran, kompyuter, multimedia jamlanmasi, akustik tizim, “Sibelius” nota matni muharriri dasturiy ta’minoti.

Pedagogik texnika - o‘qituvchi faoliyatining ichki mazmuni va uning tashqi ifodasining uyg‘un birligiga yordam beradigan texnikalar majmuasidir.

Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari:

O‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati: o‘z tanasiga nisbatan mas’uliyat (jismoniy salomatlik, chidamlilik, mimika va pantomimani boshqarish va ulardan ta’lim va tarbiya maqsadlariga erishishda foydalanish qobiliyati), hissiy holatni boshqarish, nutq texnikasida namoyon bo‘ladi.

Topshiriq:

Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlarini tushuntiring.

Pedagogik muammolarni hal qilish jarayonida shaxs va jamoa bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish qobiliyati: didaktik ko‘nikmalar, tashkilotchilik qobiliyati, muloqot mahorati, baholash texnikasi.

Pedagogik texnika - bu o‘qituvchiga o‘z talaba (o‘quvchi)larini ko‘rish, eshitish va his qilish imkonini beradigan ko‘nikmalar majmuasidir. Atoqli pedagog A.S.Makarenko shunday deb yozgan edi: “Tarbiyachi pedagogik faoliyatni tashkillashtirish, yurish, hazillashish, quvnoq, jahldor bo‘lish..., xullas o‘zini shunday tutishi kerakki, har bir harakati ta’lim oluvchilarni tarbiyalashi lozim” [52, 215].

Topshiriq: Pedagogik muammolarni hal qilishda shaxs va jamoa bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish qobiliyati qay tarzda namoyon bo‘ladi?

Yu.P.Azarov ta’kidlaganidek, pedagogik texnika o‘qituvchining ijodiy ish uchun vaqt va kuchini tejaydi, pedagogik o‘zaro ta’sir jarayonida to‘g‘ri so‘zni izlash yoki

intonatsiyani tushuntirish uchun talaba (o'quvchi)lar bilan muloqot qilishdan chalg'imasligiga imkon yaratadi [6, 327].

Pedagogik texnika ikki guruh tarkibiy qismlardan iborat. Birinchi guruh tarkibiy qismlar o'qituvchining o'z hatti-harakatlarini (mimika, pantomimika, kuzatish, tasavvur, to'g'ri nafas olish, ovozni sozlash, diksiya) nazorat qilish qobiliyati bilan bog'liq. Pedagogik texnika tarkibiy qismlarining ikkinchi guruhi shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonining texnologik tomonini ochib beradi.

Topshiriq:

Birinchi guruh pedagogik texnikaning tarkibiy qismlarini tavsiflang.

Ikkinchi guruh pedagogik texnika tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?

Pantomimika bu inson tanasi, qo'llari, oyoqlarining harakati bo'lib, bildirmoqchi bo'lgan yangi o'quv ma'lumotlarini ta'kidlab ifodalashga yordam beradi. Pedagogik ijro texnikasi umumiy pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sanalib, o'qituvchining musiqa o'quv jarayonini samarali tashkil etishida namoyon bo'ladi. Pedagogik ijro texnikasi – bu ijroviy malaka va ko'nikmalar majmuasi bo'lib, o'qituvchi tomonidan ijro repertuarini yuksak talablar darajasida amalga oshirishda qo'llaniladi.

O'qituvchi faoliyatida pedagogik ijro texnikasi cholg'u sozida ijro etish yoki vokal ijroni amalga oshirish kabi murakkab faoliyatlardan sanaladi. Agar o'qituvchi yetarli darajadagi ijro texnikasiga ega bo'lmasa, u yuqori badiiy natijalarga erisha olmaydi, ya'ni, o'z fikr va hissiyotlarini talaba (o'quvchi)larga talab darajasida yetkaza olmaydi.

Akademik vokal ijrochiligi yo'nalishida Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Karim Zokirov, Muyassar Razzoqova, Ismoil Jalilov, G'ulom Abdurahmonov, Najmiddin Jaloldinov, Barno Ismatullaeva, Jenisbek Piyazov va boshqalar, o'zbek milliy estradasi yo'nalishida Botir Zokirov, Yunus To'raev, Farrux Zokirov, Eson Qandov, Mansur Toshmatov, Yulduz Usmonova, Nasiba Abdullaeva, Ozodbek Nazarbekov, Zulayxo Boyxonova, Sevara Nazarxon va boshqalarni keltirish mumkin.

Akademik cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishida skripkachilar Dilbar Abdurahmonova, Nodir Hoshimov, pianinochilar Bexzod Abduraimov, dirijyorlar Muxtor Ashrafiy, Zohid Haqnazarov, Vladimir Neymer, Kamoliddin O‘rinboev va boshqalar o‘zlarining ijrochilik texnikasi va maktablariga ega ustoz san’atkorlar sanaladi.

Milliy musiqamiz namunalaridagi usulning ancha murakkabligi tufayli ayrim boshqa millat vakillari tomonidan uni ba’zan qiynalib ijro etish hollari ham uchrashini aytib o‘tish lozim. “Shunisi qiziqki, o‘zbek milliy musiqasini ijro etish nimagadir boshqa millat vakillari uchun katta qiyinchilik tug‘diradi. Men bu o‘rinda musiqamizning murakkab ifoda vositalari, nola-qochirimlarini nazarda tutayotganim yo‘q. Oddiy “Andijon polkasi”ni ham ijro etishga ba’zan qiynaladilar” [39].

Fiziolog P.K.Anoxin “harakat aktseptori” kontseptsiyasini ishlab chiqdi, unga binoan bizning miyamizda maxsus afferent mexanizmi [29] ishtirok etadi va unda kutilayotgan natija belgilari oldindan aks etadi. Ya’ni, pirovard natijaga olib keluvchi yoki yaqinlashtiruvchi harakatlar mustahkamlanadi, undan uzoqlashtiruvchilari esa tashlab yuboriladi.

Topshiriq:

Pedagogik ijro texnikasi tushunchasi borasida tasavvuringizni ifodalang.

Pedagogik o‘zaro ta’sir murakkab jarayon bo‘lib, didaktik, tarbiyaviy va ijtimoiy-pedagogik tarkibiy qismlardan iborat: Bular: o‘quv va tarbiyaviy faoliyat, o‘qitish maqsadi va tarbiyalash bilan shartlangan. Pedagogik munosabatning quyidagi - faol ijobiy, vaziyat asosida, passiv ijobiy, faol salbiy va passiv-salbiy uslublari ajratib ko‘rsatiladi.

Pedagogik o‘zaro ta’sir pedagogik jarayonning universal xususiyatidir. U “pedagogik ta’sir” kategoriyasidan ancha kengroq bo‘lib, pedagogik jarayonni sub’ekt-su’ekt munosabatlari darajasida ifodalaydi.

Topshiriq:

Pedagogik munosabatning uslublari tavsiflang.

Hamkorlik pedagogikasi turli fanlarni, ayniqsa, musiqa fanlarini o'qitishda samarali pedagogik texnologiyalardan biri bo'lib, pedagogik jarayonning shaxsiy yo'nalishiga asoslangan. "Hamkorlik pedagogikasining maqsadli yo'nalishlari: talablar pedagogikasidan munosabatlar pedagogikasiga o'tish, talabaga insonparvarlik-shaxsiy yondashuvi, ta'lim va tarbiyaning birligi"dir [55].

Hamkorlik pedagogikasida o'qituvchining vazifasi talabalarga turli manbalardan mustaqil ravishda kerakli bilimlarni topish yo'llarini, butun umri davomida o'z ustida ishlashni o'rgatish, olingan ma'lumotlarni tanqidiy tushunishga harakat qilish, xulosalar chiqarish, ular borasida bahslasha olish, muammolar, g'oyalarni ishlab chiqish va ularni oqilona hal qilish yo'llarini izlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Topshiriq:

Hamkorlik pedagogikasining ijobiy 'ususiyatlarini musiqa pedagogikasi misolida tushuntiring.

Pedagogik muloqot o'ziga xos ijtimoiy-psixologik jarayon sanaladi. Talaba shaxsini yaqindan bilish, uning ichki kechinmalari, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari, orzu-umid, maqsad va hayotiy intilishlaridan xabardor bo'lish pedagogik jarayonning metodik, ruhiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi.

O'qituvchi kasbiy faoliyatida yuksak pedagogik va psixologik natijalarga erishish uchun, tadqiqotchi olimlar tomonidan taklif etilgan muloqotning yo'nalishlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

"Prognostik yo'nalish, o'qituvchining muloqotga bevosita tayyorgarligi jarayonida o'quvchilar bilan bo'lajak har qanday muloqot turini modellashtirish. O'quvchilar bilan dastlabki muloqotni tashkil etish jarayonidayoq bevosita o'zaro ta'sir metodlaridan foydalanib, tashabbuskorlikni qo'lga olish. Tobora takomillashib, rivojlanib borayotgan pedagogik faoliyatda muloqotning turli texnologik shakllaridan unumli foydalanish va uni boshqarish. Keyingi pedagogik faoliyat uchun muloqot tizimini modellashtirish va uni doimiy tahlil qilib borish" [85, 70].

Muloqot ko'nikmalari - bu muloqot jarayonida odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ta'minlaydigan, o'quvchilar bilan to'g'ri aloqani topa olish, shuningdek, ular bilan optimal munosabatlarni o'rnatish qobiliyatini ta'minlaydigan shaxsning individual qobiliyatlaridir. Muloqot ko'nikmalariga: mehnatsevarlik, moslashish qobiliyati, tafsilotlarga diqqat qaratish, hamkorlik, muloqotchanlik, nizolarni hal qilish, ijodkorlik kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Topshiriq:

O'qituvchi darsga kelganda hatti-harakatlariningizning yo'nalganligini ifodalang.

Noverbal muloqot - nutqdan foydalanmasdan axborot uzatish tushuniladi. Muloqotda tana tili, imo-ishoralar, mimika, intonatsiyalar nihoyatda muhim va ularning to'g'ri talqini samarali muloqotning zarur shartidir. Nutq - axborot, xabar, ma'lumot, yangi bilim berish, aqliy topshiriqlarni yechish faoliyatidan iborat, agar til aloqa vositasi bo'lsa, nutq esa aynan o'sha jarayonning o'zidir. Nutq kishilar muloqoti uchun zarur bo'lgan tildan foydalanish jarayonidir. Nutqning funksiyalaridan biri insonlar o'rtasida muloqot vositasi sifatida xizmat qilishdir [14, 24].

Musiqiy faoliyat shakllarida musiqa amaliyotini samarali tashkil etish, nota matnlari bilan ishlash, orkestr yoki xorda partituraning tahlil qilish va uni o'rganishda nutq vositasida zaruriy natijalarga erishiladi. Demak, nutq musiqiy pedagogik jarayonda alohida ahamiyat kasb etib, fanlar materialini yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'zlashtirishni yengillashtiradi va uning samaradorligini oshiradi.

Musiqqa vositasida yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlashga qaratilgan V.I.Petrushin metodikasini qo'llash orqali o'quvchilarda musiqaga nisbatan munosabat, qiziqish va ustanovkalarning ifodalanishi darajasi o'rganish mumkin. Bundan tashqari, V.G.Kasimov tomonidan taqdim etilgan "Ijrochilik faoliyatiga munosabatni o'rganish testi" dan izchil foydalanish mumkin [62, 369].

O'qituvchi dars mashg'ulotiga tayyor bilimlar bilan kiradi, bunda u talabani o'zining faoliyatiga, maromiga kiritishga harakat qiladi. Pedagogik jarayonda talabalar faoliyatini boshqarish masalasi ko'ndalang turadi. Bunda o'qituvchi talabalar hatti-harakatlarinig, xulqining mavjud namoyon bo'lishi sabablarini vaziyatga talaba nuqtai nazaridan qarab ko'rib, aniqlashi talab etiladi.

Topshiriq:

Noverbal nutq imkoniyatlaridan foydalanib ma'lum asarning badiiy g'oyasini tushuntiring.

Pedagogik takt - bu pedagogning o'zini mavjud talablar darajasida talabalar va pedagogik jamoa orasida tutish, psixologik ta'sir ko'rsatish va tarbiya tamoyillariga mos tarzda munosabatlarni tashkil etish me'yorlarini bilishi hamda ularga rioya etishidir.

Pedagogik taktning asosiy elementlari: talabchanlik va ta'lim oluvchilarga hurmat; talabani eshitish, unga hamdardlik bildirish qobiliyati; munosabatlarda ishbilarmonlik ohangi; o'qituvchining diqqatlilik, sevgirlik kabilardir. Xushmuomalalik - shaxs va xulq-atvorning axloqiy-psixologik xususiyati bo'lib, odamlarga hurmat muloqot va munosabatlarning kundalik normasi, boshqalar bilan muomala qilishning odatiy usuliga aylanganligini ko'rsatadi [57]. O'qituvchining umumiy ma'naviy tarbiyalanganligi pedagogik odobining asosidir.

Topshiriq:

Pedagogik takt va odob imkoniyatlari va xususiyatlarini tushuntiring.

Pedagogik odobi yuqori darajada bo'lgan mutaxassis-murabbiy talabalar, otalar, hamkasblari bilan bo'ladigan munosabatlarini ustalik bilan boshqaradi. Pedagogik odobda avvalo insonga nisbatan chuqur hurmat namoyon bo'ladi.

Pedagogik odobning yuksakligi pedagogik mahorat mavjudligining belgisidir. Pedagogik odobni egallash o'qituvchidan o'z ustida puxta o'ylab ishlashni talab qiladi.

Pedagogik adolat - o'qituvchining xolisligi, uning axloqiy tarbiya darajasining o'ziga xos o'lchovi bo'lib, u talaba (o'quvchi)lar hatti-harakatlariga, ularning bilim olishga bo'lgan munosabatiga, ijtimoiy foydali faoliyatiga bergan baholarida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining ijtimoiy nufuzi – o'qituvchining o'z kasbiy burchini bajarish jarayonida namoyon bo'ladigan o'z mohiyatini anglashi, jamoatchilik e'tirofi, uning ma'naviy fazilatlar va xislatlarining jamoatchilik tomonidan hurmat qilinishi, haqiqiy kasbiy xizmatlariga jamoatchilik tomonidan munosib baho berilishidir [47, 86-88].

O'qituvchining kasbiy mas'uliyati – uning chuqur bilimga egaligi, eruditsiyasi, mahorati, mehnatga munosabati bilan belgilanadigan talaba (o'quvchi)lar, hamkasblar jamoasidagi ma'naviy maqomi bo'lib, uning yordamida ma'lum hurmat va obro'ga ega o'qituvchi talaba (o'quvchi)larning hatti-harakatlarini tartibga soladi, ularning e'tiqodlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muxtasar aytganda, pedagogik texnika - ijrochilik texnikasidan kam bo'lmagan holda musiqa pedagogi faoliyatida muhim o'rin egallaydi va bunda pedagogning o'z-o'zini boshqarishi, pedagogik muammolarni hal qilish jarayonida ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatda bo'la olish qobiliyati, nutq texnikasi, shuningdek, pedagogik xushmuomalaligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Pedagogik texnikaning musiqa pedagogi faoliyatida namoyon etilishi.
2. Pedagogning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati.
3. Hamkorlik qilish qobiliyati.
4. Kommunikativ qobiliyatlar.
5. Nutq texnikasi va notiqlik madaniyati.
6. Pedagogik takt va pedagogik xushmuomalalik.

7. Pedagogning nutq texnikasi.
8. Notiqlik san'atiga qaysi pedagogik sifat va xususiyatlar kiradi?

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Pedagogik texnika - bu ...

- A) O'qituvchi faoliyatining ichki mazmuni va uning tashqi ifodasining uyg'un birligiga yordam beradigan texnikalar majmuasi
- B) Pedagogik kreativlik ko'rinishi
- V) Ijrochilik texnikasi
- G) Kasbiy va shaxsiy fazilatlar.

2. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari.

- A) O'z-o'zini boshqarish, kommunikativlik, hamkorlik qilish qobiliyati
- B) Kasbiy ijodkorlik, ijro texnikasi, muloqotmandlik
- V) Kasbiy kompetentlik, notiqlik san'ati, kreativlik
- G) Mimika, pantomimika, paralingvistik xususiyatlar.

3. Pedagogik texnikada mimika ...

- A) Yuz ifodasi orqali fikr mazmunini yetkazishda ko'maklashadi
- B) Jest va harakatlar orqali fikr mazmunini yetkazishda ko'maklashadi
- V) Nutq orqali fikr mazmunini yetkazishda ko'maklashadi
- G) Ko'rgazmalilik asosida fikr mazmunini yetkazishda ko'maklashadi.

4. Noverbal muloqotda ...

- A) Jest va harakatlar orqali fikr mazmuni yetkazib beriladi
- B) Ko'rgazmalilik asosida fikr mazmuni yetkazib beriladi
- V) Nutq orqali fikr mazmuni yetkazib beriladi
- G) Yuz ifodasi orqali fikr mazmuni yetkazib beriladi.

5. Pedagogik texnika talabi.

- A) O'z psixik holatini boshqarish, mashg'ulotlarda turli metodlarni qo'llash
- B) Boshqalarni tinglay olish
- V) Tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish
- G) O'quv jarayonini qiziqarli qilish.

6. Shaxsni bilish, axborot almashish, faoliyatni tashkil etish, hamdardlik.

Ushbu sifatlar qaysi qobiliyatlarga tegishli?

- A) Kommunikativ
- B) Musiqiy
- V) Tashkilotchilik
- G) Notiqlik.

7. Pedagogik takt - bu ...

- A) Kasbiy sifat
- B) Qobiliyat
- V) O‘qitish metodi
- G) Kasbiy kompetentlik.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Musiqa pedagogi faoliyatida pedagogik texnikaning namoyon etilishini “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti” va “Klaster” texnologiyasida ifodalang.
2. O‘qituvchining kommunikativ qobiliyatlarini jadval shaklida ifodalang.
3. Nutq texnikasi va notiqlik madaniyati talablarini matn shaklida tavsiflang.
4. Pedagogik takt va pedagogik xushmuomalalik xususiyatlarini matn shaklida ifodalang.

5-amaliy mashg‘ulot ishlanmasi. Pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish texnologiyalari.

Maqsadi: talabalarda pedagogik mahoratning zaruriy qismi bo‘lgan pedagogik texnika borasida tushuncha berish va ularda pedagogik mahorat ko‘nikmalarini shakllantirish.

Vazifalar: O‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi ziddiyatlar profilaktikasi va ularni bartaraf etish texnologiyasini o‘zlashtirish.

- a) pedagogik nizolar xususiyatlari;
- b) pedagogik nizolarning asosiy turlari;
- v) ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi ziddiyatlarni yechish yo‘llari;

g) o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi ziddiyatlar profilaktikasi va ularni bartaraf etish texnologiyasi borasida tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish.

Zaruriy vositalar: kompyuter, interaktiv ekran, multimedia jamlanmasi, akustik tizim, "Sibelius" nota matni muharriri dasturiy ta'minoti.

Pedagogik nizolar xususiyatlari. Pedagogik muloqot muammolarini anglash uchun "nizo" tushunchasining ta'rifini anglash zarur. Fanda nizoga turli ta'riflar berilgan: jumladan A.V.Petrovskiy, N.G.Yaroshevskiy, N.G.Yaroshevskiy nizoni "salbiy hissiy kechinmalar bilan bog'liq qarama-qarshi yo'naltirilgan, mos kelmaydigan tendentsiyalarning to'qnashuvi" deb tushunadilar [61]. A.Ya.Antsupov, A.I.Shipilovlar nizoga quyidagicha ta'rif berishgan: "ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarning rivojlanishi va yakunlanishidagi eng keskin yo'l" [10].

E.A.Utkin esa nizo tushunchasini "odamlar his-tuyg'ularning namoyon bo'lishi fonida ishontirish yoki harakatlar yordamida hal qilishga urinadigan qarama-qarshi pozitsiyalar, qarashlar, baholar va g'oyalar to'qnashuvi", deb talqin qiladi [79]. Yana bir ta'rif "nizoning sabablarini bartaraf etishda manfaatdor tomonlar o'rtasidagi to'qnashuv", deb keltirilgan [12]. M.M.Ribakova pedagogik nizolar xususiyatlarini har qanday boshqa nizo turlaridan: oilaviy, etnik va boshqalardan ajratib ko'rsatgan. Muhim farqlovchi xususiyat - bu pedagogik mojaroning tarbiyaviy mazmuni, chunki u boshqalar ishtirokida yuzaga keladi va ularni guvohlardan ishtirokchilarga aylantiradi, deydi [68].

Ta'lim muassasasi jamiyat modeli sifatida odamlar o'rtasidagi munosabatlar me'yorlarini ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi uchun javobgardir; shu bois ta'lim oluvchilar ta'lim muassasasida nizolarni ko'rib va ularda qatnashib, nizolarda o'zini qanday tutishni va hayotda nizolarni hal qilishni o'rganadi. "Nizolar ishtirokchilari turli ijtimoiy mavqega ega bo'lib, bu ularning nizodagi hatti-harakatlarini belgilaydi. Shundan keyingi imkoniyat - nizo va uning sabablarini turlicha tushunish kelib chiqadi" [44, 26]. Pedagogik nizoda uni konstruktiv hal qilish mas'uliyati har doim kasb egasi sifatida o'qituvchiga yuklanadi. Nizolarga

munosabat va ular bilan ishlash amaliyotiga ta'sir ko'rsatgan asosiy o'zgarishlarni bir nechta oddiy tezislarda ifodalash mumkin:

1. Nizo ijtimoiy makonda keng tarqalgan bo'lib, umumiy xususiyati u muqarrar va qaytarilmasdir, shuning uchun inson hayotining tabiiy qismi sifatida qaralishi kerak.

2. Mojaro har doim ham salbiy natijalarga olib kelmaydi. Aksincha, bu butunlikni saqlashga xizmat qiluvchi asosiy jarayonlardan biridir. Mojaroning zamonaviy tushunchasiga ko'ra, nizo har doim ham salbiy psixologik holat emas.

3. Nizo - bu hal qilinishi mumkin bo'lgan va u borasida ishlash zarur bo'lgan hodisadir [86]. Ijtimoiy ziddiyatning negizida qarashlar, motivlar, maqsadlar va bu maqsadlarga erishish vositalarining farqi yotadi.

Topshiriq:

Pedagogik nizolarning kelib chiqish sabablari va oqibatlari borasida o'z fikringizni ifodalang.

Pedagogik nizolarning xususiyatlari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: muammoli vaziyatlarni pedagogik jihatdan to'g'ri hal qilish uchun o'qituvchining javobgarligi, nizolar ishtirokchilari turli ijtimoiy maqomga ega (o'qituvchi – talaba (o'quvchi)), bu ularning nizodagi hatti-harakatlari darajasini belgilaydi, ishtirokchilarning hayotiy tajribasidagi farq nizolarni hal qilishdagi xatolar uchun turli darajadagi javobgarlikni keltirib chiqaradi, hodisalarni va ularning sabablarini boshqacha tushunish ("o'qituvchining ko'zi bilan" va "ta'lim oluvchining ko'zi bilan" qaraganda ziddiyat turlicha ko'rinadi), shu bois o'qituvchiga ta'lim oluvchining kechinmalari chuqurligini tushunish, ta'lim oluvchiga esa o'z his-tuyg'ularini boshqarish va ularni aqlga bo'ysundirish hamisha ham oson kechmaydi.

Pedagogik psixologiyada nizolarga pedagogik aralashuvning muvaffaqiyati o'qituvchining pozitsiyasiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Bunda 4 ta pozitsiya ajratib ko'rsatiladi: mojaroga avtoritar aralashuv pozitsiyasi, betaraflik pozitsiyasi, mojarodan qochish pozitsiyasi va mojaroga maqsadga muvofiq aralashuv pozitsiyasi. Nizolar nafaqat obyektiv, balki sub'yektiv sharoitlar bilan ham paydo bo'lishi

mumkin. Oby'ektiv holatlarga pedagogik jarayondan ko'p yoki kamroq mustaqil ravishda mavjud bo'lgan va nizo yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar kiradi. Subyektiv sharoitlar bolalarning tarbiyasi va rivojlanishi darajasini, ishtirokchilar ziddiyat darajasidan xabardorligini, ularning axloqiy va qadriyat yo'nalishlarini tashkil qiladi.

Topshiriq:

Nizolarga pedagogik aralashuvning muvaffaqiyati o'qituvchining pozitsiyasiga bog'liqdir. Ushbu pozitsiya variantini aniqlang.

Nizolarni quyidagi tartibda hal qilish maqsadga muvofiq: vaziyatni qanday bo'lsa shunday idrok etish, shoshilinch xulosa chiqarmaslik, munozarada qarama-qarshi tomonlarning fikrlarini tahlil qilish, o'zaro ayblovlardan qochish kerak, o'zini boshqa tomon o'rniga qo'yishni o'rganish, muloqotda bo'lganlar o'rtasidagi umumiy faoliyat va doimiy muloqot nizoni yengishga imkon yaratadi.

Umuman, "Pedagogik nizo - bu pedagogik faoliyatdagi o'z-o'zidan kuchaygan tizimli qarama-qarshiliklarning namoyon bo'lish shakli bo'lib, u pedagogik faoliyatning barcha sub'ektlari o'rtasidagi aloqaning salbiy hissiy fonini tashkil qiladi va nizolarning o'zaro ta'siri, muammolarni hal qilish va konstruktiv aloqa jarayonlarini qurish imkoniyatini nazarda tutadi" [120].

Pedagogik nizolar kelib chiqishiga sabab bo'ladigan pedagogik vaziyatlarga quyidagilar kiradi: ta'lim oluvchining o'quv topshiriqlarini bajarishi, o'quv faoliyati, darsdan tashqari faoliyati natijasida kelib chiqadigan faoliyat bilan bog'liq nizolar, ta'lim oluvchining ta'lim muassasasida, maktabdan tashqarida xulq-atvor qoidalarini buzishi natijasida kelib chiqadigan xatti-harakatlar bilan bog'liq ziddiyatlar, ta'lim oluvchilar va ustozlarning emotsional shaxsiy munosabatlari, pedagogik faoliyat jarayonida ularning muloqoti sohasida yuzaga keladigan munosabatlar bilan bog'liq ziddiyatlar [19].

Pedagogik nizolar yo'nalishi bo'yicha: vertikal (o'qituvchi-talaba), gorizontal (talaba-talaba), aralash (o'qituvchi - ota-onalar), mazmuni bo'yicha: faoliyat

(o'zlashtirish) bilan bog'liq mojarolar, xulq-atvor ziddiyatlari, munosabatlardagi nizolarga bo'linadi.

Pedagogik amaliyotda shaxslararo nizolarning asosiy turlari quyidagilardan iborat: Ta'lim oluvchi-ta'lim oluvchi - mikroguruhda yetakchilikka intilish, shaxsiy ustunlikni namoyish qilish va rahm-shafqatsizlik. Talaba (o'quvchi)-o'qituvchi - "Men-konsepsiya"ning ustunligi, mustaqillikka intilish, muammolarni mustaqil hal qilish, taklif va tushuntirishlarga keskin va o'tkir munosabat, nizolar adolatsiz baholar tufayli ham kelib chiqishi mumkin.

Yoshni davrlashtirish va har bir yoshga xos uchrashi mumkin bo'lgan nizolar va ziddiyatlarni oldindan ko'ra olish o'qituvchiga ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatlarni buzishga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar va ularning sabablarini to'g'ri aniqlashga imkon beradi.

Topshiriq:

Pedagogik amaliyotda shaxslararo nizolarning qaysi asosiy turlari mavjud?

Ziddiyat qanday rivojlanishidan qat'i nazar, o'qituvchining vazifasi tomonlarning qarama-qarshiligini qayta shakllantirish, holatga tegishli pedagogik-psixologik baho bergan holda vaziyatni yumshatishdir. Buning uchun: o'qituvchi o'z hissiyotlarini jilovlab, munosabatlardagi keskinlikni kamaytirishi, salbiy so'rovga salbiy munosabat bilan javob bermasligi lozim, biron-bir tomonni haqorat qilmaslik va kamsitmaslik; shikoyatlarni tinglash, ularning o'z fikrini to'la bayon etishiga imkoniyat berishi zarur. Maqsad va vosita sifatida ijobiy muloqot o'rnatish, yakuniy bosqich - o'zaro (birgalikdagi) ta'sir bosqichidir. Ziddiyatli vaziyatlarni to'g'ri hal qilish o'qituvchi kasbiy tayyorgarligining zarur elementidir.

Ko'pincha ziddiyatli vaziyatlarning manbai sifatida o'qituvchining ta'lim oluvchidagi deviant hatti-harakatga o'tkir, nisbatan qo'pol munosabati ham sabab bo'ladi. Natija: ta'lim oluvchi o'zini noloq tutadi, o'qituvchi bunga qo'pol va to'g'ridan-to'g'ri munosabatda bo'ladi va shu bilan o'zining pedagogik zaifligini ko'rsatadi, natijada sinf jamoasi va ta'lim oluvchi o'qituvchiga qarshi munosabat

holatini egallashi mumkin.

Topshiriq:

O'qituvchi pedagogik muloqotning qaysi qoidalariga amal qilishi maqsadga muvofiq?

Ta'lim muassasasida yuzaga kelgan barcha nizolarning oldini olish bir vaqtning o'zida, kompleks amalga oshirilishi lozim. Ta'lim jarayonida qo'llash tavsiya etiladigan qoidalar: so'zlovchining so'zlari noverbal dalillar orqali uning fikr va his-tuyg'ulariga zid bo'lgan holatlarga e'tibor berish zarur. Ushbu ziddiyatni ochiq muhokamaga olib chiqish, tomonlarning hech birida yolg'on taxminlar yoki munosabatlar yashirinmaganligiga ishonch hosil qilish. Xatolarni tuzatish uchun ularni ochiq muhokama qilish, hamisha ochiq muloqot yuritishga harakat qilish. Fikrlarni yoki his-tuyg'ularni diplomatik tarzda ochiq aytish.

Boshqalarni tinglashni o'rganish, buning uchun quyidagilarga rioya qilish lozim: hamdardlik bilan tinglash, suhbat mavzusiga e'tibor qaratish, so'zlovchiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, hukm chiqarmasdan diqqat bilan tinglash, eshitgan narsa haqida fikr bildirish, shaxsga haqiqatan ham tinglayotganini ko'rsatish, nima aniq emas yoki nimaga ishonch komil emasligiga e'tibor berish.

Shuningdek, "ta'lim oluvchilarga yaxshi munosabatda ekanligini yashirmaslik, ko'pincha ma'lum qaror qabul qilishga roziligini bildirish, bu vaziyatda maqto'vni ayamaslik, ayrim mayda janjal holatida xafa bo'lganda sukut saqlashga o'zini majburlay olish, ziddiyat yuzaga kelganda, ustun emotsional holatni hisobga olish maqsadga muvofiq" [81].

Mojarolarning oldini olish bilan shug'ullanish uchun hech bo'lmaganda ularning ta'lim jamoalarida qanday paydo bo'lishi, rivojlanishi va tugashi, ularning xususiyatlari va sabablari qanday bo'lishi haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish lozim. Ta'lim muassasasida faoliyatning to'rtta asosiy sub'ektini ajratish mumkin, bular: talaba, o'qituvchi, ota-onalar va rahbarlardir.

Pedagogik konfliktologiyada o'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarning xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillar aniqlangan. Birinchidan,

o'quvchilar o'rtasidagi ziddiyatlarning o'ziga xosligi yosh davrlari psixologiyasi bilan belgilanadi. O'quvchilarning yoshi ziddiyatlarning sabablariga ham, ularning rivojlanish xususiyatlariga va uni tugatish usullariga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

“O'quvchilar o'rtasidagi nizolar noto'g'ri hatti-harakatlar, o'quvchilarning hatti-harakatlarida umume'tirof etilgan me'yorlarning buzilishi tufayli ham yuzaga kelishi mumkin. Ushbu me'yorlarning buzilishi, qoida tariqasida, kimningdir manfaatlarini buzishga olib keladi, binobarin, manfaatlar to'qnashuvi ziddiyatning asosidir. Ta'lim jarayonining tabiati, uni muayyan ta'lim muassasasida tashkil etish ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va tugashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi” [119]. Shaxsning ta'lim muassasasidagi faoliyati umuman jamiyatda shaxs kamolotining asosiy bosqichi bo'lib hisoblanadi. Aynan shu yerda bola o'z xohish-istaklari, qobiliyatlari va moyilliklariga nisbatan mustaqilligini ko'rsata boshlaydi. Biz bilamizki, har bir inson noyobdir, har kimning o'ziga xos qiziqishlari va xususiyatlari bor. Aytish joizki, qarama-qarshiliklar to'qnashganda ziddiyat paydo bo'ladi [65].

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pincha yaqin do'stlari bo'lmagan va maktabdan boshqa hech narsani yaxshi ko'rmaydigan bolalar nizolarga duch kelishadi. Bunday bolalarda muloqot, turli sevimli mashg'ulotlar yetishmaydi va buning natijasida ularda salbiy his-tuyg'ular to'planadi. Ziddiyatli vaziyatlarda ularda o'zini yetarli tarzda nazorat qila olmaydigan salbiy his-tuyg'ular paydo bo'ladi. “Nizolarning oldini olishda intizom muhim rol o'ynaydi, bu bolaga belgilangan tartibga oqilona bo'ysunish doirasida uning to'liq rivojlanishi uchun zarur bo'lgan erkinlikni ta'minlashdan iborat. Shuningdek, bolalarga yuzaga kelgan ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishning konstruktiv usullarini o'rgatish mumkin” [82]. O'quvchilar o'rtasidagi nizolar ziddiyat keltirib chiqargan o'quvchilarning o'ziga ham, butun sinfga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Muxtasar aytganda, pedagogik nizolar xususiyatlarini to'liq anglagan holda o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar profilaktikasi va ularni bartaraf etish texnologiyasi borasida bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lish musiqa ta'limida natijadorlikni ta'minlash va jamoada

pozitiv psixologik muhit yaratilishiga puxta zamin yaratadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Pedagogik nizolar xususiyatlari.
2. Pedagogik nizolarning asosiy turlari.
3. Ta'lim oluvchilar o'rtasidagi ziddiyatlarni yechish yo'llari.
4. O'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi ziddiyatlar profilaktikasi va ularni bartaraf etish texnologiyasi.

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Nizo - bu ...

- A) Ahamiyati, faolligi va o'zaro bog'liqligi bilan ajralib turadigan, inson ongida yoki shaxslararo munosabatlarda qarama-qarshi yo'nalishlar o'rtasidagi ziddiyat
- B) Shaxslararo munosabatlarda bir tomonning boshqa tomondan ustun pozitsiyasi
- V) Shaxslararo munosabatlarda qarama-qarshi yo'nalishlar o'rtasidagi tushunmovchilik
- G) Shaxslararo munosabatlarda masalaning mohiyatiga yetib bormaslik.

2. Pedagogik nizolar yechimi ... ga bog'liq.

- A) O'qituvchining pozitsiyasiga
- B) Ta'lim oluvchining munosabatiga
- V) Har ikkala tomonning yondashuviga
- G) O'qituvchining pedagogik obro'siga.

3. Nizolarga pedagogik aralashuvning muvaffaqiyati o'qituvchining pozitsiyasiga bog'liq. "O'qituvchi ta'lim oluvchilar o'rtasida yuzaga keladigan to'qnashuvlarni sezmaslikka va ularga aralashmaslikka harakat qiladi". Bu qaysi pozitsiyaga tegishli?

- A) Betaraflik pozitsiyasiga
- B) Mojarodan qochish pozitsiyasiga
- V) Mojaroga avtoritar aralashuv pozitsiyasiga
- G) Mojaroga maqsadga muvofiq aralashuv pozitsiyasiga.

4. Nizolarga pedagogik aralashuvning muvaffaqiyati o'qituvchining pozitsiyasiga bog'liq. "O'qituvchi, nizo har doim ham istalmagan negativ psixologik holat ekanligiga va unga qarshi kurashish kerakligiga ishonch hosil qilmasdan, uni bostirishga harakat qiladi". Bu qaysi pozitsiyaga tegishli?

- A) Mojaroga avtoritar aralashuv pozitsiyasiga
- B) Mojarodan qochish pozitsiyasiga
- V) Betaraflik pozitsiyasiga
- G) Mojaroga maqsadga muvofiq aralashuv pozitsiyasiga.

5. Nizolarga pedagogik aralashuvning muvaffaqiyati o'qituvchining pozitsiyasiga bog'liq. "O'qituvchi nizo uning ta'lim oluvchilar bilan tarbiyaviy ishidagi muvaffaqiyatsizliklar ko'rsatkichi ekanligiga ishonch hosil qiladi va vaziyatdan chiqish yo'llarini bilmasligidan nizo kelib chiqishi mumkin". Bu qaysi pozitsiyaga tegishli?

- A) Mojarodan qochish pozitsiyasiga
- B) Betaraflik pozitsiyasiga
- V) Mojaroga avtoritar aralashuv pozitsiyasiga
- G) Mojaroga maqsadga muvofiq aralashuv pozitsiyasiga.

6. Nizolarga pedagogik aralashuvning muvaffaqiyati o'qituvchining pozitsiyasiga bog'liq. "O'qituvchi ta'lim oluvchilar jamoasini yaxshi bilishi, bu borada tegishli bilim va ko'nikmalarga ega ekanligiga tayangan holda nizo sabablarini tahlil qiladi, uni bostirish yoki uning rivojlanishiga imkon berish to'g'risida qaror qabul qiladi". Bu qaysi pozitsiyaga tegishli?

- A) Mojaroga maqsadga muvofiq aralashuv pozitsiyasiga
- B) Mojarodan qochish pozitsiyasiga
- V) Mojaroga avtoritar aralashuv pozitsiyasiga
- G) Betaraflik pozitsiyasiga.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Pedagogik nizolarning asosiy turlarini klaster grafik organayzerida ifodalang.

2. Ta'lim oluvchilar o'rtasidagi ziddiyatlarni yechish yo'llarini matn shaklida ifodalang.

3. Ziddiyatlar profilaktikasini tavsiflang.

4. Ziddiyatlarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan pedagogik ishlarni jadval shaklida ifodalang.

Glossariy

Davlat ta'lim standarti (DTS) — asosiy ta'lim dasturining majburiy minimumi belgilab berilgan, ta'lim oluvchilar uchun o'quv materialining maksimal hajmi va bitiruvchilarning tayyorgarligi darajasi talablari ko'rsatilgan me'yoriy hujjat.

Dars berish — musiqa o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha o'qituvchining ma'lum tartibga solingan faoliyati bo'lib, u ko'rsatish, o'rgatish, yo'naltirish, xabardor qilish, tarbiyalash, anglatish va musiqiy bilimlarni amaliyotda qo'llash bilan amalga oshiriladi.

Diagnostika (musiqiy) — musiqiy qobiliyatlar namoyon etilishi holatini tahlil qilish, aniqlash va tegishli xulosalar berish tadbiri.

Diskussiya – musiqa o'quv jarayonining tarkibiy qismlaridan biri: ma'lum musiqa asari yoki janri borasida muhokama, bahs yuritish.

Ijodkor shaxs – musiqiy faoliyatda yuqori natijalar ko'rsatishga intiluvchan va imkoniyati bor shaxs.

Ijodiy faoliyat - musiqiy faoliyat, unda ijodiyot ustun tarkibiy qism sifatida asosiy faoliyatning maqsadi yoki vositalari tarkibiga kiradi.

Ijodiy hamkorlik - shaxsga yo'naltirilgan pedagogika tamoyili bo'lib, xor yoki ansamblda o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi ijro faoliyati jarayoni.

Irsiylik - yoshlarga ota-onalari tomonidan o'tadigan musiqiy layoqat va qobiliyatlardir.

Ixtisos (musiqada) - insonning erishgan musiqiy bilimlari va amaliy ko'nikmalari majmui. Turmushining moddiy va ma'naviy sohasida muayyan musiqiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Insonparvarlik - musiqa ta'limi tamoyili, uning asosida insonning o'zini takomillashtirishga qaratilgan musiqiy imkoniyatlari, qobiliyatlari, e'tiqodini erkin namoyon etishi masalasi yotadi. Hozirgi davrda u musiqa pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biridir.

Kasbiy malaka - musiqa pedagogikasi yo'nalishida mehnat faoliyatini amalga oshirishga imkon yaratuvchi xodimning kasbiy tayyorgarligi darajasi.

Ko'nikma - malakaning tarkibiy qismi bo'lib, musiqiy ijro harakatining ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o'z-o'zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va talabalarda ko'p marta takrorlanadigan musiqiy ijro mashqlari natijasida yuzaga keladi.

Musika madaniyati – musika ijodi, ijrochiligi, tarixi, folkloristikasi va etnografiyasini, jamiyatning tinglovchilik imkoniyatlari va ko'lamini o'z ichiga olgan madaniyat.

Malaka - ongli ravishda bajariladigan musiqiy ijroning bir xil, ko'p marta takrorlanadigan, avtomatlashgan tarkibiy elementidir.

Metodologiya — 1) musiqiy tadqiqotlarni rivojlantirishning umumiy yo'nalishi, maqsadi, chegaralari, tamoyillarini aniqlab beradi; 2) musiqiy bilishning ilmiy metodi haqidagi ta'limot.

Monitoring — musiqiy qobiliyatlar namoyon bo'lishi hodisasini eksperiment orqali yoki amaliy faoliyatda kuzatish.

Motiv — 1) musiqiy tinglovchilik ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatga undash; 2) ichki va tashqi shartlar birligi, sub'ektning musiqiy faolligini chaqiruvchi va uning yo'nalganligini belgilovchi ichki sharoitlar; 3) shaxsning musiqiy harakat va amallarni tanlashi asosida yotuvchi anglangan sabab.

Pantomimika - gavda, bosh, qo'l va oyoq harakati.

Pedagogika — fan, u o'qitish, tarbiyalash, insonni rivojlantirish masalalari bilan shug'ullanib, o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatdagi faoliyat va hayotga tayyorlaydi.

Pedagogik antropologiya — tarbiyalashning falsafiy asosi bo'lib, tarbiya tuzilishini tabiatning yaxlitligiga muqoyasa qilib tushuntiradi.

Pedagogik ta'sir — o'qituvchining qo'yilgan musiqiy vazifalarni samarali bajarishni ta'minlash maqsadida tarbiyalanuvchilar ongi, irodasi va emotsiyalariga ta'siri.

Pedagogik aksiologiya - ta'lim, tarbiya va shaxs rivojlanishidagi pedagogik qadriyatlarni o'rganadigan pedagogika bo'limi.

Pedagogik jarayon - ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan, mazmunan boyitilgan hamda tarbiyaning yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir.

Pedagogik faoliyat — pedagogik jarayonda tarbiya, rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalash, shuningdek, o'zini erkin ifodalash uchun tanlash imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlovchi kasbiy faoliyatdir. Pedagogik faoliyatning asosiy muammosi – o'qituvchining talablarini o'quvchilarning imkoniyatlari, istaklari va maqsadlari bilan uyg'unlashtirishdir.

Pedagogik kasbiy burch — o'qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlaydigan axloqiy talablar sistemasi.

Pedagogikaning qismlari – 1) Pedagogikaning umumiy asoslari; 2) Ta'lim va o'qitish nazariyasi (didaktika); 3) Tarbiya nazariyasi; 4) Maktabshunoslik (o'qitish, tarbiyalashni tashkil etish va boshqarish).

Pedagogik mahorat — shaxsning xossalari kompleksi bo'lib, o'qituvchining kasbiy o'zini-o'zi tasarruf etishining yuqori darajasi.

Pedagogik tafakkur — bu o'qituvchining ta'lim oluvchi pozitsiyasidan turib tafakkur qilishi, ya'ni, ularning xulq-atvor motivlarini, qiziqishlari yo'nalishlari, ehtiyojlari, ichki olamini bilishidir.

Pedagogik qobiliyatlar - o'qituvchining individual-psixologik xususiyatlari bo'lib kasbiy pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish shartlaridan biridir.

Pedagogik ijodiyot — o'quv-tarbiya ishlarining yanada takomillashtirilgan shakllarini izlash, pedagogik muammolarni muvaffaqiyatli yechish, talaba (o'quvchi)larni o'qitish va tarbiyalashning sifatini oshirishga yo'naltirilgan faol jarayondir.

Pedagogik takt — o'qituvchining talaba (o'quvchi)larga maqbul pedagogik ta'sir chorasi, o'qituvchining samarali muloqot o'rnatishi uslubidir.

Pedagogik etika — o'qituvchining xulq-atvori va dunyoni anglashining o'ziga xos nizomi bo'lib, o'qituvchi faoliyati jarayonida yaxshilik va yomonlikni tanlashga imkon yaratadigan, umuminsoniy qadriyatlar va pedagogik faoliyat qadriyatlariga

asoslanadigan axloqiy talablar birligidir.

Refleksiya — o‘z shaxsiy kechinmalari, sezgilari va fikrlari yuzasidan mulohaza yuritish shaklidagi o‘z-o‘zini anglash.

Seminar - bu ta‘lim beruvchini ta‘lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo‘naltirilgan, nazariy bilimlarni amalga oshirish uchun sharoitni ta‘minlovchi, mashg‘ulotni o‘qitish shaklidir.

Tarbiya (pedagogik hodisa sifatida) —

1) ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan, o‘quvchining yuqori darajadagi rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan, uning zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitga kirib borishiga ko‘maklashadigan, shaxs sifatida o‘z hayotini, uning motiv va qadriyatlarini shakllantirishiga qaratilgan o‘qituvchining kasbiy yuqori darajadagi faoliyati;

2) maxsus tayyorlangan mutaxassislar ko‘magida o‘quv-tarbiya muassasalarida shaxsga ta‘lim berish maqsadida yaxlit, ongli tashkil etilgan pedagogik jarayon;

3) bolalar va kattalarga ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ta‘sir etishning ochiq sistemasi. Bunda bolalar ongiga ma‘lum ijobiy o‘zgarishlar kiritish mumkinligini nazarda tutganda, ularni optimal rivojlantirish (bolalar ham tarbiya sub‘ekti, ham ob‘yekti bo‘lib qoladi);

4) tarbiyalanuvchiga turli vaziyatlarda tanlash va o‘z yo‘lini topish imkoniyati singari muqobil xulq-atvor va hatti-harakatlar usullarini taklif etish (qoldirish);

5) shaxsni rivojlantirish, uning ijtimoiy muhitda xarakter sifatleri, munosabatlari, qarashlari, e‘tiqodi, hatti-harakati usullari rivojlanishi va shakllanishiga qaratilgan ma‘xsus yo‘naltirilgan ta‘sir jarayoni va uning natijasi;

6) bola tomonidan madaniy ne‘matlar va qadriyatlarni o‘zlashtirish, tarbiya maskanlari, ijtimoiy muhit va institutlar tomonidan o‘z-o‘zini tarbiyalash va mustaqil ta‘lim olishi maqsadida uning imkoniyatlarini rag‘batlantirish orqali ushbu tajribalarni uning o‘zlashtirishi va o‘ziga singdirib olishi uchun sharoitlar yaratish jarayoni;

7) (tor, qisqa ma‘noda) aqliy, yo‘naltirilgan va h.k. yaxlit tarbiyaviy jarayondir.

Ta'lim vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar.

Ta'lim berish usuli - belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tartibli tashkil etish yo'li.

Ta'limni insonparvarlashtirish — o'qitishning mazmuni, shakli va metodlariga insonparvarlik g'oyalarini keng singdirish; ta'lim berish jarayonida shaxsning har tomonlama va erkin rivojlanishi, uning jamiyat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash.

Umumpedagogik tayyorgarlik - pedagogik kategoriyalar va metodologik asoslar haqidagi bilimlarni shakllantirish.

Fan — tabiat, jamiyat va tafakkur borasidagi yangi bilimlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotchilik faoliyati.

Faoliyatli yondashuv — predmetli, qayta yaratuvchi faoliyatda shaxsni har tomonlama rivojlantirish tamoyili.

Shaxsning ijodiy o'zini rivojlantirishi — sub'ekt-sub'ekt munosabatlari bilan namoyon bo'ladigan ijodiy faoliyatning o'ziga xos shakli. Unda o'zini-o'zi bilish, o'zini-o'zi boshqarish, ijodiy o'zini-o'zi anglash, ijodiy o'zini safarbar etish va shaxsning o'zini-o'zi takomillashtirishi muhim o'rin tutadi.

Empatiya — boshqalarning tashqi kechinmalariga emotsional hamdardlik, bevosita emotsional achinish hissi.

Estetik tarbiya — insonning hayot va san'atda go'zallik qonunlari asosida yaratuvchanlik bilan mashg'ul bo'lish qobiliyatini takomillashtirish.

Estetik did - shaxsda uning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarining qo'shilishi natijasida hosil bo'ladigan murakkab hodisa.

Estetik ideal - shaxsning tabiat, jamiyat va san'atdagi maqsad tarzida idrok etadigan, takomillashgan go'zallik borasidagi bahosining aks etishi.

Estetik tuyg‘u - shaxsning buyum yoki hodisaga estetik baho berish munosabatini boshdan kechirishi.

O‘quv-tarbiya jarayonini rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlari - yangi, progressiv g‘oyalar va tendensiyalar paydo bo‘lishi; o‘qitish metodlari, ta’limning shakli, vosita va mazmunini yangilashdir.

O‘qitish — qo‘yilgan maqsadga erishish uchun yo‘naltirilgan, o‘qituvchi va talaba (o‘quvchi)larning tartibga solingan birgalikdagi harakati.

O‘qitish va tarbiyalashni insonparvarlashtirish — pedagogik diqqat markazida talaba (o‘quvchi)larning muammo va qiziqishlari qo‘yilishidir.

O‘qituvchining kasbiy kompetentligi — o‘qituvchining pedagogik ong tashuvchisi sifatida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi.

ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>
2. 2022–2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi PF-27-son Farmoni. Elektron manzil: <https://lex.uz/uz/docs/-6396146>
3. Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 yanvardagi O‘RQ-668-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5230682>
4. Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son Qarori. <https://lex.uz/docs/5085887>
5. Абдалина Л.В. Психолого-акмеологическая модель развития профессионализма педагога: автореф. ... д.п.н.: 19.00.13 / Л.В.Абдалина; Тамбовский гос. ун-т им. Г.Р.Державина. - Тамбов, 2008. - 54 с.
6. Авлиякулов Н.Х. Педагогическая технология. - Т.: Aloqachi, 2009. - 148 с.
7. Азаров Ю.П. Искусство воспитывать: книга для учителя. 2-е, испр. и доп. – М.: Просвещение, 1985. - 448 с.
8. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство: Учеб. пособ. для магистратуры всех специальностей - Т.: Издателско-полиграфический творческий дом имени Чулпана, 2005. - 200 с.
9. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Barcha magistratura mutaxassisliklari uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: TDPU, 2003. - 177 b.
10. Алиев Ю.Б. Настольная книга школьного учителя-музыканта. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. – 336 с.
11. Анцупов А.Я. Конфликтология: учебник для вузов / А.Я.Анцупов, А.И.Шипилов. — 4-е изд. - М.: Эксмо, 2009.
12. Арчажникова Л.Г. Профессия – учитель музыки. - М.: Просвещение, 1984. - 111 с.
13. Баныкина С.В. Педагогическая конфликтология: состояние, проблемы исследования и перспективы развития // Современная конфликтология в контексте мира. - Москва, 2001.
14. Барабошкина Л.А. и др. Профессиональная рефлексия как условие продуктивной педагогической деятельности. Эл. адрес: <https://urok.1sept.ru/articles/659584>).
15. Вахриев А.Р. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Vuxoro, 2006. - 46 b.
16. Беспалько В.П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия). – М.: Изд-во МПСИ, Воронеж : МОДЭК, 2002. – 352 с.
17. Библиер В.С. От наукоучения - к логике культуры / Два философских введения в двадцать первый век. - М.: Изд-во политической литературы, 1991. –

С.128.

18. Бородавская Л.З., Явгилдина З.М. Цифровой компонент компетентностной модели бакалавра профиля «Учитель музыки». <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovoy-komponent-kompetentnostnoy-modeli-bakalavra-profilya-uchitel-muzyki>

19. Булигина А.А. Виды педагогических конфликтов. Эл. адрес: <https://nsportal.ru/vuz/pedagogicheskie-nauki/library/2018/01/18/vidy-pedagogicheskikh-konfliktov>

20. Буслова Е.В., Ахлестина А.Ю., Боброва Э.В. Дистанционные образовательные технологии в профессиональной подготовке педагогов-музыкантов в университете. Эл. адрес: <https://cyberleninka.ru/article/n/distantсионные-obrazovatelnye-tehnologii-v-professionalnoy-podgotovke-pedagogov-muzykantov-v-universitete>

21. Вержибок Г.В. Проявления личностных характеристик педагогов на разных этапах профессионализации // Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири. 4/2014. –С.38-50.

22. Virtual kutubxona va uning afzalliklari. O'qituvchining elektron portfoliosi. <https://kvakusha.ru/uz/chto-takoe-virtualnaya-biblioteka-sozdanie-virtualnoi.html/>

23. Воронов А.М., Горбунова И.Б. Музыкально-компьютерные технологии в обучении студентов музыкальных вузов с нарушением зрения. Современное музыкальное образование-2010: материалы международной научно-практической конференции. 2011. -С.208 – 211.

24. Воронов А.М., Горбунова И.Б., Камерис А., Романенко Л.Ю. Музыкально-компьютерные технологии в школе цифрового века. Вестник Иркутского государственного технического университета. 2013; 5 (76): -С.240 – 246.

25. Гафуров Х.М. Педагогическая технология и педагогическое мастерство. Учебное пособие для слушателей магистратуры. Ташкент, 2008. - 75 с.

26. Гилмеева Р.Х., Зеленкова Е.В. Формирование педагогической компетентности музыканта-педагога на основе интеграции профессиональных и гуманитарных дисциплин. <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-pedagogicheskoy-kompetentnosti-muzykantapedagoga-na-osnove-integratsii-professionalnyh-i-gumanitarnyh-distsiplin>

27. Говорова А.А., Горбунова И.Б. Музыкально-компьютерные технологии как средство обучения людей с нарушениями зрения музыкальному искусству. Теория и практика общественного развития. 2015. -С.298–301.

28. Говорова А.А., Горбунова И.Б. Музыкально-компьютерные технологии в обучении детей с глубокими нарушениями зрения: особенности, проблемы, перспективы. Теория и практика общественного развития. 2015. - С.470 – 477.

29. Головин С.Ю. Словарь практического психолога. - М.: АСТ, Харвест. 1998.
30. Горбунова И.Б. Информационные технологии в музыке и музыкальном образовании / Журнал "Мир науки, культуры, образования". №2 (63) 2017. –С.207.
31. Горбунова И.Б. Информационные технологии в музыке. Т.1: Архитектоника музыкального звука: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. Санкт-Петербург: Издательство РГПУ им. А.И.Герцена, 2009.
32. Горбунова И.Б. Информационные технологии в музыке. Т.2: Музыкальные синтезаторы: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. Санкт-Петербург: Издательство РГПУ им. А.И.Герцена, 2010.
33. Горбунова И.Б. Информационные технологии в музыке. Т.3: Музыкальный компьютер: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. Санкт-Петербург: Издательство РГПУ им. А.И.Герцена, 2011.
34. Горбунова И.Б., Заливадный М.С. Информационные технологии в музыке. Т.4: Музыка, математика, информатика: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. Санкт-Петербург: Издательство РГПУ им. А.И.Герцена, 2013.
35. Гофман И. Фортепианная игра. Ответы на вопросы о фортепианной игре. - М.: Музгиз, 1961. -С.37.
36. Грек С.В. Профессиональная рефлексия и её место в развитии личности будущих педагогов / VII Всероссийская научно-практическая конференция «Российское образование в XXI веке: проблемы и перспективы» 29–30 ноября 2012 года.
37. Девяткина Е.Б. Музыкально-педагогическая деятельность учителя музыки как ориентир совершенствования профессиональной подготовки студентов. <https://cyberleninka.ru/article/n/muzykalno-pedagogicheskaya-deyatelnost-uchitelya-muzyki-kak-orientir-sovershenstvovaniya-professionalnoy-podgotovki-studentov>
38. Дедова О.В. Лингвистическая концепция гипертекста: основные понятия и терминологическая парадигма // Вестник Московского университета. Сер. 9. Филология.- 2001. - № 4. - С.22-36.
39. Jo‘rabekova S. "So‘g‘diyona" yangicha yo‘nalishdagi orkestr". "O‘zAS", 2004, 9 iyul soni. №27.
40. Журнал "Современное педагогическое образование". -С.29-31. <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-printsipy-pedagogicheskikh-tehnologiy/viewer>
41. Завалко Е.В. Концептуальная модель инновационной деятельности учителя музыки. <https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptualnaya-model-innovatsionnoy-deyatelnosti-uchitelya-muzyki>
42. Земш М.Б. Методология деловой игры в формировании культуры профессионала. Эл. адрес: <https://monographies.ru/ru/book/section?id=4817>
43. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma.

Tuzuvchilar: D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 136 b.

44. Калиткина Е.В. и др. Особенности педагогических конфликтов / Актуальные вопросы современной педагогики: материалы XI Междунар. науч. конф. – Казань : Молодой ученый, 2018. - 60 с.

45. Kamoldinov M., Vahobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari, savollar, javoblar. Uslubiy qo‘llanma. -T.: Talqin, 2010. - 128 b.

46. Клименко И.В. Педагогическое мастерство. Учебное пособие. Т., 2011. – С.57.

47. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. Darslik. -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. - 454 b.

48. Климов Е.А. Образ мира в разнотипных профессиях. М., 1995. - С.176-181.

49. Кобзева Л.Н. Психолого-педагогические факторы становления профессионально важных качеств будущих педагогов в современном образовательном пространстве. Эл. адрес: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=32054>

50. Корзникова С.В. Групповые формы работы как средство повышения познавательной активности на уроках музыки. <https://urok.1sept.ru/articles/685634>

51. Qosimova Z.H. Ta’lim texnologiyalari (pedagogik mahorat). O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2014. - 203 b.

52. Макаренко А.С. О воспитании. – М.: Издательство политической литературы, 1990. – 415 с.

53. Метаева В.А. Профессиональная рефлексия: сущностное и формальное. Эл. адрес: <https://cyberleninka.ru/article/n/professionalnaya-refleksiya-suschnostnoe-i-formalnoe/viewer>

54. Мухаметзянова Н.В., Сабитова Л.Б. Способность к рефлексивному самоуправлению в педагогической деятельности // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – №2.; URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=12942>

55. Николаева Л.В. Педагогика сотрудничества как эффективная технология в преподавании физики. Эл. адрес: <https://conseducer.ru/index.php/chtenya/145-nikolaeva>

56. Новикова А.А. Основные принципы педагогических технологий.

57. Педагогическая энциклопедия. <https://didacts.ru/termin/vezhlivost.html>

58. Nuendo_10.3.0. Руководство ползователя. Premium Media Production System. Cristina Bachmann, Heiko Bischoff, Lillie Harris, Christina Kaboth, Insa Mingers, Matthias Obrecht, Sabine Pfeifer, Benjamin Schütte, Marita Sladek. Steinberg Media Technologies GmbH, 2020. – P.17.

59. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Toshkent, 2007. - 195 b.

60. Петрова М.Ю. Научно-исследовательская деятельность как фактор повышения педагогического мастерства учителя музыки. Дисс-я канд. пед. наук: 13.00.08. - Москва, 2011. - 148 с.
61. Петровский А.В., Ярошевский М.Г. Психология: Учебник для студ. высш. пед. учеб. заведений. - 2-е изд..М.: Академия, 2001.
62. Петрушин В.И. Музыкальная психология : учебник и практикум для академического бакалавриата. - М. : Издательство Юрайт, 2017. - 380 с.
63. Петухова М.Н. Метод проекта как форма организации учебной деятельности при обучении английскому языку / М.Н.Петухова // Молодой ученый. - 2016. - № 3 (107). - С.892-895.
64. Поддубная Л.В. Создание гипертекстовой реальности современными информационными средствами // Вестник БГТУ имени В.Г.Шухова. 2014, №1. –С.243-248.
65. Проская М.А. Профилактика школьных конфликтов между детьми // Международный научный журнал «Символ науки». №04-2/2017. –С.179-181. Эл. адрес: <https://cyberleninka.ru/article/n/profilaktika-shkolnyh-ziddiyatov-mezhdu-detmi>
66. Raximov O.D., Turg'unov O.M., Mustafayev Q.O., Ro'ziyev H.J. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. - T.: Fan va texnologiya, 2013. - 200 b.
67. Реан А.А. Социальная педагогическая психология / А.А.Реан, Я.Л.Коломинский. СПб., 1999. - 343 с.
68. Рыбакова М.М. Конфликт и взаимодействие в педагогическом процессе: Кн. для учителя. - М.: Просвещение, 1991.
69. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий. Т.1. -М.: Народное образование, 2006. - 468 с.
70. Сламбекова Т., Агзамова Г. Профессионально-личностные качества будущих педагогов. <http://oldconf.neasmo.org.ua/node/1951>
71. Смирнова Ж.В., Красикова О.Г. Современные средства и технологии оценивания результатов обучения // Вестник Мининского университета. 2018. Том 6, №3. –С.12.
72. Способности и профессионально-важные качества учителя музыки. Эл. адрес: <http://www.eduriver.ru/dionums-140-1.html>
73. Стравинский И.Ф. Диалоги. -Л.: Музыка, 1971. -С.137.
74. Sibelius 7. Руководство / This guide is copyrighted © 2014 by Avid Technology Inc. – 144 p.
75. Такулова М.М. Современные методы оценки знаний, умений и навыков. <https://infourok.ru/sovremennie-metodi-ocenki-znaniy-umeniy-i-navikov-uchaschihsya-na-urokah-matematiki-v-starshih-klassah-2321787.html>
76. Трусова В.А., Медведев Е.В. CUBASE 5 и NUENDO 4. Наиболее полное руководство (+DVD). Издательство: ДМК-Пресс, 2010. – 560 с. <https://www.labyrinth.ru/books/249408/>
77. Turakulov E. Pedagogik texnologiyalar va mahorat. Magistrlar uchun o'quv qo'llanma. Samarqand, 2006. - 134 b.
78. Умарова Ф.З. Графические органайзеры в процессе обучения.

<http://newjournal.org/index.php/new/article/view/3095>

79. Уткин Э.А. Конфликтология: теория и практика. - М., 2000.

80. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2006. - B.575.

81. Фатхуллина Л.З., Ярцева Д.С. Теоретико-методологические методы предупреждения конфликтов в школьной среде. Эл. адрес: <https://cyberleninka.ru/article/n/teoretiko-metodologicheskie-metody-preduprezhdeniya-konfliktov-v-shkolnoy-srede>

82. Ханевская Г.В. Здоровый образ жизни молодой семьи как один из факторов ее благополучия. Novainfo.ru. 2017. №60-1.

83. Ханевская Г.В. Проблема популяризации физической культуры среди детей и молодежи. В сборнике: Взаимодействие науки и общества: проблемы и перспективы. Сборник статей Международной научно-практической конференции. 2016. -С.119-121.

84. Характеристика педагогического взаимодействия как процесса. Эл. адрес: <https://znanio.ru/pub/40>

85. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2010. - 312 b.

86. Чернова Г.Р. Педагогический конфликт: специфика и способы управления. –С.343-346. <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogicheskiy-konflikt-spetsifika-i-sposoby-upravleniya>

87. Шайхутдинова Д.И. Инновационный подход в преподавании музыкально-теоретических дисциплин (На материале музыкальной гимназии). Дисс-я канд. пед. наук: 13.00.08. Уфа, 2004. - 219 с.

88. Shukurova F. Chang sozining ustasi edi. «O‘zAS», 2004 y., 19 noyabr soni. №46.

89. Шустова И.Ю. Значение рефлексии в профессиональной воспитательной деятельности педагога. -С.61-68. <https://cyberleninka.ru/article/n/znachenie-refleksii-v-professionalnoy-vospitatelnoy-deyatelnosti-pedagoga/viewer>

90. Яхругина М.А. Технология сотрудничества как средство повышения познавательной активности учащихся на уроках музыки. Эл. manzil: <https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/362422-tehnologiya-sotrudnichestva-kak-sredstvo-povy>

91. <https://dic.academic.ru/>

92. <https://kartaslov.ru/>

93. <https://terme.ru/termin/tehnologija.html>

94. <https://news.mail.ru/guide/chtotakoe-tehnologiya-96/>

95. https://synergy.ru/about/education_articles/speczialnosti/kem_mozhno_rabotat_v_innovatike

96. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/1506378>

97. <https://viafuture.ru/sozdanie-startapa/pedagogicheskaya-innovatika>

98. <https://viafuture.ru/sozdanie-startapa/pedagogicheskaya-innovatika>

99. https://studbooks.net/1736071/pedagogika/printsipy_pedagogicheskoy_teh

nologii

100. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/282193>)
101. https://manual.calibre-ebook.com/ru/virtual_libraries.html
102. <https://kiro-karelia.ru/activity/journal/nomera/> elektronnoe-portfolio-pedagoga-kak-forma-predstavleniya-pedagogicheskogo-opyta-2
103. <https://uportfolio.ru/>
104. <http://www.rae.ru/monographs/149-4817>
105. <https://challengel.com/article/chto-takoe-keysy/>
106. <https://nsportal.ru/kultura/muzykalnoe-iskusstvo/library/2015/02/14/razvitie-vidov-i-form-sotrudnichestva-na-urokakh>
107. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/29811>
108. <https://www.e-xecutive.ru/wiki/index.php5>
109. <https://externat.foxford.ru/polezno-znat/modulnoe-obuchenie-na-semejnom-obrazovanii>
110. <https://niidpo.ru/blog/modulnoe-obuchenie-chto-eto>
111. <https://cyberleninka.ru/article/n/distantcionnaya-forma-obucheniya-v-dopolnitelnom-professionalnom-obrazovanii-muzykanta-ispolnitelya>
112. <https://bigenc.ru/c/skinner-berres-frederik-36c076>
113. http://www.teach-nology.com/web_tools/graphic_org/
114. <http://www.enchantedlearning.com/graphicorganizers/>
115. <https://exceltable.com/grafiki/kak-postroit-gistogrammu>
116. <https://infourok.ru/urok-laboratornaya-rabota-po-teme-obekti-smartart-648674.html>
117. <https://www.microsoft.com/ru-ru/microsoft-365/powerpoint>
118. <https://xn--e1aogju.xn--p1ai/schema/14688-klassifikacii-pedagogicheskikh-sposobnostei-v-a-kruteckii.html>
119. <http://5psy.ru/obrazovanie/ziddiyati-v-shkole.html>
120. <https://moodle.kstu.ru/mod/book/view.php?id=55553>

Mundarija

Kirish.....	3
I-MODUL. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT FANINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.	
Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	6
Oliy musiqa ta'limida o'qituvchining innovatsion faoliyati.....	30
II-MODUL. INTERFAOL O'QITISH METODLARI, SHAKLLARI VA VOSITALARI.	
Pedagogik innovatsion texnologiyalar asosida musiqa fanlarini o'qitish.....	51
Oliy musiqa ta'limida interfaol metodlar: tasnifi va qo'llanishi.....	83
Pedagogik mahorat va uning o'qituvchi kasbiy faoliyatida namoyon etilishi xususiyatlari.....	108
III-MODUL. MUSIQIY PEDAGOGIK JARAYONDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING AMALIY ASOSLARI	
Musiqa mashg'ulotlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash....	122
Dars materialini o'zlashtirishda grafik organayzerlar va infografikadan foydalanish.....	130
“Sibelius” nota matni muharriri va “Nuendo_10.3.0” audio muharririni kasbiy shakllanishda qo'llash texnologiyasi.....	142
Pedagogik texnika - o'qituvchi kasbiy mahoratini yuzaga chiqarish omili.....	151
Pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish texnologiyalari.....	160
Glossariy.....	170
Adabiyotlar.....	176

Содержание

Введение.....	3
МОДУЛЬ I. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА.	
Предмет, цель и задачи педагогических технологий и педагогического мастерства.....	6
Инновационная деятельность педагога высшего музыкального образования.....	30
МОДУЛЬ II. МЕТОДЫ, ФОРМЫ И СРЕДСТВА ИНТЕРАКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ.	
Преподавание музыкальных предметов на основе педагогических инновационных технологий.....	51
Интерактивные методы в высшем музыкальном образовании: классификация и применение.....	83
Педагогическое мастерство и особенности его проявления в профессиональной деятельности учителя.....	108
МОДУЛЬ III. ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МУЗЫКАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ.	
Применение современных образовательных технологий на уроках музыки.....	122
Использование графических органайзеров и инфографики при усвоении учебного материала.....	130
Технология использования нотного редактора «Sibelius» и аудио- видеоредактора «Nuendo_10.3.0» в профессиональном обучении музыке.....	142
Педагогическая техника – фактор раскрытия профессионального мастерства педагога.....	151
Педагогические конфликты и технологии их устранения.....	160
Глоссарий.....	170
Использованная литература.....	176

Contents

Introduction.....	3
MODULE 1. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE SCIENCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND PEDAGOGICAL SKILLS.	
The subject, purpose and tasks of the science of pedagogical technologies and pedagogical skills.....	6
Innovative activity of the teacher in higher music education.....	30
MODULE II. METHODS, FORMS AND MEANS OF INTERACTIVE TRAINING.	
Teaching musical subjects based on pedagogical innovative technologies.....	51
Interactive methods in higher music education: classification and application.....	83
Pedagogical skills and the characteristics of its manifestation in the teacher's professional activity.....	108
MODULE III. PRACTICAL PRINCIPLES OF USING MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE MUSICAL AND PEDAGOGICAL PROCESS.	
Application of modern educational technologies in music lessons.....	122
Using graphic organizers and infographics when mastering educational material.....	130
Technology of using the sheet music editor “ <i>Sibelius</i> ” and the audio-video editor “ <i>Nuendo_10.3.0</i> ” in professional music teaching.....	142
Pedagogical technique is a factor of revealing the teacher's professional skills.....	151
Pedagogical conflicts and technologies for their elimination.....	160
Glossary.....	170
References.....	176

Axmad BAXRIYEV

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT

Darslik

Bosishga ruxsat etildi. 08.10.2024 y.
Qog`oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman
garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog`ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog`i 11.75, Adadi 100. Buyurtma № 62
Bahosi kelishuv asosida

“BROK CLASS SERVIS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar Zargarlik ko'chasi, Segizbayeva 10a.